Jalolquduq Andijonsoy bo‘yida 65-raqamli quduq atrofidan chiqadigan harorati 70^0 ga teng bo‘lgan mineral suv tayanch bo‘g‘inlarni davolashda ahamiyatli bo‘lib, undan aholi keng foydalanadi, ammo bu joylar ta’mirlash va obodonlashtirish ishlariga muhtoj.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda eski qadimiy tarixiy obidalar soni juda ko‘p bo‘lib ularga insonlar tomonidan e’tibor kerak.Ko‘plarini ta’mirlash ishlarini olib borib qayta tiklash lozim.O‘zbekiston uzoq ming yillik tarixga ega bo‘lganligi kabi yurtimizda yana arxitektura qidiruv ishlarini olib boorish topilmagan tarixni ochish va dunyo tamadduniga O‘zbekiston tarixini ko‘rsatib berish xaqlimizning oldida turgan asosiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017-y.
2. A.Asqarov “O‘zbekiston tarixi” 1994-y
3. To‘xtaev A. S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 1964-y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI O‘STIRISHDA SAHNALASHTIRILGAN TEATR O‘YINLARINING O‘RNI

Yuldasheva Madina Rashidovna
Sharof Rashidov tumani
27-son DMTT direktori

Annotatasiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda sahnalashtirilgan teatr o‘yinlarining o‘rni haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: ijodga e’tibor, qiziqish, intilish, quvonch hissi, qobiliyat, nutqiy rivojlanish, emotsional faoliyat, ichki kechinmalar, bola nutqi, tovush madaniyat.

Аннотация: В данной статье говорится о роли постановочных театральных игр в развитии творческих способностей дошкольников.

Ключевые слова: внимание к творчеству, интерес, стремление, чувство радости, способность, речевое развитие, эмоциональная активность, внутренние переживания, детская речь, звуковая культура.

Abstract: This article talks about the role of staged theater games in developing the creative abilities of preschool children.

Key words: attention to creativity, interest, aspiration, feeling of joy, ability, speech development, emotional activity, inner experiences, children’s speech, sound culture.

O‘yin bola hayotida yetakchi o‘rinni egallaydi. Har bir insonning bolaligi rolli va sahnalashtirigan ijodiy o‘yinlar asosida o‘tadi. Teatr bolani ma’naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o‘ynab, quvonadi, o‘ynab atrof- olamni o‘rganadi, ya’ni uning emotsional olami boyiydi. Bolada ijodga e’tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo‘lishi uning ta’surotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin.

Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi qimmatli mazmun olib kiradi, quvonch hissini uyg‘otadi, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi. Shuningdek, teatrlashtirilgan saxnalashtirish faoliyati bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatining rivojlanishiga ya’ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o‘yin, fantaziya, to‘qib chiqarish orqali kengaytiradilar.

Saxnalashtirilgan teatr faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog‘liq bo‘lib, qahramonlarning so‘zlari, bola nutqi bilan uyg‘unlashib uning so‘z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyat mukammalashadi.

Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar o‘z ichiga ertaklardan lavhalar qo‘yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o‘xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo‘g‘irchoq tomoshalarini ko‘rish va uni muhokama qilish, dramatizatsiyalashgan o‘yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni xissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

Quyidagi keltirilgan vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan darslar majmuasi davomida hal etiladi:

- tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o‘z o‘ziga ishonish tuyg‘ularini shakllantirish;
- bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg‘otish;
- improvizatsiya (o‘xshatish) qilish ko‘nikmalarini egallash;
- nutq faoliyatining barcha shakl, funksiya va komponentlarini rivojlantirish;
- bilish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

Saxnalashtirish o‘yin teatrlashtirilgan mashg‘ulotning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan o‘yinni o‘tkazishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- janr va mavzuning turli-tumanligi;
- pedagogik faoliyatning barcha yo‘nalishlariga teatrlashtirilgan faoliyatni har doim va har kuni singdirish.
- Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni tayyorlash va o‘tkazishdagi maksimal faolligi.
- Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni uyushtirishda o‘zaro va kattalar bilan hamkorligi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, sahnalashtirilgan teatr faoliyati, san’atning amaliy turi sifatida, ham tarbiya, ham ta’lim uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi. Aynan u bolani to‘laqonli qiziqtirishi, uni yanada jur’atli, faol qila olishi mumkin. Sahnalashtirilgan teatr faoliyati bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola aqlan, jismonan va, eng muhimi, emotsional rivojlanadi. Teatrlashtirilgan faoliyat bilan shug‘ullanish bolalarga nafaqat ertaklar vositasida atrof olamni o‘rganish va bilish, balki u bilan uyg‘unlikda yashash, turli faoliyat shakllaridan zavq olish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta spektakllarni qo‘yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o‘zlarining

o‘yinchoqlari yordamida qo‘yish mumkin. Bu kichik ko‘rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg‘otadi va bayram ertaklariga ko‘tarinki rux baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo‘g‘irchoq teatri orqali ko‘rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Toshkent – 2010y.
2. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova.maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O‘zPFITI nashriyoti – 2015 yil
3. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006y.

CHIZMALARNI CHIZISHDA YO‘L QO‘YILADIGAN TIPIK XATOLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Mamajonova Gulxayo Bahromjon qizi
Qo‘qon DPI, Tasviriy sana’t va muhandislik grafikasi
kafedrasi o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chizmachilik fanini o‘qitish jarayonida chizmalarni chizishda yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolar va ularni oldini olish tipik xatolar sababalarini to‘g‘risida so‘z boradi. Tipik xatolar sababalarini o‘rganish o‘quvchilarni grafik ishlar chizishlarida ularning nazariy va amaliy bilimlarini oshirish haqida ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tipik xatolar, grafik ishlar, qirqim, kesim, yig‘ish chizmalari.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishida chizmaga g‘oyat katta e’tibor berilib, bir qator talablar ham qo‘yilmoqdaki, turli belgilar, qoidalarni bilish va uni tushinish maxsus tayyorgarlikni hamda grafik savodxonlikni talab qilmoqda.

Chizma texnika tili ekanligi, chizma geometriya shu tilning grammatikasi ekanligi xammaga ma’lum [1]. Bu esa, ta’lim tizimida uni o‘qitish ishlariga ma’suliyat bilan yondoshishni talab qiladi. Ayniqsa, grafik bilimlarni egallashda duch kelayotgan salbiy oqibatlarning sabablarini o‘rganish, tadqiq qilish lozim. Ana shunday sabablardan biri o‘quvchilarning tushunchalarida, ularning bajarayotgan grafik ishlarida paydo bo‘layotgan, ko‘r-ko‘rona yo‘l qo‘yilayotgan va ob’ektiv sabablarga ko‘ra yuzaga kelayotgan tipik va texnik xatolar borki, ularni o‘rganish va oldini olish masalasi fanni o‘qitish metodikasi oldida dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Xatoliklar qaysi ob’ektda, qanday sharoitda va qanday jarayonlarda ro‘y berishi va uning sabablarini o‘rganish, chizmachilik fani doirasida o‘quvchilar tomonidan chizma bajarishda yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolar va ularni bartaraf etish omillarini ishlab chiqish zarur bo‘lib qolmoqda.

Chizma bajarishda o‘quvchilar yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolar asosan 3 xil toifaga bo‘linadi [2].

1. Nazariy bilimlarning noto‘g‘ri o‘zlashtirilishi oqibatida chizmalarning noto‘g‘ri bajarilishi bilan yuzaga keladigan xatolar;
2. Tipik xatolar, ya’ni ko‘pchilik yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolar;
3. O‘quvchilarning loqaydligi va e’tiborsizligi tufayli sust o‘zlashtirishi hisobiga yo‘l qo‘yiladigan xatolar.

Ko‘pchilik yo‘l qo‘yadigan bir xil xatolar va shunday xatolarning yuzaga kelishi oldindan bashorat qilinishi tipik xatolar deyiladi [3]. Shuningdek, o‘quv adabiyotlarda bu xatolikka kutiladigan (kutilayotgan) xato, ya’ni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan

xatolar deb ham qaralgan [4]. Bu borada, har bir o‘quv dasturiga kiritilgan mavzularga oid grafik topshiriqlar, grafik tasvirlar, ma’lum chizma bajarish jarayonidan iborat. Demak, bu jarayon ma’lum bir bilimni, qonun-qoidani va GOST talablarini bilish bilan bajariladi.

Tipik xatolar quyidagi sabablar oqibatida yuzaga kelishi kuzatiladi:

1) O‘qituvchining noto‘g‘ri tushuntirishi sababli;

2) O‘quv adabiyotlarning kamchiliklari sababli (ayrim o‘quv adabiyotlarida nafaqat stilistik, balki GOST talablarining noto‘g‘ri talqin qilinishi bilan chop etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar ham mavjud). [5].

Chizmachilik o‘qituvchisi birinchi darsdan boshlab o‘quvchilarda fanni puxta o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini va intilish hissini uyg‘ota olmasa, o‘quvchilarda chizmachilikdan egallanishi kerak bo‘lgan bilimlar ancha qiyin shakllantiriladi. Chunki har bir chizmachilik darsida bayon qilinayotgan yangi ma’lumotlar, atamalar, qonun-qoidalar hamda standart talablar oqimini o‘z vaqtida o‘zlashtirib olish o‘quvchilar uchun ma’lum darajada qiyinchilik tug‘diradi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarga bu ma’lumotlarni ongli ravishda tushunishlariga, o‘zlashtirishlariga yordam bersa, keyinchalik chizmachilikni o‘zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklarga uchramaydi. O‘quvchilarning grafik savodxonligini shakllantirishda ularning yosh xususiyatlari va qizishlarini hisobga olib tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmualar, ayniqsa darslik va o‘quv qo‘llanmalarning o‘rni ham juda katta.

Keyingi yillarda umumta’lim maktablari, shuningdek, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yutlari uchun nashr qilinayotgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda mualliflarning e’tiborsizligi sababli ko‘plab har xil xatoliklar xam uchramoqdaki, buning oqibatida o‘quvchilarning noto‘g‘ri ma’lumotlar bilan qurollanishiga va xato tushunchaga ega bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda. Bularning oldini olish maqsadida, o‘qituvchi dars jarayonida darsliklarda yo‘l qo‘yilayotgan asosiy xatoliklarni aniqlab, tuzatib, o‘quvchilarga tushuntirib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarning chizma bajarish va uni taxt qilish bo‘yicha standart talablarni yaxshi bilmasligi, ularda fazoviy tasavvurning etarli darajada rivojlanmaganligi, chizmachilik kursining asosiy mavzularini yaxshi o‘zlashtirilmaganligi natijasida quyidagi xarakterli tipik xatolar ko‘p uchraydi:

1. Bir turdagi chiziqlarning bitta chizmada turli xil qalinliklarda bajarilishi, shtrix va shtrix-punktir chiziqlardagi shtrixlar orasidagi masofa hamda shtrixlar uzunligining har xilliligi;

2. Qirqim va kesim yuzalarini belgilashda shtrixlash chiziqlarining oraliq masofalari va qiyaliklarini bajarishda standart talablariga amal qilinmasligi.

3. Chizma kog‘ozi ko‘lamida tasvirlarning nomuvofiq joylashtirilishi.

4. Chizma masshtabi o‘zgartirilib bajarilganda, haqiqiy o‘lcham sonlari o‘rniga chizmada kichraytirilgan yoki kattalashtirilgan o‘lcham sonlarining yozilishi.

5. Tutashmalarni bajarishda tutashma markazlari va ularning tutashish nuqtalarini aniqlamasdan o‘tqazilishi.

6. Proeksion bog‘lanishlarning buzilishi.

7. Qirqim bajarishda detallarning qirqimga tushgan qismi bilan bo‘shliq qismlari ham qo‘shib shtrixlanishi.

8. Ko‘rinishning yarmi bilan qirqimning yarmini birlashtirishda ko‘rinarli kontur chiziq bilan ajratilishi.

9. Yaxlit val, spitsa (kegay), mustahkamlik qovurg‘alarini bo‘ylama qirqimda shtrixlab tasvirlash.

10. Teshikdagi rezbaning noto‘g‘ri tasvirlanishi va belgilanishi.

11. Ajraluvchi va ajralmaydigan birikmalarni tasvirlash va ulardagi belgilashlarning xatoligi.

12. Yig‘ish chizmasini bajarishdagi shartliliklarga amal qilinmaslik. [6]

Chizmachilik o‘qituvchisi birinchi darsdan boshlab o‘quvchilarda grafik madaniyat elementlarini to‘g‘ri shakllantirishga katta ahamiyat berishi kerak. Grafik madaniyat deganda kishilarning fan, texnika, dizayn kabi yo‘nalishlarning turli sohalarida grafik bilim va ma’lumotlardan o‘rinli foydalana olishi hamda ularni to‘g‘ri tushuna olishi nazarda tutiladi. Chizmachilik darslarida o‘quvchilar chizmachilik asboblari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar; turli xil qalinlikdagi va har xil vazifani bajaradigan chizma chiziqlarini chizadilar; parallel va perpendikulyar to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazish, kesma va aylanani teng qismlarga bo‘lishni; yassi shakllar konturini bajarishni; shartli grafik belgilar yordamida sodda kinematik va elektrik sxemalarni o‘qish va bajarishni o‘rganadilar. Har bir zamonaviy kishi grafik madaniyat asoslarini egallagan bo‘lishi talab qilinadi. [7]

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonida o‘quvchilar tomonidan ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko‘ra yo‘l qo‘yiladigan turli xatoliklar, jumladan tipik xatolarning o‘qituvchi tomonidan o‘z vaqtida tuzatib, ularning mohiyatini tushuntirilib borilishi mihim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolarni chizma standartlari bo‘yicha materiallarni mustahkamlash yo‘li bilan bartaraf qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalimov M.. Chizmachilik (Geometrik va proyeksion chizmachilik) T.:, Navro‘z, 2014. B-89

2. U. Abdullaev. Chizma geometriya va chizmachilik asoslari, T., 1999. B-33.

3. Чекмарев А.А., Начертательная геометрия и черчение, М.:, Высшее образование, 2006, В- 11

4. Raxmonov I., A.Abduraxmonov, Chizmachilikdan ma’lumotnoma T.:, «Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona ». 2005. B - 17

5. Valiyev A.. Chizmachilik (Geometrik chizmachilik) T.:, TDPU rizografi, 2013. B- 25

6. Yodgorov J., «Geometrik va proeksion chizmachilik», T.:, «Fan». 2008. B - 65

7. Murodov Sh.K.va boshqalar, Topografik chizmachilik, T.:, Cho‘lpon, 2009 B - 45

8. Yodgorov J., Mashinasozlik chizmachiligi, T., O‘zbekiston, 2009

LOGOPEDIK TA’SIR TAMOYILLARI VA METODLARI NIMA?

Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi
Qo’qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika – logopediya
yo’nalishi 1 kurs talabasi
Qurbonova Nazokatxon Iqboljon qizi
Qo’qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika yo’nalishi 1 kurs talabasi

Annotatsiya: Inson xayot gultoji bo‘lsa, farzand oila ne’mati, uning tarbiyasi esa ota-onaning mehnati hisoblanadi. Farzand tarbiyasida nutq va nutq madaniyati barcha jabxada na’munali bo‘lishi kerak. Odam o‘z fikrini nutqi orqali ifodalaydi. Nutqda kamchilik bo‘lsa, buni albatta bartaraf etish yo‘llari va usullari albatta topiladi. Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda etiologik omillarni hisobga olish etiologik omillarni hisobga olish juda muhim. Bular tashqi, ichki, biologik va ijtimoiy-psixologik omillar.

Kalit so‘zlar: Logopedik ta’sir, ta’lim, xususiyat, ilm, tovush, talaffuz, nutq, duduqlanish, muhit, logoped.

Logopedik ta’sir o‘z ichiga korreksion ta’Iim vazifalarini oluvchi pedagogik jarayondan iborat. Korreksion ta’lim jarayonida quyidagi umumdidaktik tamoyillarga katta ahamiyat beriladi: ta’limning tarbiyalovchi xususiyati, ilmiylik, sistemalilik, ketma-ketlilik, ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va faollik, mustahkamlilik, yakkayondashish.

Logopedik ta’sir etishda maxsus tamoyillarga ham asoslanadi: etiopatogenetik (nutqiy nuqson etiologiyasi va mexanizmini hisobga olish), sistemalilik va nutqiy nuqson tuzilishini hisobga olish, komplekslilik, differensial yondashish, shaxs xususiyatlarini hisobga olish, faoliyatli yondashish, ontogenetik tamoyil, tabiiy nutqiy muhit sharoitida mantiqiy ko‘nikmalarni shakllantirish

Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda etiologik omillarni hisobga olish etiologik omillarni hisobga olish juda muhim. Bular tashqi, ichki, biologik va ijtimoiy-psixologik omillar.

Misol uchun, dislaliyada kuzatiladigan noto‘g‘ri prikus, tovushlar talaffuzining buzilishiga, artikulatsion motorikaning rivojlanmay qolishiga sabab bo‘ladi. Bunday paytda logopedik ishlar prikusni to‘g‘rilovchi ortodontik aralashuv bilan birgalikda olib boriladi.

Duduqlanishni bartaraf etishda etiologik omilning xususiyatiga qarab logopedik ish turlicha qurilishi mumkin. Funksional xarakterdagi duduqlanishda asosiy e’tibor nutqiy kommunikatsiyani normallashtirish, ijtimoiy muhitga ta’sirlar psixogen

belgilarni bartaraf etishga qaratiladi. Organik xarakterdagi duduqlanishda logopedik ta’sir asosan motor belgilarni normallashtirishga qaratiladi.

Logopedik ta’sir qator hollarda turli xil tibbiy muolajalar bilan birgalikda olib boriladi. Kompleks tibbiy-ruhiy-pedagogik ta’sir murakkab nutqiy nuqsonlarni asosan dizartriya, duduqlanish va alaliyani bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli toifadagi, rivojlanishi orqada qolgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish o‘zining xususiyatiga ega bo‘ladi. Logopedik ta’sir jarayonida nutqning rivojlanganlik darajasi, bilish faoliyati, bolaning sensor va motor xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Logopedik ta’sir bir maqsadga yo‘naltirilgan murakkab tashkil etiladigan jarayon bo‘lib, bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Ularning har biri o‘zining maqsadi, vazifasi, metod va usullari bilan belgilanadi.

Logopedik ta’sir ontogenetik tamoyil, nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish asosida amalga oshiriladi. Misol uchun bolada tovushlar talaffuzining qo‘pol buzilishida: sing‘aluvchi, shovqinli, sensor, logopedik ishning ketma-ketligi ontogenezda bu tovushlari egallash bilan aniqlanadi (sirg‘aluvchi, shovqinli, sensor).

Logopedik ishlarni olib borishda asosiy o‘rinni, shaxsni bir butunlikda korreksiyalash va tarbiyalash egallaydi. Bunda shaxsning yoshi, nutqiy nuqson tuzilishlari hisobga olinadi. Bosh miyaning shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy faoliyat buzilishlarini korreksiyalashda shaxs xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega (alaliya, afaziya, duduqlanish, dizartriya).

Nutqiy kamchiliklarni korreksiyalash, yetakchi faoliyatni hisobga olish bilan birgalikda olib boriladi Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati, motorika, sensor soha, lug‘at boyligi, til qonuniyatlarini egallash bola shaxsini shakllantirish jarayonida olib boriladi. Turli xil nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik ta’sirning asosiy shakllari bo‘lib, ta’lim-tarbiya, korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya, reabilitatsiya hisoblanadi. Logopedik ta’sir turli xil metodlar yordamida amalga oshiriladi. Ta’lim metodlarining turli xil tasniflari mavjud. Logopedik ishda amaliy, ko‘rgazmali va og‘zaki metodlardan foydalaniladi, u yoki bu metodni qo‘llash nutqiy nuqson xususiyati bilan belgilanadi.

Amaliy metodlarga mashqlar, o‘yin va modellashtirish kiritiladi.

Mashqlar - bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning ma’lum ketma- ketlikda bola tomonidan takrorlanishidir. Artikulatsiya va ovoz kamchiliklarini bartaraf etishda bunday mashqlar ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Artikulatsion mashqlarni doimiy ravishda bajarib turish, tovushni nutqqa quyish va to‘g‘ri talaffuz etish uchun zamin tayyorlaydi.

Mashqlar taqlidiy-bajaruvchi, konstruktiv va ijodiy guruhlarga bo‘linadi.

Taqlidiy-bajariluvchi mashqlar bolalar tomonidan namuna asosida bajariladi. Logopedik ishda asosiy amaliy xarakterdagi mashqlar egallaydi (ovoz, nafas, artikulatsiya, umumiy va mayda qo‘l motorikasini rivojlantiruvchi). Boshlang‘ich

bosqichlarda harakatlar ko‘rgazmalilik asosida egallanadi. Harakat usullari egallangan sari ko‘rgazmalilik "yo‘qolib" boradi va og‘zaki shaklda bayon qilish bilan almashtiriladi. Shu tariqa boshida artikulatsion mashqlar ko‘rgazmalilik asosida ko‘ruv idrokiga tayanib, logoped bilan birgalikda amalga oshiriladi. Keyinchalik bu mashqlar mustahkamlangach, faqatgina logopedning og‘zaki buyruqlari asosida bajariladi.

Logopedik ish jarayonida turli xildagi konstruktorilash turlaridan ham foydalaniladi. Misol uchun, optik disgrafiyani bartaraf etishda bolalar harf qismlaridan butun harflarni yasaydilar. To‘g‘ri psixoterapiya kichik yoshli bolalar uchun turli xil o‘yin usullari, rangli didaktik materiallar, mehnat, musiqa, ritmika va boshqalardan foydalanishda ifodalanadi. Psixoterapiyaning bunday shaklari ruhiy profilaktika va ruhiy gigiyena bilan uzviy bog‘lanadi. Katta yoshli o‘quvchilar uchun psixoterapiyaning asosiy usullaridan keng foydalanish muhimdir.

Ishontirish (suggestiya) — psixoterapiyaning maxsus metodidir. Tashqaridan boshqa shaxs orqali ishontirish (geterosuggestyya) va o‘z- o‘zini ishontirish (autosuggestiya) mavjud. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda psixikaning yetilmaganligi va diqqat-e’tiborni bir joyga qarata olmaslik bilan bog‘liq ravishda psixoterapiya va autogen mashg‘ulotlari ularga nisbatan qo‘llanilmayotir. Ko‘pgina iogopedlar duduqlanadigan bolalar bilan ishlashda qo‘l, yelka, bo‘yin, oyoq, yuz muskullarini bo‘shashtirishga yordam beradigan o‘yin va mashqlardan foydalanishyapti.

Hozirgi davrda logopedik ta’sir etish ikki vo‘nalishda: bevosita va bilvosita amalga oshiriladi. Bevosita logopedik, ta’sir duduqlanuvchilar bilan guruh bo‘lib va yakka tartibda mashg‘ulot olib borish davrida amalga oshiriladi. Bu mashg‘ulotlar umumiy va nutq harakatlarini rivojlantirishni, nafas olish harnda nutq sur’ati va ohangini modellashtirishni, nutqiy muomalani faollashtirishni, zarur holatlarda diqqat bilan eshitish va fonematik idrok etishni rivojlantirishni, tovushlarni talaffuz etishdagi nuqsonlarni tuzatishni, sust va faol lug‘at boyligini kengaytirishni, jumlalami grammatik jihatdan tartibga solishni takomillashtirishni nazarda tutadi. Duduqlanuvchilar bilan mashg‘ulotlar paytida xulq-atvordagi ruhiy og‘ishlar bartaraf etiladi (o‘quvchilarda, o‘smirlarda), nuqsonga nisbatan to‘g‘ri munosabat hosil qilinadi, aqliy qobiliyat, odob va axloq to‘g‘risidagi tasavvurlar rivojlantiriladi, har tomonlama rivojlangan shaxs tarkib toptiriladi

Maktabgacha tarbiy yoshdagi bolalarning nutq rejimi kattalarning keng ko‘lamli yordami orqali amalga oshiriladi. Bunda ular bolalarning bir nutq bosqichidan boshqasiga o‘tishini muntazam nazorat qiladilar. o‘quvchilar, o‘smirlar va kattalarning nutq rejimi ular tomonidan zarur nutq mashqlarini tanlab olishni, ular tomonidan to‘g‘ri nutq talablarini, turli sharoitlarda to‘g‘ri nutq ko‘nikmalarini mashq qildirilishini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo’minova L.R. Tutilib gapiruvchi o’smirlar uchun qo’llanma.
2. Asqarxo’jayeva M. Bog‘chalarda o’zbek tilini o’rganish. Bolalar bog‘chalari tarbiyachilari uchun metod qo’llanma. 1994 yil.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. 2006 yil.
4. Qodirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda diologik nutqni rivojlantirishning omillari. 2002 yil.
5. D.A.Nurkeldiyeva, Z.I.Islambekova "Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi", T-2013

ANTROPONIMLARDA SO‘ZLARARO MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

Gulira’no Akramjanovna
Andijon Davlat Chet tillar Instituti
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada antroponimlarninng til lug‘at tarkibida tutgan o‘rni, antroponimlarning turlari, udumlar va ismlar, antroponimik indikatorlar va tabarrruk nomlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, nom, ism, antroponimlarning turlari

Abstract: The article talks about the place of anthroponyms in the vocabulary, types of anthroponyms, names and names, anthroponymic indicators and common names.

Key words: anthroponyms, title, name, types of anthroponyms

O‘zbek tili lug‘at boyligining kattagina qismini insonlarga qo‘yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos - odam, onima - ism, nom) kishi nomi demakdir. Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o‘rganuvchi onomastikaning bir bo‘limi antroponimikadir. Antroponimlar til lug‘at tarkibida o‘z o‘rniga va tizimli xususiyatlariga ega. Yuqorida qayd qilinganidek, har bir onomastik tizim yana mayday tizimchalarga bo‘linadi. Jumladan, atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o‘z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo‘linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar;
2. Familiyalar;
3. Ota ismlari;
4. Taxalluslar;
5. Laqablar.

Ko‘rinadiki, antroponimlar o‘zbek tili leksik sistemasida ma’lum o‘ringa ega. Faqat ungagina xos bo‘lgan indikatorlar mavjudligi bilan ham xarakterlanib turadi. Xuddi shuningdek, antroponimlar semantik, uslubiy va yasalish xususiyatlari bilan boshqa leksik birikmalardan ajralib turadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarrni sinxron va diaxron rejada system struktor va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish kerak. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularda jamiyatning madaniyatli va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo‘ladi. Ismlar ma’lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o‘rni haqida ham xabar beradi. Har bir ism ma’lum bir sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi. U ommabop yoki kam qo‘llanuvchi bo‘lishi mumkin. Ular bir nom o‘z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Ismlarling nostilistik

jihatdan real yoki to‘qima bo‘lishi mumkin. Ismlar o‘z obyekti haqida ma’lum bir axborot harn berishi mumkin. Bu axborotlar 3 ko‘rinishga ega:

1) lisoniy;
2) nutqiy;
3) qomusiy.

Til birligi (lisoniy) sifatida ular shaxslarni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi. Nutqiy informatsiyada esa so‘zlovchining shu ismga munosabatini ifodalaydi. Masalan: "Gitler nomini eshitsam, jinim qo‘zg‘aydi". Bu gapda nomga nisbatan salbiy munosabat ifodalanmoqda. Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan applyativ ma’noga yaqinlashadi: Gulnora, Gulandom, Gulruxsor ismlarida gulga xos bo‘lgan noziklik, yoqimlilik semalariga asoslaniladi. Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi. Ismlar eskilik yoki yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Applyativlardan ko‘chgan ismlarda sinonimiya hodisasi mavjud (To‘xtasin, Tursun) ammopolisemiya mavjud emas. Polisemiya hodisasi(A.V.Superanskaya) anchagina uchraydi. Masalan:Alpomish - Hakimbek; Ibn Sino - Avitsenna; Arestotel - Arastu kabi.

Ko‘rinadiki, antroponimlar, eng avvalo, so‘zdir, til boyligining bir qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga ular o‘ziga xos qator xususiyatlarga ega. Taniqli tilshunos V.N.Nikonovning aytishicha: "Bir biridan ajralmas amaliy va nazariy vazifalarning mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir". Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni o‘rganish qadimiy tarixga ega.Yuz yillar davomida qator antroponimik tadqiqotlar yaratildi. Natijada kishi ismlarini o‘rganuvchi fan

antroponimika vujudga keldi. Bu sohaga bag‘ishlab xalqaro onomastik konferensiyalar o‘tkazildi.

Jumladan, Butun sobiq ittifoq onomastik konferensiyalar Ulyanovsk (1967), Gorkiy (1969), Buxoro (1974), Xiva (1991) va boshqalar shular jumlasidandir. Antroponimika masalalari bilan rus tilshunoslaridan A.M.Sobolevskiy, V.N.Nikonov, A.V.Superanskaya, S.I.Zinin va boshqalar shug‘ullanganlar.

Turkologiya, jumladan, o‘zbek tilshunosligida N.A.Baskakov, G.F.Sattorov, T.Jonuzoqov, R.Qo‘ng‘urov, J.Muxtorov, E.Begmatov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, I.Xudoynazarov va boshqalar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Jumladan, E.Begmatov 1965-yilda "O‘zbek tili antroponimikasi", I.Xudoynazarov esa "Antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik uslubiy xususiyatlari" (1998) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. 2000-yilda esa N.Husanov "XV asr yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksiksemantik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

O‘zbek tiliga Davlat maqomi berilgandan so‘ng yuzaga kelgan ikki nomzodlik va bir doktorlik dissertatsiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzarb va ularni har tomonlama o‘rganish zamon talabi

ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqil O‘zbekistonning yangi ijtimoiy, iqlisodiy va siyosiybrivojlanish yo‘liga qadam qo‘yishi onomastik, jumladan, antroponimik sistemani yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta’sir ko‘rsatadi deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining o‘ziga o‘xshaydi degan noto‘g‘ri tushuncha bilan bog‘liq. Shu sababli ham kishilar ongida “xosiyatli va xosiyatsiz ” ismlar mavjudligi haqida turli ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma- xil ko‘rinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin ko‘rinadi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug‘ilgan chaqaloqqa qo‘yishmaydi.

Shuningdek, goldlarning o‘z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni uyg‘otadi. Yomon nom esa kishiga baxtsizlik, kasallik, o‘lim, ofat keltiradi deb hisoblashadi. Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, Y.L.Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni to‘plashgan.

TABARRUK NOMLAR. Bolaga ism tanlashda o‘tmish ajdodlar,ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o‘sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qit’alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi rasm-rusumlaridandir. Bu odatning o‘tmishda Saxalin, Bering bo‘g‘ozi hamda Afrika qit’asida yashovchi bir qator xalqlarda uchrashi mavjud adabiyotlarda qayd etilgan. Bu odatga O‘rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog‘liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir. Ammo o‘zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ularni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

1.Ism bag‘ishlovlar (memorativlar) O‘zbek tili antroponimiyasining turkiy qatlamida quyidagi memorativ ismlar uchraydi:

1.Osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar: Yulduz, Oyxon, Kuntug‘mish

2.Turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan: Bo‘ron,Yashin.

3.Turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar: O‘rmon, Daryo.

4.Hayvon va qushlarning nomi bilan aloqadorismlar: Qo‘chqor, Lochin.

5.Turkiy qabila va urug‘larning nomidan yasalgan antroponimlar, bu nomlarga o‘zbekcha va turkiy xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan etnonimlardan yasalgan ismlar kiradi: Do‘rmon, Barlos.

Ism tilaklar (deziralivlar). Bu tip nomlariga quyidagilar kiradi:

1.Ota-onalar chaqaloqning sog‘-omon o‘sishini, sonining ko‘payishini xohlamoq uchun: Ko‘pay, O‘lmas

2.Yangi tug‘ilgan bola eson-omon ulga’yishi va oila a’zolari safiga qo‘shilib ketishini xohlashadi: Ilash, Qo‘ldosh, Yo‘ldosh

3.Chaqaloq ulg‘ayib ota-onasining o‘rnini bosishni xohlashadi: O‘rin, O‘tagan.

4.Keyingi farzandlarini qiz emas o‘g‘il bo‘lishini xohlashadi: O‘g‘iloy.

Antroponimik indikatorlar. O‘zbek tilshunosligida Z.Do‘simov toponimik indikatorlar haqida ilk bor alohida maqola e’lon qildi. Ammo antroponim ikindikatorlar haqida haligacha biror boshqa tadqiqotni uchratmadik. Indikatorlar antroponimlarni tilning lug‘at tarkibidagi o‘ziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vositadir. Ular kishi ismlari tarkibida kelib, uni biror jihatdan xarakterlab, konnotativ ma’no ifodalaydi. Har bir indikatorni qabul qilganan toponim shu indikator uchun mikrotekst vazifasini bajaradi.

Antroponimlarga qo‘shilish xususiyatiga ko‘ra indikatorlar quyidagilarga bo‘linadi:

1.erkaklar ismiga xos: jon, xon, bek, sher, arslon.

2.ayollar ismiga xos: oy, oyim, beka, gul, pari.

3.erkak va ayol ismiga qo‘shilishiga ko‘ra betaraf bo‘lgan indikatorlar: jon, xon.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Alpomish” dostoni “Yoshlar nashriyot uyi” 2018, 15-156-bet.

2. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 216-219-bet.

3. Abdishukur Musayevich Shofqorov Nursulton Shayxislamov “Ona tili ta’limida lingvistik mashqlarning o‘rni” 2020, 1-3-bet.

4. Abduvahob Madvaliyev “Onamastika” “Sharq”2018, 3-7-bet.

5. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov “O‘zbek xalq maqollari to‘plami” “Sharq”-2005, 33-135-bet.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING O‘RNI


Qosimova Yulduz Dusbekovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish strategiyalari, Respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyalari, Xitoy davlati o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlari: Eksport-import, investitsiya, strategiya, tashqi iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy aloqalar.

Mamlakatimiz hozirgi tashqi siyosiy faoliyatining xalqaro maydonda aloqalarni kengaytirishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy qadamlar o‘z ifodasini ko‘rsatmoqda. Ushbu munosabat bilan Singapur, Fransiya, Hindiston, Xitoy, Afg‘oniston, Yaponiya, Germaniya, Qozog‘iston, Turkmaniston kabi dunyo mamlakatlari bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir bir qator tegishli dasturiy hujjatlar ishlab chiqildi va «yo‘l xaritalari» tasdiqlandi. Yuqori darajalardagi xalqaro tashriflar davomida mamlakatimiznning milliy manfaatlariga javob bera oladigan shu bilan birga, yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan chuqur o‘ylangan faol, ochiq, va pragmatik tashqi siyosiy yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.Bundan shuni anglashimiz mumkinki, yangi ustuvor yo‘nalishlar va yondashuvlar tashqi siyosiy boshqarma tuzilishining chuqur isloh qilinishini talab eta oldi. Tashqi ishlar vazirligida yangi bo‘linmalar tashkil etildi, Belarus va O‘monda vakolatxonalar, Rossiya va Qozog‘istondagi shaharlarda bir nechta bosh konsulliklar ochildi va negizida diplomatik iqtisodiy faoliyat tarkibi kuchaytirildi.Yirik davlatlararo maydondagi hamkorlik xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ilg‘or dunyo tajribasini o‘rganish orqali O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak, bu mamlakatda maksimal qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Ushbu doirada Respublika tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy mamlakatlar bilan ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, mahalliy eksport geografiyasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ocha oldi.

Natijada 2019-yilda mamlakatimizga bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi o‘sdi. Ularning hajmi 4,2 mlrd. dollarni tashkil etdi, bu 2018-yildagiga nisbatan 3,7 baravar ko‘proqdir.(1-jadval)



Xorijiy mamlakatlar bilan eksport import aloqalari (1-jadval)

Birgina Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan.Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, do‘stona va o‘zaro manfaatdorlik ruhida olib borilmoqda. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan o‘zaro ishonchli aloqalar hamkorlikning asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo‘yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqingligi muhim o‘rin egallaydi. 2011-yil 19-20-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Xitoyga uyushtirilgan tashrifi chog‘ida tomonlar o‘rtasida davlatlararo va idoralararo hamkorlikka doir qator hujjatlar imzolangan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida “Investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi” Bitim ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘ldi. Shuningdek, tomonlar o‘rtasida hukumatlararo O‘zbekiston-Xitoy hamkorlik qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi va uning I yig‘ilishi 2011-yilning 26-27-oktabr kunlari Pekin shahrida, II yig‘ilishi 2013-yil 30-oktabrda Toshkent shahrida o‘tkazildi. Qo‘mita doirasida hamkorlikning turlisohalari bo‘yicha 7 ta kichik qo‘mitalar tashkiletildi.O‘zbek-xitoy mamlakatlari munosabatlari rivojining muhim bosqichi bo‘lib 2012-yil 5-7-iyun kunlari Xitoyga amalga oshirilgan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning rasmiy tashrifi xizmat qildi va tomonlar umumiy

qiymati 5,3 milliard AQSh dollariga teng 45 bitim va shartnomalarni imzolashdi O‘zbekiston va Xitoy strategik sheriklik to‘g‘risidagi Qo‘shma Deklaratsiyani kelishib olindi.

O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan davlarlararo munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlari keng savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy hamkorlikni kengaytirishni o‘zaro manfaatdorlik va sifatida ko‘radi.

2013-yilning mart oyida ushbu park “Jizzax” maxsus industrial zonasi sifatida tashkil etildi va u Sirdaryo viloyatida o‘z filialiga ega bo‘ladi.Bir qator Xitoy kompaniyalari respublikamiz hududida uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston «O‘zbekiston-Xitoy» gaz quvuri va «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» temiryo‘li qurilishini qo‘llab-quvvatlaydi.Respublikamizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 540 ta korxona ish yuritmoqda. Ularning 80 tasi 100 foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Mamlakatimizda Xitoyning 73 kompaniyasi va kolatxonalari ishlab turibdi.Rossiya-O‘zbekiston o‘rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, ko‘p qirrali, shu jumladan, moliyaviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar moliya, soliq va bojxona organlarini modernizatsiya qilish, byudjetni rejalashtirish, mahalliy byudjetlar mutanosibligiga erishish, moliyaviy nazorat bo‘yicha samarali mexanizmlarni takomillashtirish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ilg‘or tajriba, texnologiyalar va bilimlarni jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratish, qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish, Rossiyaning etakchi ta’lim muassasalari negizida soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan chegaralardan o‘tishda “yashil yo‘lak” tashkil etilgani natijasida O‘zbekiston meva-sabzavotlarini Rossiyaga etkazib berish qariyb 36 foizga oshgani, Rossiyaning etakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarining yanada yaxshilanayotganidan dalolat beradi. - Birgina “Lukoyl” kompaniyasi O‘zbekistonga 7 milliard dollar investitsiya kiritgani, Qandim gazini qayta ishlash majmuasi ishga tushirilgani, “Rosatom” Atom energiyasi bo‘yicha davlat korporatsiyasi bilan energetika sohasida sheriklik va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha ham alohida o‘rin tutadi. Hozirda Rossiya - O‘zbekiston o‘rtasida erkin savdo tartibi amal qilmoqda. Buning natijasida ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga o‘sgan. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan muzokaralarda tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, transport va energetika sohalarida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilingan. Mavzu doirasidagi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik masalalarining yangi bosqichga o‘tganligi o‘rganilganda davlat rahbarlari

tashrif doirasida umumiy qiymati 25 milliard dollar bo‘lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolangan. SHuningdek, ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturining qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Саидакбаров Х.Х., Саидова Д. Н. Направления развития сельского хозяйства в Республике Узбекистан 2014.2-190С

2.Asanov G.R Nabixonov M. Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy ijtimoiy jog‘rofiyasi T:O‘qituvchi 1994.

3.Boden J Metodolegkogo poznaniya istorii. M.:Nauka 2020 212 b

4.Tursunov E. Vneshneekonomicheskiy svyazai Uzbekistan vipolnil. T. 2021

BUXORO DESTINATSIYASIDAGI TUROPERATORLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING YO‘LLARI

Ashurova Maftuna Sharifovna
Buxoro davlat universiteti, turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)
mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Turizm sohasidagi pandemiyadan keyingi inqiroz sharoitida turizm tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash eng muhim vazifa hisoblanadi. Buxoro mintaqasining turizm sanoati iqtisodiyotning istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda, lekin ayni paytda u muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Taklif etilayotgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida turizm industriyasi korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin, bu esa o‘z navbatida turizm industriyasining rivojlanishiga ham, mintaqa iqtisodiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: turoperator, turistik salohiyat, turistik mahsulot, turistik xizmatlar, Buxoro turistik destinasiyasi.

Buxoro azaldan dunyoning turli burchaklaridan o‘zining tarixiy, madaniy turistik resurslari bilan turistlarni jalb qiluvchi destinasiyalarga boy mintaqa sanalgan. Buxoro destinasiyalari turistik operatorlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- viloyatning malakali ishchi kuchi va ilmiy salohiyatini shakllantirish, ya’ni. turizm uchun kadrlar tayyorlashning uch bosqichli tizimini joriy etish: ilmiy salohiyatni shakllantirish (aspirantura); turizm menejerlarini tayyorlash (oliy ta’lim); o‘quv yo‘riqnomalari, tarjimonlar, gidlar (o‘rta kasb-hunar ta’limi);
- turizm xizmatlarining yuqori narxini qoplaydigan noyob turistik mahsulotlarni taklif etish;
- sayyohlik loyihalarini moliyalashtirish, turizm sohasidagi qonunchilik bazasini yaratish, turizmni boshqarishning dasturiy-maqsadli usullarini yaratish orqali turizmni mintaqaviy darajada faol qo‘llab-quvvatlash;
- mintaqaviy turizmning ichki tizimini rivojlantirish va mahalliy aholini jalb qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish;
- ekologik va ekstremal turizm turlarini rivojlantirish, shuningdek, Buxoro viloyatini turizmning qishki turlariga yo‘naltirish asosida mintaqaviy turizmning zamonaviy tizimini shakllantirish uchun tabiiy va rekreatsion salohiyatdan foydalanish;
- mintaqaga qo‘shimcha turistlarni jalb qilish uchun turizmning qo‘shimcha turlaridan (masalan, ovchilik, rafting va boshqalar) foydalanish, shuningdek,

turizmning ko‘p yo‘nalishli turlari (masalan, ovchilik) bilan xizmatlarning turistik paketlarini shakllantirish;

- viloyatga sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida xususiy va davlat investitsiyalarini jalb qilish asosida zamonaviy mehmondo‘stlik sanoati va turizmning moddiy bazasini shakllantirish;
- xizmatlar sifatini oshirish, turizmning noyob turlarini taklif etish, shuningdek, viza va bojxona rasmiyatchiligini soddalashtirish orqali chet ellik sayyohlarni hududga jalb etish;
- boshqa hududlarga nisbatan raqobatdosh ustunliklarni mustahkamlash maqsadida “Turoperatorlar uyushmasi”ni tashkil etish;
- Buxoro viloyatini "ekologik toza mintaqa" sifatida joylashtirish;
- qonunchilik bazasini ishlab chiqish, turoperatorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, Muvofiqlashtiruvchi kengashlarni tashkil etish orqali hududda faol turizm siyosatini shakllantirish;
- bozor segmentatsiyasining rolini oshirish (yangi ichki hududiy turizm segmentlarining paydo bo‘lishi, sayohat masofalarining ko‘payishi, dam olish shakllarining xilma-xilligi, tashkil etilgan turizm makonida turizmni rivojlantirishning diversifikatsiyasini oshirish va boshqalar);
- turizm va monopollashtirish jarayonlarida faoliyatni muvofiqlashtirish rolini oshirish (gorizontal integratsiyani kuchaytirish, ya’ni yirik firmalarning o‘rta va kichik biznes bilan hamkorlikni o‘sishi, strategik turizm ittifoqlarini yaratish orqali vertikal integratsiya va boshqalar);
- rivojlangan turizm mahsulotlarini targ‘ib qilish, reklama qilish va sotishda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan aloqalar rolini oshirish;
- turizmda kadrlar rolini oshirish (xodimlar sonini ko‘paytirish, kasbiy malaka tuzilmasini ishlab chiqish, kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini oshirish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish va boshqalar);
- xususiy turizm biznesining rolini oshirish (bozorda cheklangan miqdordagi yirik transmilliy operatorlar va katta miqdordagi kichik biznes sub’ektlari faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, professional marketing asosida turistik mahsulotlarni samarali sotish, bu esa xodimlarni malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi);
- zamonaviy axborot texnologiyalari (Internet va boshqalar) orqali hududda mavjud turistik mahsulotlar haqidagi ma’lumotlarni tarqatish.

Turizm xizmatlarini ilgari surishning eng samarali vositasi onlayn vositalardir. Shu bilan birga, ma’lumotlilik, ishonchlilik va jozibali rasm marketing va reklama xabarlari uchun eng yaxshi mezon bo‘lib qolmoqda. Nemis sayyohlari turistik marshrutni tanlashda asosan ma’lumot beruvchi reklamalarga (51%), jozibali rasmli reklamalarga (48%) va kamroq darajada foydali sharhlarni o‘z ichiga olgan

reklamalarga (32%) ishonadilar[1]. Nemislarning 49% boshqa sayohatchilarning onlayn sayohat tavsiyalariga ishonishadi[2].

Shunga muvofiq tarzda Buxoro destinasiyalarida faoliyat yuritayotgan turoperatorlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- potentsial sheriklar va biznes mijozlarni turmahsulotlariga qiziqtirish, potentsial mijozlar bilan aloqa o‘rnatish uchun sanoat forumlari saytlarida ko‘rgazma tadbirlarida ishtirok etish;

- turoperatorlar hamkorlar, yetkazib beruvchilar, mijozlar topishlari mumkin bo‘lgan sanoat biznes birlashmalari bilan hamkorlik qilishi;

- turizmning turli sohalarida qo‘shma mahsulotlar yaratish;

- turizm sohasida xalqaro standartlarni joriy etishda yordam olishi;

- onlayn reklama uchun mashhur raqamli platformalardan foydalanish;

- turmahsulotning reklama qilish mazmuniga e’tibor berishi. Turistik mahsulot reklamasi ishonchli va to‘liq ma’lumotni (masalan, ekskursiyaning narxi, davomiyligi, attraksionning shahardan uzoqligi haqida) o‘z ichiga olishi hamda 3-4 tildagi rang-barang fotosuratlar va videoroliklar bilan birga bo‘lishi kerak;

- o‘zlarining rasmiy veb-sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yashash imkoniyatlari va shartlari (narxini ko‘rsatgan holda), ovqatlanish (masalan, restoranning mavjudligi va hajmi), qo‘shimcha xizmatlar haqida ma’lumot berish;

- noyob axborot mahsulotini yaratish, masalan, Buxoro destinasiyalariga tashriflar taqvimi, sayohatchilar uchun tematik amaliy qo‘llanmalar va boshqalar yaratish kabi tadbirlar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida turizmning rivojlanishi muvaffaqiyatini bevosita davlat yordamiga bog‘liq. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Buxoro destinasiyalarida turizm jadal rivojlanmoqda. Turizm faoliyatining barcha sohalarida taklif doirasini kengaytirish va uning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://info.advertising.expedia.com/hubfs/2018_LP_ASSETS/images/Rebrand-018/European_Travel_Trends_2017_LookInside3.png

2. https://ftnnews.com/tours/41207-german-travel-trends-2020-2021https://www.thedubrovniktimes.com/news/croatia/item/10847-trends-of-german-travellers-in-2021-safety-and-hygiene-measures-are-basic-prerequisites-for-travel

SCRIBING - KELAJAK TEXNOLOGIYASI

Siddiqov I.M.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. Maqolada interaktiv vizual aloqani ta’minlashning innovatsion usuli - scribing texnologiyasi, uni yaratish qoidalari va undan o‘qitish jarayonida foydalanish haqida fikr yuritiladi. Skribing texnologiyasi - bu asosiy g‘oyani ochib beradigan oddiy chizmalar yordamida nazariy materialni tushuntirish jarayonidir. O‘qitishda skribingdan foydalanish qisqa vaqt ichida o‘quv materialini idrok etish uchun qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: scribing, scribing texnologiyasi, skript, vizuallashtirish, kompozitsiya, VideoScribe.

Annotatsия. V state rassmatrivaetsя innovatsionnыy sposob obespecheniя interaktivnoy vizualnoy kommunikatsii - texnologiя scribing, pravila yee sozdaniя i ispolzovanie v protsesse obucheniя. Texnologiя zachistki-eto protsess ob’яsneniя teoreticheskogo materiala s pomoщyu prostыx risunkov, raskrыvayuщix osnovnuyu ideyu. Ispolzovanie skribinga v obuchenii pozvolяet v korotkie sroki predstavit uchebnыy material v udobnoy dlя vospriяtiя forme.

Klyuchevыe slova: skraybing, texnologiя skraybing, skript, vizualizatsiя, kompozitsiя, VideoScribe.

Annotation. The article discusses an innovative way of providing interactive visual communication - scribing technology, the rules for its creation and use in the learning process. Stripping technology is the process of explaining theoretical material using simple drawings that reveal the basic idea. The use of screening in training allows you to present the training material in a convenient form in a short time.

Keywords: scribing, scribing technology, script, visualization, composition, VideoScribe.

Bugungi kunda ta’lim sohasida yangi xorijiy so‘zlar paydo bo‘ldi: "scribing", "skrayber", "scrib-taqdimot". Xo‘sh, bu nima?

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yangi materialni o‘rganish har doim ham oson va sodda emas. Monoton, odatiy dars o‘quvchida qiziqish uyg‘otmaydi va o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini pasaytiradi. O‘quvchilar hisobot yoki insho yozishga rasmiy ravishda murojaat qilishadi, shunchaki internetdan nusxa ko‘chirishadi, shu bilan birga uni o‘qishni ham unutishadi, matnni formatlash va havolalarni o‘chirish haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Darslarga bo‘lgan bunday munosabatni osongina o‘zgartirish mumkin. Hisobot yoki nutq yorqin va g‘ayrioddiy bo‘lishi uchun ularni scribing texnikasi yordamida

amalga oshirish lozim. Buning uchun zamonaviy talaba hamma narsaga ega: planshet, telefon, kamera, fotoapparat. Ba’zan talabalar nafaqat kerakli ma’lumotlarni qanday topish, balki uni tahlil qilishni va ushbu tahlil asosida o‘zlarining noyob chiqishlarini yaratishni ham xohlashadi.

XXI asr yuqori kompyuter texnologiyalari asri deb ataladi. Axborot va axborot jarayonlari inson hayotining eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. Yangi vaqt yangi talablarni belgilaydi. Zamonaviy talaba bilimlarni muvaffaqiyatli egallashi uchun nima kerak? Minimal xarajatlar, maksimal natija. Bunda scribing bizga yordam beradi [1]. Aynan u ma’lumotni boshqa ko‘plab taqdimotlarga qaraganda samaraliroq o‘zlashtirishga imkon beradi va zerikarli va uzoq muddatli tushuntirishlarni muvaffaqiyatli almashtiradi. Scribing o‘quvchilarga kelajakda ularning tayanchiga aylanadigan fazilatlarni egallashga yordam beradi - bu mantiqiy, majoziy, ijodiy fikrlash, jamoada samarali ishlash, tezkor, amaliy qarorlar qabul qilish qobiliyati.

Sinfda skribingdan foydalanish o‘quvchilarga mavhum tushunchalarni vizual ravishda taqdim etishga, ko‘rgan materiallarini suratga olishga va keyin ko‘paytirishga yordam beradi. Shunday qilib, o‘rganilayotgan materialning asosiy nuqtalarini sifatli assimilyatsiya qilish mavjud. Vizuallashtirish olingan ma’lumotlarni ma’lum bir hodisa yoki ob’ekt haqida yaxlit rasmga bog‘lashga imkon beradi. Bundan tashqari, skriptni yaratishda talabalar tanqidiy va majoziy fikrlashni rivojlantiradilar.

Olimlar inson miyasi **80%** dan ortiq ma’lumotni vizual ravishda qabul qilishini isbotlashgan. Shu bilan birga, darslardan uch kun o‘tgach, odamlar eshitganlarning **10** foizini, ko‘rganlarining **35** foizini eslay oladilar, ammo taqdimot mazmunining **65** foizini vizual tasvirlar bilan qo‘llab - quvvatlanadigan og‘zaki hikoya shaklida ijro etishlari mumkin. Shuning uchun, bugungi kunda ma’ruzalar paytida asosan Power Point formatidagi taqdimotlar qo‘llaniladi.

Zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan o‘zgarib bormoqda, endi Power Point zerikarli, qiziqmas bo‘lib qoldi, e’tiborni jalb qilishni to‘xtatdi va odamlar yangi, zamonaviy narsalarni xohlashdi. Shunday qilib, skribing asta-sekin biznes muhitidan olingan maktab hayotiga kira boshladi.

Scribing uzoq ildizlarga ega: u ma’lumotni eslab qolish va o‘zlashtirish qulayligi uchun maktab mavzularini jadvallar, diagrammalar-grafikalar shaklida taqdim etadigan mos yozuvlar sxemalari va eslatmalaridan kelib chiqadi. Skrayberlar shunchaki oldinga siljishdi, chunki skrayb taqdimoti shunchaki diagrammalar va diagrammalardan iborat emas, balki nutqning asosiy tushunchalarini aks ettiruvchi rasm-piktogrammalardan iborat.

Scribing (inglizcha "scribe" dan – eskizlar yoki chizmalar chizish) – bu ingliz rassomi Endryu Park tomonidan ilmiy bilimlarni ommalashtirishga bag‘ishlangan ingliz tashkiloti uchun ixtiro qilingan eng yangi taqdimot texnikasi. Ma’ruzachining nutqi oq doskadagi (yoki qog‘oz varag‘idagi) chizmalar bilan flomaster yordamida

tasvirlangan. Biz eshitganimizda va taxminan bir xil narsani ko‘rganimizda, "parallel ta’qib qilish effekti" paydo bo‘ladi, grafik qator esa audio ketma-ketlikning asosiy nuqtalarida qayd etiladi.

Scribing yaratish qoidalari[2]:

1. Mavzuni tanlang (yangi materialni o‘rganayotganda yoki uy vazifasini tayyorlashda).
2. Jamoa yarating (4 kishidan oshmasligi maqsadga muvofiq).
3. Ma’lumotni qidirish va tahlil qilish (mavzu bo‘yicha ma’lumotni turli manbalardan topish afzalroq).
4. Vizuallashtirish, umumiy kompozitsiya (tezislar va so‘zlarni rasmlarga tarjima qilish).
5. Sinf oldida nutq (nutq matnini tayyorlang).
6. Chizish (doskada yoki qog‘oz varag‘ida grafik rasm chizish).
7. Videoni qayta ishlash va matnni sozlash (mavjud qurilmalar yordamida videoni suratga olish).
8. Ovoz yozish (eng oddiy "ovoz yozish"dasturida ovoz yozish).
9. Video va ko‘rinishni qayta ishlash (video ketma-ketligini ovoz bilan ulang).
10. Loyihani taqdim eting.

Scribing turlari[3].

An’anaviy ravishda barcha scribinglarni bir necha turga bo‘lish mumkin:

1. Chizilgan scribing. Bu scribingning klassik versiyasi. Odamning qo‘li ramkada rasmlar, diagrammalar chizadi, kalit so‘zlarni ekrandan tashqarida eshitiladigan matn bilan parallel ravishda yozadi. Ovozli aktyorlik va rasm chizish o‘z vaqtida bir-biriga mos kelishi uchun videoni yaratishda rasm chizish jarayoni 2-4 marta tezlashadi va montaj qilinadi.

Kerakli vositalar va materiallar:

- marker bilan chizish uchun taqdimot taxtasi yoki A4, A3 qog‘oz varaqlari;
- markerlar, rangli qalamlar,bo‘yoqlar ;
- videokamera yoki video suratga olish rejimiga ega kamera;
- ovoz yozish uchun mikrofon ;
- audio yozish va videoni tahrirlash uchun kompyuter dasturlari.

2. Scribing - bu dastur. Tayyor rasmlar ovozli matnga mos keladigan qog‘oz varag‘iga yoki ramkadagi boshqa har qanday fonga yotqizilgan (yopishtirilgan).

Kerakli vositalar va materiallar:

- qog‘oz varaqlari yoki boshqa har qanday fon;
- rasmlar to‘plami - ilovalar;
- videokamera yoki video suratga olish rejimiga ega kamera;
- ovoz yozish uchun mikrofon ;
- audio yozish va videoni tahrirlash uchun kompyuter dasturlari.

3. Scribing magnitdir. Bu applikatsiyaga o‘xshaydi, yagona farq shundaki, tayyor tasvirlar taqdimot magnit taxtasiga magnitlar bilan biriktirilgan.

Kerakli vositalar va materiallar:

- taqdimot magnit taxtasi ;
- tayyor rasmlar to‘plami, magnitlar;
- videokamera yoki video suratga olish rejimiga ega kamera;
- ovoz yozish uchun mikrofon ;
- audio yozish va videoni tahrirlash uchun kompyuter dasturlari.

4. Scribing kompyuter. Kompyuter skriptini yaratishda maxsus dasturlar va onlayn xizmatlardan foydalaniladi.

Eng oddiy scribing hatto Power Point dasturi yordamida ham yaratilishi mumkin: bunday animatsion taqdimotda slaydlardagi rasmlar "ekrandan tashqarida" hikoyasiga muvofiq asta-sekin paydo bo‘ladi. Bunday holda, skraybingning asosiy printsipi – "parallel kuzatuv effekti" kuzatiladi.

VideoScribe - bu ingliz tilidagi dastur bo‘lib, u qanday chizishni bilmaydiganlar uchun ajoyib video skriptlarni yaratishga imkon beradi. Dastlab, dastur o‘z mazmuni bilan to‘ldirilishi kerak bo‘lgan oq tuvalni taklif qiladi. Scribingni yaratish uchun boshqa kompyuter dasturlari mavjud[4].

Kerakli vositalar va materiallar:

- ovoz yozish uchun mikrofon (agar kerak bo‘lsa);
- audio yozish uchun kompyuter dasturi (agar kerak bo‘lsa).

Ushbu texnologiyaning ijobiy va salbiy tomonlari.

Salbiy tomonlari:

1. Stsenariyni yozishda qiyinchilik.
2. Diagrammalar, grafikalar, shakllarni chizish bo‘yicha mashg‘ulotlar.
3. Ilova skriptini yaratish uchun rasmlar to‘plami.
4. Ovozli aktyorlik, filmni suratga olish va tahrirlash uchun katta vaqt xarajatlari.
5. Texnik qiyinchiliklar.

Ijobiy tomonlari:

1. Samaradorlik - qisqa vaqt ichida materialni sifatli tushuntirish mumkin.
2. Vizuallashtirishning ko‘p qirraliligi. Chizma tili hamma uchun tushunarli. Scribing ma’lum darajada universal aloqa tili sifatida ishlaydi.
3. Ma’lumotni sifatli o‘zlashtirish va taqdimotning asosiy fikrlarini eslab qolish. Og‘zaki va vizual ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligi tinglangan hisobotlarni xotirada osongina tiklashga yordam beradi, chunki odatda murakkab quruq ma’lumotlar scribing tomonidan kundalik hayotda uchraydigan oddiy belgilar va narsalarga aylantiriladi.
4. Nutq davomida tinglovchilar bilan uzluksiz muloqot qilish imkoniyati.

5. Scribdan (tadbir oxirida olingan umumiy rasm) keyingi ishda olingan barcha ma’lumotlarni ko‘rib chiqish sifatida foydalanish imkoniyati.

6. Parallel ketma – ketlikning ta’siri - tovush seriyasi deyarli bir vaqtning o‘zida tasvirlar bilan tasvirlangan, bu materialning yuqori sifatli assimilyatsiyasiga yordam beradi.

7. Videoni cheksiz ko‘p marta ko‘rsatish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, scribing kamchiliklarga qaraganda ko‘proq afzalliklarga ega undan ta’limda foydalanish istiqbollari porloq. Shuni ta’kidlash kerakki, scribing yangi axborot texnologiyasi sifatida pedagogik amaliyotda o‘z o‘rnini topa boshladi. Ushbu tajriba kengaytirilishi va ommalashtirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления // Под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер. М., 2004.

2. Эльконин Д.Б. Избранные психол. труды. Иркутск, 2002.

3. Якиманская И.С. Основные направления исследований образного мышления. Минск, 2004.

4. Siddiqov I.M., Egamnazarova S.X. O‘qituvchi faoliyatida scribing texnologiyasidan foydalanish. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2023-yil, 1-son, 449-456 betlar.

BUXORO VILOYATINING MARKAZIY KOLLEKTORDA TUBAN SUVO‘TLARINING TARQALISHI

Jo‘rayeva Maftuna Alijonovna
Buxoro davlat universiteti Biologiya
(fan yo‘nalishlari bo‘yicha) mutaxassiligining
2- bosqich magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada kollektorda uchraydigan suvo‘tlarining turlari va ularning tarqalishida ekologik omillarning roli hamda suvning minerallashuv darajasi mavsumiy o‘zgarib turishi bu esa suvo‘tlarining tarqalishiga tasiri borasida fikrlar qayd qilingan.

Kalit so‘zlar: Kollektor, algoflora, suvning tiniqligi, minerallashuv, diatom suvo‘tlari

Yer yuzida aholi sonining ortib borishi bilan turli xil tabiiy tizimlarga, birinchi navbatda, turli tipdagi suv havzalariga antropogen ta’sirlar ham oshib bordi. Bu esa atrof-muhitni fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga va ekologik tizimlarning tabiiy holatini buzilishiga sabab bo‘ldi. Suv havzalarida uchraydigan ko‘plab organizmlarni yani o‘simlik va hayvonot dunyosining yashashi va ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ba’zi o‘simlik turlari ifloslangan suv havzalarida ham o‘sib rivojlanib ko‘paya oladi. Organic moddalarga boy bo‘lgan suvliklarda o‘sadigan o‘simlik turlari suvni mineral moddalardan tozalash xususiyatini ham namayon qiladi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda suv havzalarning florasini taqdiq qilish ularning ahamiyatini o‘rganib, istiqbolli turlarni ko‘paytirish mexanizmlarini ishlab chiqish ahamiyatga molik ishlar hisoblanadi.

Buxoro markaziy kollektori 1969-yil tashkil qilingan bo‘lib Buxoro viloyatining Romitan va Jondor tumanlaridan oqib o‘tadi va Zomonbobo ko‘liga olib borib kuyadi. Umumiy uzunligi 51 kmga teng. Suvning rangi tiniq bo‘lganligi tufayli bu kollektordagi suv o‘tlarining turlari boshqa tadqiqot olib borilgan kollektorlarga nisbatan ancha ko‘pligi bilan farqlanadi. Kollektorning boshlanish qismida suvning hajmi kam va tiniq bo‘lganligi sababli, u yerda suvo‘tlari va suvda o‘sadigan o‘simliklar ko‘p tarqalgan suvo‘tlarning o‘sishi, rivojlanishi va tarqalishida ekologik omillarning ham ta’siri katta. Kollektor suvlarida o‘sayotgan suvo‘tlarning tarqalishi va rivojlanishida tashqi muhitning barcha ekologik omillari yorug‘lik, suvning harorati, suvning tiniqligi, suv havzasining chuqurligi, suvning oqimini tezligi, suvda erigan organik va anorganik birikmalar, suvga tashlanadigan sanoat va maishiy xo‘jaliklarning chiqindilari, oqava suvlar ham ancha ta’sir qiladi. Ekologik omillardan quyosh nurining yorug‘ligi suvo‘tlarning rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo‘lib

hisoblanadi. Quyosh nurining energiyasi turli suv havzalariga birday yetib bormaydi, bunga sabab suv havzasining chuqurligi va tiniqligiga bog‘liq bo‘ladi. Quyosh nuri yorug‘ligining suv qatlamlariga qay darajada kirib borishi shu suvlarda rivojlanayotgan suvo‘tlarning tarqalishini belgilaydi. Suvning harorati suvo‘tlarining tarqalishi va rivojlanishiga, turlarining tarkibiga, ularni bir xilda bo‘lmasligiga tas’ir qiladigan asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Buxoro viloyati Markaziy kolletorida ham suvo‘tlarining tarqalish yil davomida o‘zgarib turadi. Bining asosiy sabablarida biri yuqorida sanab o‘tilgan omillar hisoblanadi. Mavsum davomida kollektor suvida olingan namunalar tahlil qilib borilganda suvo‘tlarning bir necha bo‘limga ta’luqli turlari aniqlandi bunga ko‘ra:

Ko‘k-yashil suvo‘tlaridan *Oscillatoria limosa* Ag, *O.amphbia* Ag, *O.angusta* Koppe, *O.sancta* Gom, *Merismopedia glauca* Nag, *M.tenuissima* Lemm, *Microcystis muscicola* Elenk, *Anabaena bergii* Ostenf, *A.variabilis* Kutz, *Spirulina gomontiana* Geitl, *S. mojor* Kutz, *S. tenuissima* Kutz, *Phormidium ambiguum* Gom, *Ph.valderiae* Geitl, *Lyngbyna salina* Kutz, *L. limnetica* Lemm. Yashil suvo‘tlardan *Scenedesmus acuminatus* Chodat, *S.obliquus* Kutz, *S. quadrricauda* Breb, *S. acutiformis* Schroed, *Pediastrum borganum* Menegh, *Chlorella ellipsoidea* Geneck, *Chlorella ellipsoidea* Geneck, *Ch. vulgaris* Beyer, *Ankistrodesmus angustus* Bern, *A. acicularis* Korschik, *A. arcuatus* Korschik, *Ulothrix zonata* Kutz, *U.variabilis* Kutz, *Clodophora glomerata* Kutz, *Vaucheria geminate* D.C., *Closterium parvulum* Nag, *Cosmarium angulogum* Breb, *C. granatum* Breb, *Spiragira varianus* Czurd. Diatom suvo‘tlaridan *Diatoma elongatum* Ag, *D. anceps* Kirchn, *D. vulgare* Bory, *Melosera ambigua* O.Mull, *M.varians* Ag, *Cuclotella comta* Kutz, *C. operculuta* Kutz, *C. bodanica* Eulenst, *Synedra acus* Kutz, *S.capitata* Her, *S.tabulata* Kutz, *Navicula cari* Her, *N.cincta* Kutz, *Cymbella laevis* Nag, *C. turgida* Cl, *Mastogloia baltica* Grun, *M. elleptica* Cl, *M. smithii* Thw, *Cyrosigma spenceri* Cl Evglena suvo‘tlaridan *Euglena variabilis* Klebs, *E.acus* Her*Phacus alatus* Klebs, *Ph. caudatus* Hubner kabi turlar keng tarqalganligi aniqlandi.

Kollektorda tarqalgan suv o‘tlarning tahlili bilan bir qatorda suvning minerallashuv darajasi ham aniqlandi. Bunga ko‘ra minerallashuv darajasi mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, o‘rtacha 4,5-5,0 g/l tashkil qilishi va bevosita suvo‘tlarning uchrash indekisiga ham tasir ko‘rsatishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anisimova O. V., Gololobova M. A. Kratkiy opredelitel rodov vodorosley. M., 2006. — 159 s.

2. Алимжанова Х, Ташпулатов Й, Ражабова М. Летний фитопланктон bacillariophyta и xanthophyta акдарьинского водохранилища среднего течения реки зарафшан // O‘Zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2019, [3/2]

3. Buriev, S.B. and Kobilov, A.M. (2019) The Region’s Aquatic Vegetation of Lake Kara-Kira Bukhara. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9, 5-11. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2019.00072.7

4. Muxtorovich, Q. A.., & Alijonovna, J. M.. (2022). Buxoro Shahar Kunju Qal’a Kollektoridagi Tuban Suv O‘tlar. "ONLINE - CONFERENCES&Quot; PLATFORM, 60–61. Retrieved from http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/1015

5. Amonovich, S. and Muxtorovich, Q. (2022) High Vegetation of Lake Ayakagitma in Bukhara Region and Their Distribution. American Journal of Plant Sciences, **13**, 1373-1380. doi: 10.4236/ajps.2022.1311093.

6. Буриев, С. Б., & Кобилов, А. М. (2019). Повышение рыбопродуктивности за счет водных растениями в озере Кара-Кыр. Вестник Хорезмской Академии Маъмуна.-Хорезм. Специальный, (2019), 12-17.

7. Давронбек Саминжонов, Муаттархон Юлдашова. Куз мавсумида катта фарғона канали альгофлорасининг таксономик ва экологик тахлили // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari 2022, [3/1/1]

MTT TARBIYALANUVCHILARI ONGIDA TABIATDA RANGLAR JILOSI TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Eshmurodova Aziza G‘ayrat qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola rangni idrok etishni o‘rganish jarayonlari va usullari, ranglarni mo‘jizakor olamini, uning sirli jilvalarini o‘zida aks ettirib, unda ranglarning bolalar ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri, tarbiya jarayonida bolalarda ranglar vositasida ijobiy sifatlarni shakllantirish yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: rang, ruhiyat, psixologik ta’sir, bolalar tarbiyasi, rangni idrok etish grafikasi,neoplazma, promaksimal rivojlanish zonasi.

Bola uchun dunyo ulkan, rang-barang, hissiyotli va eng muhimi turli ranglar kombinatsiyasi ko‘rinishida ko‘rinadi. Ota-onalar va tarbiyachilar ko‘pincha kundalik hayotning bolaga ta’sirini baholay olmaydi. Yangi odamlar, rang-barang kitoblar, ko‘p qirrali tabiat, klassik san’at asarlari. Bola juda sezgir va u atrofidagi dunyoni juda qiziquvchanlik bilan tushunadi. Shuning uchun ham bilish va ijodiy faoliyatni uyg‘unlashtirishga o‘rgatish imkoniyati mavjud.

Rang bolaning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, badiiy faoliyat jarayonida ishtirok etadi, badiiy didning shakllanishiga ta’sir qiladi.Shuning uchun ham go‘zalik va rang tushunchasi tuyg‘usini shakllantirish muhimdir.Rang estetikani rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismidir. Bolalarni ranglarni idrok etishga o‘rgatish muammosi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bulib, ularda psixologik, pedagogic va uslubiy nuqtai nazardan masalalar ko‘rib chiqiladi.Bolalarning individual psixofiziologik farqlari sharoitida bolalar o‘rtasida ranglarni idrok etish va ko‘paytirishni shakllantirishning pedagogic asoslari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu qo‘shimcha uslubiy tavsiyalardan foydalanish orqali bolalarda rang idrokini shakllantirish muammosining dolzarbligini tushuntiradi.

Rasm chizish bolalarning sevimli mashg‘ulotidir.Ular mustaqil ravishda qalam yoki bo‘yoqlarni olib, dunyoni bevosita idrok etishni faollashtiradilar.Bolalar birinchi marta atrofdagi dunyoning ko‘plab hodisalarini ko‘rishadi. Bu ularning chizilgan narsaning noqulay, ammo juda yorqin o‘ziga xos ifodasini tushuntiradi.Bu holdagi rang idroki individualdir. Bolalarning idroki kattalarnikidan farq qiladi, chunki bolalarning ko‘rish apparati to‘liq shakllanmagan, shuning uchun psixologik, fiziologik va estetik baholash aralashib, axloqiy bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Rang-rang tasvir tilini ifodalashning asosiy vositasi.Uni o‘zlashtirish bolaning umuman madaniyat, xususan, tasviriy sanat bilan tanishtirish jarayonining boshlanishi

hisoblanadi.Rang tili bolalar uchun shakl, chiziqlar hajmdan ko‘ra ko‘proq tushuniladi.Bola atrofdagi dunyoni, ijtimoiy me’yorlarni va madaniyatni o‘rgangan holda, ma’lum rang standartlarini o‘zlashtirilishi va ko‘rgan va qo‘l tekizadigan hamma narsani tizimga kiritishi kerak. Rang meyorlarini tanlash qanchalik anniq bo‘lsa (yashil archalar, ko‘k osmon, sariq quyosh, qizil gul va boshqalar), bola o‘sib ulg‘aygan sayin “bolalar idroki” doirasi shuncha kengayib boradi. Va aksincha ranglar kombinatsiyasining kengligini va o‘zgaruvchanligini tanlash imkoniyatini oshiradi, idrokning analizator xususiyatlarini ingichka qiladi.

Bo‘yoqlar bilan ishlash, bo‘yoq ranglarini atrof-muhit va tabiat obyektlari bilan taqqoslash, yangi rang olish uchun bo‘yoqlarni aralashtirib yangi rang olish-bular bolalar uchun yoqimli mashg‘ulotlardir.Talabalar atrofdagi dunyoning rang-barangligini shaxsiy idrok etish prizmasi bilan his eta olsalar, rasm bilan ishlash ularga ma’naviy boy bo‘lishga, tasavvurlarni rivojlantirishga va yosh rassomning dunyosini ko‘ra olish qobiliatiga ega bo‘lishga imkon beradi.

Rangni idrok etishning fiziologik jihati uchun nerv signalini hosil qiluvchi inson qorachig‘ining orqa tomonidagi ikki xil fotoretseptorlar javob beradi: tayoqchalar va konuslar. Shu bilan birga, tayoqchalar qora va oqning kontrasti nuriga sezgir, ayni paytda ko‘k, yashil, qizil ranglarni idrok etadigan konuslar rangni idrok etish uchun javobgardir.Har qanday rang uchun mas’ul bo‘lgan bir yoki ikkita konusning yuqligi rangni kurishni buzilishiga olib keladi.

Hayotning ikkinchi yilidagi bolalar tomonidan idrok etilgan birinchi xususiyat bu ob’ektning shakli, undan keyin –hajmi va faqat ikki yoshga to‘lganda rangidir.Ob’yektning shakli va rangi bo‘yicha tasniflash qobiliyati hayotning ikkinchi yilning ikkinchini yarmida ko‘pchilik bolalarda shakllanadi.Bundan tashqari, 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar taqlid qilish qobiliyatini nomoyon etadilar, bu esa mustaqil ijodiy faoliyat uchun promaksimal rivojlanish zonasini yaratadi.Bu yoshdan boshlab bolaning shaxsiy rivojlanishida idrok rivojlanishining roli ortadi.Idrok rivojlanishining yana bir yo‘nalishi ijtimoiy ta’sirlarning natijasi bo‘lgan va nutq orqali amalga oshiriladigan har xil turdagi neoplazmalar paydo bo‘lishida ifodalanadi.Bularga geometrik figuralarning ijtimoiy idrok etuvchi standartlarini, ranglar spektirini va temprli musiqiy miqyosni o‘zlashtirish kiradi.Maktabgacha yoshdagi muhim neoplazma idrokning eng yuqori ijtimoiylashtirilgan shakli –kuzatish bo‘lib, uni amalga oshirishning muayyan usullarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, bola kognitiv faoliyat sub’yekti sifatida harakat qila boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Sezgi funksiyalaridagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlar turli xil sezuvchanlik ko‘rsatkichlarining intensuiv dinamikasida ifodalanadi.Qiyosiy yosh rejasida o‘rganilgan barcha turlar uchun sezuvchanlik hayotning ushbu davrida tezlashtirilgan va bir vaqtning o‘zida sezgirlikning noteks o‘sishi, ayniqsa differentsial bilan farqlanadi.Aromatik ob’ektlarning yorqinligiga nisbatan ko‘zning o‘ziga xos sezgirligi

juda sezilarli darsajada oshadi. 16 yoshda u 6 yoshli bolalardan 2,5 barobar ko‘p. L. A. Shvartsning fikriga ko‘ra, o‘ziga xos rang sezgirligi ham yosh bilan sezilarli darajada oshadi. Birinchi sinf o‘quvchilari bilan solishtirilganda, uchinchi sinf o‘quvchilari uchun o‘rtacha 45% ga, beshinchi sinf o‘quvchilari esa 160 % ga oshadi.

Rangni idrok etish sub’ektiv bo‘lgani uchun uni psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan o‘rganish kata qiziqish uyg‘otadi.Bizning ongimizdagi ranglar ko‘pincha hissiy holat bilan bog‘liq, xususan, qizil, to‘q sariq va sariq faollik va hayajonni uyg‘otishi mumkin, ko‘k, binafsha, kulrang-tinchlantiradi va qora-depressev holatga olib keladi.Tasviriy sanatni o‘zlashtirishning samarali yo‘llarini tanlash, shuningdek, o‘quvchilarning badiiy hunarmandchilik tizimini takomillashtirish bugungu kunda pedagog uchun muhimdir.

Tasviriy san’atning kognitiv funksiyasi va rangtasvir orqali atrofdagi dunyoni bilish mexanizmlarining ilmiy tavsifi V. P. Zinchenko, S. E. Ignatieva, A. I. Ikkonikova, N. V. Sokolnikova, B. C. Kuzina, L. G. Medvedov, N. K. Shabanova, T.Y. Shipikolova, B.P. Yusov asarlarida o‘z aksini topgan.

Sakulina rasm chizish jarayoni bolalarda predmetlarni oldingi idrok etish bilan bevosita bog‘liqligini, bu bolalarning visual idrok va g‘oyalari xususiyatlariga bevosita bog‘liqligini ifodalaydi.

Nataliya Sigareva maktabgacha yoshdagi bolalarda rang idrokni shakllantitrish-didaktik va tarbiyaviy o‘yinlardir.

Komeniskiyning so‘zlariga ko‘ra, rang estetik idrokni rivojlantirishda kata ahamiyatga ega bolalar va bola uchun ob’yektning belgilaridan biri sifatida harakat qilishi mumkin. Uning qarashlariga F. Ferebel to‘liq qo‘shilgan.

E. A.Flerinaning so‘zlariga ko‘ra, 3-4 yoshda bola ranglarni 5-6 xilini bilishi,farqlashi va nomlashi zarurati bor.

Inson hayotining ko‘p jabhalariga ta’sir ko‘rsatadigan rangni idrok etish, shaxsiyat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, atrofimizdagi dunyoni to‘liqroq va kengroq bilishga, undagi estetik tamoyil rivojlantirishga imkon beradi.

Rangni idrok etishni o‘rganish jarayoni bosqichma-bosqich ketma-ket qurilgan.Birinchi bosqichda bolalarda xromatik va axromatik ranglar haqidagi g‘oyalar paydo bo‘ladi.Ikkinchi bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalar asosiy va aralash ranglar bilan tanishadilar, issiq va sovvuq ranglar, ranglarning kontrasti haqida bilib oladilar.Uchinchi bosqichda bolalar hodisalarga, qahramonga munosabatni ifodalash, his-tuyg‘ularni, ichki holatlarni yetkazish uchun rangdan foydalanishni o‘rganadilar.Rangni idrok etishni rivojlantirishda ta’lim muommolarini hal qilishda asosiy rolni og‘zaki tushuntirishni sezilarli darajada to‘ldiradigan ko‘rgazmali material o‘ynaydi. O‘yinlar juda muhim rol o‘ynaydi, ular olingan bilimni takrorlash va

mustahkamlash vazifasini bajaradi. O‘yinlar butun guruh bilan yoki kichik guruhda o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, borliqdagi narsa-hodisalar bolalar ongida akslanishi natijasida unda ma’lum bir kayfiyat uyg‘otishi, psixologik ta’sir qilishi mumkin.Shu ma’noda ranglarning turli jilvasi bolalar uni qabul qilganda mavjud hissiyot bilan sintezlashib, psixologik holatni boshqarish xususiyatiga ega. Shunday ekan, ranglarning sirli xususyatlarini anglash va ulardan oqilona foydalanish samaradorlikka erishishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miranova L. N. “Rang haqidagi fan” Minsk, 1984 y
2. Klar G. Luscher “Rang psixologiyasi” Peter, 1998 y
3. Frumkina R. M. “Rang, ma’no, o‘xshashlik”1984 y
4. Freeling G, Auer K.”Inson-rang-makon” Peter 1995 y
5. B. A. Shashlov “rang va rangni ko‘paytirish” 1986 y
6. http://www. San’at-granatis.uz/ma’lumot/rang/indeks.html
7. http://www.illuhin. Com/eslatmalar/rang/indeks.html

SUV RESURSLARI IFLOSLANISHI VA UNING TIRIK ORGANIZMLARIGA TA’SIRI

Omonov Doniyorbek Dilshodbek o‘g‘li
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti asisstenti
Mamatqulova Ziyoda Ikromjon qizi
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi
Oqilova Hilola Muhiddin qizi
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitga chiqarilayotgan kimyoviy zararli moddalarni suv resusrslariga ta’siri, turlari,ularni amalga oshish mehanizmlari,tirik organizmlarga ta’sir ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, suv resurslari, kimyoviy moddalar, SO_2, biologik xilma-xillik, texnogen omillar, iqlim o‘zgarishi.

Аннотация: В данной статье представлены воздействия химических вредных веществ, выбрасываемых в окружающую среду, на водные ресурсы, их виды, механизмы реализации, показатели воздействия на живые организмы.

Ключевые слова: Экология, водные ресурсы, химические вещества, SO_2, биологическое разнообразие, техногенные факторы, изменение климата.

Annotation: This article presents the effects of chemical harmful substances released into the environment on water resources, their types, mechanisms of their implementation, indicators of impact on living organisms.

Key words: Ecology, water resources, chemicals, SO_2, biological diversity, man-made factors, climate change.

Rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda insoniyatning,qolaversa, barcha tirik organizmlarning rivojlanishi va o‘z populyatsiyasini saqlab qolishida suv resurslariga zararli moddalar doimiy ravishda o‘z ta’sirini ko‘rsatib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli farmonida ham 2022-2026-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil o‘simliklarni ko‘paytirish bo‘yicha quyidagi maqsadli ishlar rejalashtirilgan.

79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish. Atrof muhitga ta’sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

80-maqsad: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini


amalga oshirish. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

Maishiy chiqindilarni yig‘ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish.

Respublika bo‘yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko‘llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo‘yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash.

Har yili 3,4 milliondan ortiq ifloslangan suv tufayli nobund bo‘ladi. Ko‘pincha ifloslangan suvdan kelib chiqqan diareya kasalliklari besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limining asosiy sabablaridan biri bo‘lib, har yili taxminan 525000 o‘limga olib keladi. Noto‘g‘ri sanitariya infratuzilmalari va gigiena amaliyoti ko‘plab mahalliy suv manabalarini ifloslantiradi hamda suv orqali yuqadigan kasalliklarning aksariyati ifloslangan suvni iste’mol qilish natijasida yuzaga keladi. Dunyo bo‘ylab 2 milliarddan ortiq odam hojatxonaga kirish imkoniyatiga ega amas.Har yili bolalarda 1,7 milliard diareya kasalligi qayd etiladi. Tibbiyot muassasalarining 38 %ida suv ta’minoti yetarli emas.

Sanoat ishlaridan olingan metallar va erituvchilar daryo va ko‘llarni ifloslantirishi mumkin. Ular suv hayotining ko‘plab shakllari uchun zaharli bo‘lib, ularning rivojlanishini sekinlashtirishi, bepushtlikka olib kelishi yoki hatto o‘limga olib kelishi mumkin. Pestitsidlar dehqonchilikda begona o‘tlar, hasharotlar va qo‘ziqorinlarga qarshi kurashda qo‘llaniladi. Ushbu pestitsidlarning oqishi suvning ifloslanishiga va suvdagi hayotning zaharlanishiga olib kelishi mumkin. Keyinchalik, qushlar, odamlar va boshqa hayvonlar infektsiyalangan baliqlarni iste’mol qilsalar, zaharlanishi mumkin. Neft kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarning yana bir shakli bo‘lib, odatda kema yorilib ketganda neft to‘kilishi orqali suvni ifloslantiradi. Yog ‘to‘kilishi odatda yovvoyi tabiatga faqat mahalliy ta’sir ko‘rsatadi, lekin milyaga tarqalishi mumkin. Yog‘ ko‘plab baliqlarning o‘limiga olib kelishi va dengiz qushlarining patlariga yopishib olishi, ularning uchish qobiliyatini yo‘qotishi mumkin.



Dunyo bo‘ylab har daqiqada bir million plastik butilka sotib olinsa, har yili dunyo bo‘ylab 5 trilliongacha plastik paket ishlatiladi.

T/R	Plastik material nomi	Mahsulot nomi
1	Polietilen tereftalat (PET)	Suv idishlari, tarqatish idishlari, pechenye tovoqlari
2	Yuqori zichlikdagi polietilen (HDPE)	Shampun idishlari, sut idishlari, muzlatgichli sumkalar,muzqaymoq idishlari
3	Past zichlikdagi polietilen (LDPE)	Qopqoqlar, tovoqlar,konteynerlar, oziq-ovqat qadoqlash plyonkasi
4	Polipropilen (PP)	Mikroto‘lqinli idishlar,muzqaymoq idishlari, shisha qopqoqlari,bir martalik yuz niqoblari
5	Polistirol (PS)	Pichoqlar, laganlar, stakanlar
6	Kengaytirilgan polistirol (EPS)	Himoya qadoqlash, issiq ichimlik idishlari

Dunyo bo‘ylab har yili dunyo okeaniga 12 million tonnagacha neft oqib tushadi.Neft suv sathini yupqa plyonka bilan qoplaydi,natijada tirik organizmlar uchun zarur bo‘lgan kislorodni cheklab qo‘yadi.

Xulosa qilib aytganda, suv resurslari barcha tirik va notirik tabiat komponentlariga doimiy ravishda zarur manbadir. Barcha tirik organizmlarni asosiy

massasini suv tashkil etadi. Shuningdek, ifloslangan suv resurslari iste’mol qilish natijasida tirik organizmlarda xavfli kasalliklarni avj olishi, turlarning popolyatsiyasi kamayishi, turli xildagi nizolarni kelib chiqishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni xal etish bugungi kunning asosiy maqsadi bo‘lishi zarur. Suvdan foydalanishda insonlarda madaniyatni uyg‘otish, yangi ilg‘or texnikalarni joriy qilishni taqqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” 28.01.2022 PF-60-sonli farmoni.
2. https://www.renovablesverdes.com

OROL DENGIZI KECHA, BUGUN HAMDA ERTA MISOLIDA

Abdulloyeva Go‘zal Xidirboy qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tobora cho‘llashib borayotgan Orol dengizi hududlariga cho‘llashishga zamin bo‘luvchi geografik sabablar hamda unga qarshi kurashish choralari to‘grisida ayrim malumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘llashish,Orol dengizi, O‘rta Osiyo, BMT,xo‘jalik, Amudaryo, Sirdaryo, saksovulzorlar, sug‘orma dehqonchilik.

Orol dengizi va unda yondosh hudud O‘rta Osiyo mintaqaviy ijtimoiy ekosistemasining shimolida joylashgan. Umumiy maydoni 47 ming km2 aholi soni 3 mln kishidan ortiqroq. Sovet hokimyati yillarida ilgari ko‘chmanchi chorvachilik va sug‘oriladigan dehqonchilik mavjud bo‘lgan. Orol buyi jadal sug‘orishga asoslangan ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish o‘lkasiga aylandi. 1950 yil Orol xavfzasida 2,9 mln gektar yer sug‘orilardi. Hozirga kelib sug‘oriladigan yer maydoni 7 mln ga yetdi. Bu yerlar ittifoqda jami paxtaning 95 foizini, sholining 40 foizini, meva va uzumning uchdan dan bir qismini beradi. Orolning suv tizimi normaga yaqin bo‘lgan davrga nisbatan har yili qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish hajmi 3,8 dan 15,8 mln gacha o‘sib bordi. Aholi tez ko‘payishiga qaramay jon boshiga daromad 1,8 marta oshdi. Orol dengizi qita ichkarisidagi suvi oqib chiqib ketmaydigan tuzli hamda dengiz va ko‘p xislatlariga ega suv havzasidir. U Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalarning tropic cho‘llari tashqarisida joylashgan. Dengizga Amudaryo va Sirdaryo suv yetkazib beradi.

Dengiz suv holati bir tomondan yuqori fikr etilgan daryolarning suv keltirishi, ikinchi tomondan suv yuzasidagi bug‘lanishlar bilan yuzaga keladi. Bu holatlar iqlimiy geotektonik va antropogen omillar dengizning morfologik jihatlari bilan bog‘liq 60 yillargacha Orol dengizi nisbatan barqaror edi. Amudaryo va Sirdaryoning unga tutashuvchi suvlari (yiliga 56 km3) va yog‘in-sochin suvlari (9 km3) dengiz yuzasidan bug‘lanadigan suv hajmini 65 km3 qoplardi. Bunda suv hafzasi maydoni 67 ming km2 ni hajmi 1064 km2 ni eng chuqur joyi 69rivojlantirish uchun lqaytarilmas suv iste‟molining o‘sishi shuningdek qator yillardagi qurg‘oqchilik Orol dengiziga daryo suvlari quyilishining asta-sekin kamayishiga hatto butunlay to‘xtab qolishga olib keladi. 90 yillar boshlariga kelib dengizning sathi 38 metrgacha pasaydi, suv hajmi 400 km3 gacha kamaydi. Minerallashuv 21 gr/l ga ko‘paydi. Paxta maydonlarini sug‘orish uchun suvdan bejtartib foydalanish keyingi yillarda orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo suvlarining keskin qisqarishiga olib keldi. Dengiz sathi 14 metardan ziyod

pasaydi, suv maydoni 60 yillar boshlaridagiga nisbatan uchdan birga kamaydi. Suv hajmi 60 % ga kamaydi. Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida daryolari suvining sifati yomonlashdi. Iste‟molga deyarlik yaramay qoldi. Yerlari qurg‘oqlashib sho‘rlanmoqda. Ekologik sistemasi hayvonot va o‘simlik dunpyosi chuqur inqirozga uchramoqda. Sug‘oriladigan yerlarning tuproq unumdorligi pasaymoqda. Natijada odamlar salomatligi uchun xavfli ekologik va sanitar epidemiologic vaziyat vujudga kelmoqda. Hozir (1985-90) Orol dengizining qurib qolgan tubi 26 ming km2 ga cho‘zilgan. Ana shu maydondan Orol dengizining hamma tomonga million tonnaga yaqin qum va chang uchib boradi. Keyingi yillarda iqlim ancha yomonlashdi. Orol dengizining chekinishi natijasida paydo bo‘lgan qurin qaqshab yotgan yerlar shamol ko‘taradigan chang to‘zon va tuzlar o‘chog‘idir. Chang-to‘zon 200 km dan ham uzoqqa yetib boradi. Atmosferaga har yili 15 mln tonnadan 75 mln tonnagacha chang ko‘tariladi. Keyingi yillarda O‘zbekiston olimlari Orol dengizining qurigan [tubini tadbiq qildilar. Ayro faza materiallaridan keng foydalanildi, ayrosuratlarga olish o‘tkazildi. Amudaryo deltasi asosan yumshoq qumloq yer va alyuvial (daryo suzlari oqizib kelgan) jinslardan tashkil topgan, kam sho‘rlangan. Bu yerda shamol va suvdan yemirilish uyg‘unlashib, o‘nqir-cho‘nqir murakkab relf hosil qiladi. Mustahkamalangan qumloq maydonlarda ko‘p yillik o‘simliklar – saksovul, yulg‘un, to‘qay nihollari va boshqalar yaxshi rivojlanmoqda. Orolning sharqiy qismidagi 1 mln gektarli oqtepa arxepalegi tuzlar to‘planishining eng yirik manbayidir. Bu arxepelak qizilqum shimoliy sharqiy qismining davom etib kelgan past baland va ariqsimon qumlaridan shakllangan. Balandligi 10-15 metr. Orol dengizi tubining qurigan doirasi mikrorelifi qatlamlar litalogiyasi ko‘rib borishning jadalligi va yer osti suvlarinign chuqur yoki yuza joylashganligiga qarab galageo kimyoviy jarayonlarning uzoq davomli bosqichi o‘tadi.

Orol mintaqasi ijtimoiy ekologik buxronning sabablari.

1. Ko‘p suv talab qiladigan ishlab chiqarishga mo‘ljallangan rivojlantirish, joylashtirish va ularning xomashyo xarakteri.

2. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekologik jihatdan asoslanmagan tuzilmalari joriy qilinishi.

3. Bir qator xollarda yerlarni kengaytirish va sug‘orish ishlari sifatida e‟tibor bermay hosildorlikni past melioratsiyalash qiyin bo‘lgan zaminlash o‘zlashtirilgan.

4. ayrim hollarda sug‘orish tizimlarini loyixalashtirish, qurish ishlari sifatsiz bajarildi.

5. sug‘orish me‟yorlari ko‘p hosildorlikka erishishni o‘ylab yetarli asoslanmagan holda belgilandi.

6. Aholi hayot kechirish sifati yaxshilashga qaratilgan butun xo‘jalik siyosiy faoliyatining ijtimoiy mo‘ljallari kuchsiz edi.

Kishlok xujaligi va sanoat ishlab chikarishi bilan boglik xoldagi nisbatan kichik xududda axoli zichligi. Shuning uchun insonning kimyolashtirish xujalik va maishiy faoliyati natijasida - atrof muxitga salbiy ta‟siri seziladi.

Suv resurslarining tankisligi undan sugorish sanoat, maishiy turmush soxalarida keng foydalanish va uning ifloslanishi. Respublika xududining bir kismi tog oraliklarida bulgani uchun tabiat - iklim xususiyatlari bilan xavfli zona xisoblanadi. Markaziy Osiyoda suv resurslaridan asossiz va nourin foydalanish natijasida Orol va Orol buyi muammosi vujudga keladi.

Yerlarning kayta sho‘rlanishi va suvning yaroksizligi kuchayib bormokda. Usimliklardan foydalanish, chorvani betartib utlatish, tabiiy manzaraga rekracion tazziik respublikadagi ekotizimlarning maxsuldorligining kamayishga olib keladi.

Orol dengizi ilgari vaktda dunyodagi katta ichki dengizlardan bari xisoblanib, undan balikchilik, ovchilik, transport rekracion maksadlarda foydalanilar edi.. Dengiz suv rejimini unga kuyiladigan Amudaryo, Sirdaryo Yer osti suvlari xamda atmosfera yoginlari tushishi yuzadan suvning buglanishi tashkil etardi. Kadimgi davrda dengiz satxining 1,5-2 m uzgarishi tabiiy iklim xususiyatlari bilan boglik bulib suvning xajmi 100-150 kub km suv satxi maydoni 4000 kv. km ni tashkil etganOrol va Orol bo‘yida sodir bo‘layotgan jadal ravishdagi cho‘llanish xodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun ham uni miqdor va sifat jixatidan baxolashda ancha qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Dengiz tubini ochilishi va daryo deltalarining qurishi hisobiga cho‘l maydonlari kengaymoqda. Ochilib qolgan 4mln gektar maydon yuzasi mayday tuz zarrachalari bilan qoplanib, yangi shakildahi qum qoplamlari hosil qiladi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo xududi qum tuz aerozollarini shamol yordamida ko‘chirib yuruvchi kuchli yangi manba vujudga keldi. Dastlabki ma‟lumotlarga ko‘ra, yiliga atmosferaga 15-75 mln. tonnagacha chang-to‘zon ko‘tarilishi mumkin.

Dengiz tubidan ko‘tarilgan chang tuz to‘zoni atmosferani ifloslanishini 5 foizdan ham orttirib bormoqda. Chang tuz to‘zonlarini atmosferaga ko‘tarilishini birinchi marta 1975 yili kosmosdan kuzatilgan. Bunday to‘zonlar yilning uch oy davomida kuzatiladi. Chang-tuz to‘zonlarining uzunligi 400 km eni esa 40 km bo‘ladi, radiusi 300 km ni tashkil etadi.

Tuzlarning yer yuziga yog‘ilishi paxtaning hosildorligi 5-15 foiz, sholining esa 3-6 foizga pasayib ketdi. Orol bo‘yida yog‘ilayotgan chang-tuz zarrachalarning umumiy miqdori o‘rtacha 52 kg ni tashkil etib, tuproq holati yomonlashuvini asosiy sababchialridan biri bo‘lib qoldi. Qoraqalpog‘iston respublikasining sug‘oriladigan maydonlari chang-tuz fraksiyalari 250 kg dan, Chomboy tumanida 500 tonnagacha boradi. Sho‘rlangan qum-to‘zonlari yiliga Orol bo‘yidagi 15 mingga yaqin yaylovlarni egallab bormoqda. G‘o‘za uchun ajratilgan maydonlar kasallik qo‘zg‘atuvchi zararkunandalar bilan zararlangan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarning hosili pasayib ketmoqda.

Amudaryoning yuqori oqimidagi hududlarida meliorativ holati yomonlashishi (Surxandaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand) II kategoriyadagi yerlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Amudaryoning o‘rta oqimiga joylashgan Turkmanistonning suv xo‘jalik tumanlarida murakkab meliorativ holat kelib chiqmoqda. Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida ko‘pchilik maydonlar qoniqarsiz meliorativ aholi bilan III va IV kategoriyaga mansub yerlar hisoblanadi. Sho‘rlangan, kuchli sho‘rlangan maydonlar 35-70 foizni tashkil etadi. Tuproqlarning sho‘rlanishi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari hosili O‘zbekistonda 30 foiz, Turkmanistonda 40 foiz, Qozog‘isotnda 30-33 foiz, Tojikistonda 19 foiz, Qirg‘izistonda 20 foizga pasayib ketdi. Sho‘rlangan yerlar maydoni kundan-kunga ortib bormoqda. Qirg‘oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentanligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o‘rtasidagi haroratni o‘zgarishi shamol tezligining ortishi suvning to‘lqinlanish xodisasini kuchayishiga olib keldi. Avvali qumlar ortiqcha namlikni yutishi hisobiga, namlikni doimo ushlab turishiga cho‘l o‘simliklarning rivojlanishiga yordam berar edi.

Kuchli sho‘rlangan yer osti suvlarining yuza joylanishi, cho‘llanish jarayonini kuchaytirmoqda. Amudaryo va Sirdaryo qirg‘oqlarining pasayishi natijasida daryoning quyi qismida suv toshqinlarini kamaytirib yubordi. Bu o‘z navbatida to‘qay o‘simliklari maydonlarini qisqarishiga ilgari gumusga boy bo‘lgan o‘tloqlar o‘tloq botqoqli tuproqlar unumsiz, o‘tloq taqir, cho‘l, qumli o‘tloqlarga ayalanishiga olib keladi. Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar aholi uchun xavfli kasallik tarqatuvchi kemiruvchilar bilan to‘lib bormoqda. Orol buyining epidemiologik ahvoli nihoyatda og‘ir. Aholining markazlashgan suv bilan ta‟minlash 29067 foizni tashkil etadi. Aholining yarmi ifloslangan ochiq suv xafzalaridan foydalanadi. Orol dengizini saqlab qolish mumkinmi? Orol muammosining asosini uning kdengiz sifatida saqlab qolishni tashkil etadi. Shuni ta‟kidlash lozimki Orol o‘z tarixi davomida ilmiy malumotlarga qaraganda ko‘p marta o‘z shaklini o‘zgartirgani va qurib qolgani malum.

Orol dengizi dastlabki absolyut balandligini tiklash uchun 100 m3km dan ortiq suv kerak bo‘ladi. Orolni saqlab qolish haqida hozirgi vaqtda bir necha fikrlar mavjud.

1. Orolni qanday bo‘lmasin qutqarish va avvalgi holatiga qaytarish zarur.

2. Orol dengiziga sathni barqaror bir sathga saqlab bo‘lmaydi, shuning uchun uni to‘liq qurishi muqarrar.

3. Orol sathini ma‟lum bir sathda saqlab qolish mumkin va uni amalgam oshirish zarur.

Birinchi fikr 1985 – 1987 yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‟zolari tomonidan va boshqa qardosh respublika yozuvchilari tomonidan ko‘plab quvvatlangan. Ikkinchi fikrni ba‟zi meliorativ va elegatorlar ko‘plab quvvatlamoqdalar. Ular barcha suvni yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orishga

sarflash kerak. Dengizni qutqarib bo‘lmaydi, uning qurishi muqarrar demoqda. Uchinchi fikr Orol muammosi bilan maxsus shug‘ullangan olimlar va mutaxassislar tomonidanm ko‘tarilgan. Ular o‘z fikrlarini ushbu muammo uslubida olib brogan ko‘p yillik ilmiy izlanishlari asosida tushuntirib dengizning barcha ekologik va ijtimiy-iqtisodiy ahamiyati to‘g‘ri tahlil qilingan holda, uning sathini ma‘lum mutloq balandlikda saqlab qolish mumkinligini isbotlab berdilar.

Orol dengizi dastlabki mutloq balandlikka (53 m) ko‘tarishni iloji yo‘q.

Oliy maktablarda ekologiya ta‘limi, tabiat muxofazasi masalalarning ilmiy asoslarini chuqur va har tomonlama o‘rganishga inson faoliyati natijasida biosferada ro‘y berayotgan xodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil etish maqsadlariga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Gerasimov I P ekalogicheskie problem’ v prrshloy nostoyashiy ibudushey geografii mir M Nauka 1985

2. Izrael’ Yu A ekalogiya ikontrol sostoyaniya prirodnoy sred’ M Gidrameteozdat 1984

3. Manitoring prirodnoy Srediu v basseyne Aral’kogo morya L Gidrometedizdat 1991

4. Berg L. S, Aralskoye more, SPB,1908;

5. Shuls V. L., Mashrapov R., O‘rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;

6.Rafikov A. A.,Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnix usloviy nizovyev Amudari, T., 1981;

7. Glazove kiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990; Akramov 3., Rafikov A. A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T., 1990;

8.Xikmatov B. F., Izucheniye dinamiki elementov vodnogo balansa i mineralizatsii Aralskogomorya, Dissertatsiya na soiskaniye akademicheskoy stepeni magistra gidrologii, T., 2003.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NUTQ VA MULOQOT FE’LLARIDA DARAJALANISH
GRADUONYMY IN SPEECH COMMUNICATION VERBS IN UZBEK AND ENGLISH VERBS
ГРАДУОНИМИЯ ГЛАГОЛОВ РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Otaboyeva Mazmuna Raximovna
Qo‘qonDPI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tilida nutq va muloqot fe’llarida darajalanish muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek tilidagi nutq fe’llari va ingliz tilidagi muloqot fe’llaridan hosil qilingan darajalanish qatorlarini chog‘ishtirilgan. Har ikki tillarda yuqoridagi keltirilgan semantik kategoriyalarga mansub leksemalarning izohlari keltirilib, ularga asoslangan holda darajalanish qatorlari hosil qilingan.

Kalit so‘zlar: graduonimiya, darajalanish qatori, nutq fe’llari, muloqot fe’llari, izohli lug‘at, sinonim.

O‘zbek tilidagi nutq fe’llari ifodalagan ma’nolarni ingliz tilidagi aloqa va muloqotni anglatuvchi fe’llar ham bildiradi. O‘zbek tilidagi nutq fe’llari faqat insonning gapirish jarayoni bilan bog‘liq harakatlarni ifodalasa, ingliz tilidagi muloqot fe’llari (communication verbs) nutq bilan bog‘liq fe’llardan tashqari, boshqa aloqa vositalarini ifodalovchi fe’llarni ham o‘z tarkibiga oladi. Masalan, *yozmoq (write), tinglamoq (listen)* kabi. Qolgan aksariyat hollarda nutq bilan bog‘liq fe’llarni ifodalaydi.

O‘zbek tili sinonimlari lug‘atida *gapirmoq* fe’lining *so‘zlamoq, so‘ylamoq* kabi sinonimlari keltirilgan bo‘lib, unda quyidagicha izohlanadi: “Bu so‘zlar *gap aytmoq, so‘z aytmoq* ma’nosini bildiradi. *Gapirmoq – so‘zlamoq, so‘ylamoq* so‘ziga nisbatan keng qo‘llanadi. S*o‘zlamoq*− kitobiy so‘z. *So‘ylamoq*− ko‘proq poeziyada qo‘llanadi”[15]. Izohlardan kelib chiqib, ushbu so‘zlarni ishlatilish ko‘lamiga ko‘ra *so‘ylamoq→so‘zlamoq→gapirmoq* tarzida darajalash mumkin.

O‘zbek tilidagi nutq fe’llari guruhiga mansub *gaplashmoq* fe’li ishtirokida darajalanish qatorlari hosil qilamiz. *Gaplashmoq* fe’liga suhbat jarayonini ifoda etuvchi *suhbatlashmoq. so‘zlashmoq*; suhbatning “qizib” ketishini ifodalovchi *chaqchaqlashmoq, gurunglashmoq, laqillashmoq, otamlashmoq, ulfatlashmoq, hasratlashmoq, dardlashmoq* kabi fe’llarni ma’nodosh qilib keltirish mumkin. Ushbu fe’llar ma’nolaridagi farqlarni aniqlash maqsadida izohli lug‘atga murojaat etamiz.

[15] Ҳожиева А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. –Тошкент, 1963. – Б.49.

GAPLASHMOQ 1. Suhbatlashmoq; so‘zlashmoq. Nega odamlar gaplashyapti? (S.Zunnunova, “Ko‘k chiroqlar”)

2.O‘zaro kelishmoq, bitishmoq [16]

SUHBATLASHMOQ Yig‘ilishib, o‘zaro gaplashmoq, suhbat qilmoq. Suhbat qurmoq, gurunglashmoq. Fozil odam bilan suhbatlashsang, rohat qilasan.(Oybek, Tanlangan asarlar)

SO‘ZLASHMOQ 1.So‘zlamoq fl.birgalik nisbat. 2.Gapirishmoq, gaplashmoq. Notiqlar o‘n minutdan so‘zlashdi.3. Biror narsa. masala haqida o‘zaro muzakara olib bormoq, gapirishmoq, kelishmoq, bitishmoq. Ta’til to‘g‘risida direktor bilan so‘zlashib qo‘ydim[17].

CHAQCHAQLASHMOQ Xushchaqchaqlik bilan vaqt o‘tkazmoq, suhbatlashmoq.[18]

GURUNGLASHMOQ Qizg‘in suhbatlashmoq, suhbatlashib o‘tirmoq.[145]

LAQILLAMOQ 3. Bo‘lar-bo‘lmas gaplarni qilmoq, lozim bo‘lmagan gaplarni gapirmoq[19].

ULFATLASHMOQ 1. O‘rtoq yoki oshna bo‘lib qolmoq; inoqlashmoq; do‘stlashmoq. 2. Ulfatchilik qilmoq, suhbatlashmoq

OTAMLASHMOQ 1. Hasratlashmoq, yurakdagi dard-alamlarni o‘rtoqlashmoq. U (Umrzoq ota) har gal G‘ani samovarchining hujrasiga tushar, u bilan otamlashib, dardini yozib kelardi. (H.G‘ulom “Mash’al”).

2. Yozilib, miriqib, ko‘ngilli suhbat qilmoq, ulfatlashmoq. Ular mehmonlar ketgandan keyin ham allamahalgacha otamlashib o‘tirishdi. (T.Ashurov Oq ot)[20].

HASRATLASHMOQ Biror qiyinchilik, g‘am, tashvish kabilar haqida o‘zaro gaplashmoq, shunday mazmunli suhbat qurmoq; dardlashmoq[21].

DARDLASHMOQ Bir-biriga ko‘nglidagi g‘amu tashvishlarini, qayg‘uhasratini izhor qilmoq, hasratlashib ko‘ngil yozmoq, hasratlashmoq.

Yuqoridagi izohlardan *so‘zlashmoq, gaplashmoq, suhbatlashmoq* fe’llarining bildirgan ma’nolari orasida graduonimik munosabat mavjud emas, chunki ular bir ma’noni ifodalovchi leksemalar hisoblanadi. Ular darajalanish qatorida bitta pog‘onada joylashtiriladi. Izohi keltirilgan fe’llarning barchasi insonlar orasidagi muloqotni anglatib, *chaqchaqlashmoq, gurunglashmoq, laqillashmoq, otamlashmoq* kabi fe’llarda suhbatning uzoqroq davom etganligi ottenkasi mavjud. Ular yordamida

[16] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Г” ҳарфи. – Б.486. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[17] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “С” ҳарфи. – Б.606, 610. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[18] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ч” ҳарфи. – Б.470. www.ziyouz.com kutubxonasi. [145] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Г” ҳарфи. – Б.528. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[19] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Л” ҳарфи. – Б.492. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[20] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “О” ҳарфи. – Б.153. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[21] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Х” ҳарфи. – Б.514. www.ziyouz.com kutubxonasi.

suhbatning davomiyligi asosida *so‘zlashmoq/gaplashmoq/ suhbatlashmoq → gurunglashmoq → laqillashmoq → otamlashmoq → hasratlashmoq/ dardlashmoq* kabi darajalanish qatorini tuzish mumkin.

Chaqchaqlashmoq. gurunglashmoq, otamlashmoq fe’llarida xursandchilik bilan gaplashish ma’nosi mavjud. Ular ishtirokida suhbatning “qizg‘inlashib” borishiga ko‘ra: *so‘zlashmoq/gaplashmoq/suhbatlashmoq → chaqchaqlashmoq→ gurunglashmoq→ otamlashmoq/ulfatlashmoq* graduonimik qatori hosil qilinadi. SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, *otamlashmoq va ulfatlashmoq* so‘zlari qo‘llanilish doirasiga ko‘ra gender xususiyatga ega bo‘lib, faqat erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

- Основной спрос на экотуризм, поступающий от отечественных туристов, которые были далеко не богаты, привёл к более коротким экотуристическим турам и их ограниченной рентабельности.

Таким образом, хотя Каракалпакстан считается привлекательным местом для природного туризма, тесно связанного с культурным туризмом, он ещё не может считаться направлением для экотуризма.

Использованные литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О стратегии развития нового узбекистана на 2022 — 2026 годы».

2. https://uzbekistan.travel/ru/v/ekoturizm/

3. https://www.undp.org/ru/uzbekistan/press-releases

4.https://www.researchgate.net/publication/309319219_Razvitie_ekoturizma_v_respublike_Karakalpakstan_problemy_novye_napravlenia_i_perspektivy

5.http://www.uzbekistan.org.ua/ru/165-uncategorised/novosti/turizm-news/turisticheskie-napravleniya-uzbekistana/turisticheskie-vozmozhnosti-karakalpakstana1/2774-turisticheskie-vozmozhnosti-karakalpakstana.html

ҚУРҒОҚЧИЛИК ХИЛЛАРИ ВА ЎСИМЛИКЛАРНИНГ УНГА ЧИДАМЛИЛИГИ

Ибрагимова Ситора
Биология (турлар бўйича) мутахассислигининг
1-босқич магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада ўсимликларнинг экологик стрессорларга чидамлилиги ва тупроқ қурғоқчилигининг салбий оқибалари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: стрессорлар, қуруқ тупроқ, сув баланси, сув танқислиги, тупроқ қурғоқчилиги, атмосфера қурғоқчилиги, физиологик қурғоқчилик, ғўза.

Ўсимликларнинг экологик стрессорларга чидамлилиги ўсиш ва ривожланиш босқичларида ҳар хил бўлади. Тиним даврида уларнинг чидамлилиги энг юқори бўлади. Энг чидамсизлик - ўсимликларнинг ёш майсаларида кузатилади. Кейинчалик ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланиши билан бир қаторда уларнинг чидамлилик даражалари ҳам пишиб етилиш босқичигача ортиб боради. Аммо, ўсимликларнинг гуллаш фазаси, айниқса гаметаларнинг шаклланиш муддати ҳам критик саналади. Чунки, бу муддатларда ўсимликлар стрессорлар таъсиридан кучли зарарланиши ва ҳосилдорликни кескин камайтириши мумкин.

Қуруқ тупроқда ўсимликларнинг сув билан таъминланиш жараёни бузилади. Натижада ўсимликда узоқ вақтгача сув танқислиги ва сўлиш ҳолати давом этади. Сув балансининг узоқ вақтгача қолиши ўсимликда физиологик жараёнларнинг ўзгаришларига ҳам сабаб бўлади. Сувсизлик натижасида протоплазманинг коллоид ва кимёвий хусусиятлари зарарланади. Оқсиллар синтези кескин пасаяди. Чунки, информацион РНК ипларини узувчи аденозинтрифосфатаза фаоллашади, полисомалар парчалана бошлайди.

Қурғоқчиликка чидамли ўсимлик ҳужайралари, тўқималари ва органларининг сезиларли даражада сувсизланишга чидашидир. Сувсизланиш цитоплазма хусусиятларини бузади, оқсил синтези камайиб кетади, полисомалар рибосомаларга, улар эса ўзларининг суббирликларига парчаланиб кетади. Шунингдек, сувсизлик моддалар алмашинувини пасайтиради. Бунинг натижасида эса ўсимликларнинг ўсиши тўхтайди ва ҳосилдорлик камайиб кетади. Бу асосан генератив органлар кам ҳосил бўлиши билан ифодаланади.

Дастлабки ҳаётнинг пайдо бўлишидан бошлаб, организмларнинг ташқи муҳитнинг ноқулай омиллар таъсирига мослашуви ва чидамлилиги содир бўла бошлайди. Чунки, ноқулай омиллар организмларнинг жумладан, ўсимликлар

танасида кечадиган физиологик ва биокимёвий жараёнларнинг жадаллигига таъсир этади. Айниқса, сув етишмаслиги, ҳароратнинг минимумдан паст ёки максимумдан юқори бўлиши, ҳар хил тузларнинг тўпланиши натижасида тупроқ эритмаси концентрациясининг кучли бўлиши, патоген микроорганизм-ларнинг кўпайиши, зарарли газлар ва радиациянинг меъёридан ортиб кетиши кабилар ўсимликларнинг ҳаётий жараёнларига салбий таъсир этмай қолмайди. Бундай омилларнинг юзага келиши ўсимликлар учун ноқулай шароит ҳисобланади. Ўсимликларнинг шундай ноқулай омиллар таъсирига насбатан жавоб реакцияси уларнинг чидамлилигини белгилайди. Чидамлилик даражаси индивидуал хусусиятга эга бўлиб, у ўсимлик турига, яшаш шароитидаги бошқа омиллар таъсирига боғлиқ ҳолда ҳам ўзгаради. Ҳатто бир ўсимликнинг ҳар хил ҳужайралари, тўқималари ва органлари чидамлилик даражаси билан бир - биридан фарқ қилиши мумкин[1].

Сувнинг етишмаслиги ўсимликларга энг кўп зарарли таъсир этади. Сув етишмаслиги, яъни, қурғоқчилик, даставвал, ўсимликларнинг сув алмашинув жараёнларига салбий таъсир этади ва ўсимликларнинг бошқа физиологик жараёнларида (фотосинтез, нафас олиш, илдиз орқали минерал элементларнинг ўзлаштирилиши, ўсимликлар танасида моддалар транспорти ва бошқалар) ҳам намоён бўлади. Натижада ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланиши секинлашади ёки тўхтаб қолади.

Қурғоқчилик уч хил, яъни, тупроқ қурғоқчилиги, атмосфера қурғоқчилиги ва физиологик қурғоқчиликлар бўлади.

Тупроқ қурғоқчилиги - асосан ёзнинг ўрталари ва охирида кузатилади. Бу вақтларда ҳавонинг иссиқ ва қуруқ келиши натижасида тупроқдаги сув ер юзасидан ва ўсимликлардан тез буғланиб, тупроқнинг қуриб қолиши кузатилади. Натижада тупроқ қурғоқчилиги бошланади.

Атмосфера қурғоқчилиги - ҳароратнинг жуда юқори бўлиб, ҳавонинг нисбий намлиги кам (10-20 фоиз) бўлиши билан тавсифланади. Бу вақтда ўсимликда транспирация жараёни жуда жадал боради. Натижада ўсимликка сувнинг кириш тезлиги билан ундан сувнинг буғланиб чиқиши ўртасида нисбат бузилади ва ўсимлик сўлий бошлайди. Иссиқ ва қуруқ шамол (гармсел) эсганда вужудга келадиган атмосфера қурғоқчилиги ўсимликлар учун янада хавфлироқ. Гармсел вақтида тупроқда сувнинг бўлишига қарамай, ўсимликнинг ер устки органларидан сув кўплаб сарфланиб, қурғоқчиликка чидамсиз ўсимликлар тезроқ нобуд бўлади [2].

Физиологик қурғоқчилик - тупроқда ўсимликларни таъминлаш учун етарли миқдорда сув бўлса ҳам уни айрим сабабларга кўра ўсимликларнинг ўзлаштира олмаслиги билан тавсифланади. Буларга тупроқда тузларнинг тўпланиши (шўр тупроқлар), тупроқ ҳароратининг жуда паст бўлиши, кучли нордон реакцияга эга

бўлган тупроқлар (pH 3-5) ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. Бундай тупроқларда кўпчилик қишлоқ хўжалик экинларининг ўса олмасликлари сабабларидан бири сувни ўзлаштира олмаганлигидир.

Қуруқ тупроқда ўсимликларнинг сув билан таъминланиш жараёни бузилади. Натижада ўсимликда узоқ вақтгача сув танқислиги ва сўлиш ҳолати давом этади. Сув балансининг узоқ вақтгача бузилиши ўсимликда физиологик жараёнларнинг ўзгаришларига ҳам сабаб бўлади. Сувсизлик натижасида протоплазманинг коллоид ва кимёвий хусусиятлари зарарланади. Оқсиллар синтези кескин пасаяди. Чунки, информацион РНК ипларини узувчи аденозинтрифосфатаза фаоллашади, полисомалар парчалана бошлайди.

Қурғоқчиликка чидамли ўсимлик ҳужайралари, тўқималари ва органларининг сезиларли даражада сувсизланишга чидашидир. Сувсизланиш цитоплазма хусусиятларини бузади, оқсил синтези секинлашади, полисомалар рибосомаларга, улар эса ўзларининг суббирликларига парчаланиб кетади. Шунингдек, сувсизлик моддалар алмашинувини пасайтиради. Бунинг натижасида эса ўсимликларнинг ўсиши тўхтайди ва ҳосилдорлик камайиб кетади. Бу асосан генератив органлар кам ҳосил бўлиши билан ифодаланади.

Қурғоқчилик ўсимликларни сувга бўлган талабини қондира олмайдиган метеорологик шароитдир. Қурғоқчиликнинг асосий сабаблари ёғингарчиликнинг бўлмаслиги, транспирация ва тупроқ юзасидан сувнинг кўплаб буғланишидир. Айниқса кучли шамоллар илдиз тарқалган тупроқ қатламининг қуришига олиб келади. Атмосфера қурғоқчилиги қуруқ ва иссиқ ҳаво таъсирида ҳаво намлиги жуда кам бўлганда пайдо бўлади. Бунда ўсимлик ўсишдан тўхтайди ва барг сатҳи кенгаймайди, натижада экинларнинг ҳосилдорлиги камаяди[3-4].

Қурғоқчилик ўсимликлар танасида борадиган биосинтетик жараёнларни кескин камайтиради, оқсилларнинг парчаланиши рўй беради. Органик захира моддалар миқдори камаяди. Бу эса ўз навбатида ўсимлик ўсишини секинлаштиради. Ушбу ва бошқа ҳоллар туфайли барг қурий бошлайди ва ундан крахмал йўқолади. Шунингдек, ўсимликлар илдиз тизимларида фосфор алмашинуви кескин ўзгаради, фосфорланиш жараёни жадаллиги пасаяди. Қурғоқчилик охир оқибатда ўсимликлар ҳосилдорлигини ўта пасайиб кетишига олиб келади.

Маданий ўсимликларнинг қурғоқчиликка бўлган чидамлилигини ошириш долзарб муаммо бўлиб, бу соҳада айрим ишланмалар мавжуд. Ўсимликларнинг қурғоқчиликка чидамлилиги ташқи шароит таъсирида ўзгаради. И.И.Тумановнинг изланишларида кўрсатилишича, ўсимликларга қурғоқчилик билан таъсир этиш усули билан чидамлилигини ошириш мумкин. И.И.Туманов текширишлари бир марта сувсизланган ўсимлик бундан кейинги

сувсизланишига чидамли бўлиб, иккинчи марта сувсизланиш ва сўлиш уларга анча кучсиз таъсир қилганлигини кўрсатади. Кейинги йилларда олиб борилган изланишлар калий, фосфор қисман азот ва айрим микроэлементлар (бор, рух, мис, алюминий ва бошқалар) таъсиридан ўсимликларнинг қурғоқчиликка чидамлилиги анча ошганлиги кўрсатилган. Аммо, азот кўпроқ қўлланилганда аксинча чидамлилик пасайгани таъкидланган. Қурғоқчилик таъсирига нисбатан чидамли навларни танлаш ва улардан фойдаланиш ҳам катта аҳамиятга эга [5-6].

Ўсимликларнинг қурғоқчиликка чидамлилигини бирмунча ошириш ҳам мумкин. Бунинг учун П.А. Генкель ўсимликлар уруғларини аввало бироз ундириш, сўнгра унаётган уруғни озроқ қуритиб экишни тавсия қилган. Ушбу усул орқали ўсимликлар чидамлилигини бирмунча ошириш мумкин. Ҳозирги вақтда ушбу усуллар амалиётда кенг қўлланилиб келинмоқда. Шунинг билан биргаликда ўсимликларнинг қурғоқчиликка чидамлилигини оширишда кимёвий усуллар ҳам қўлланилади. Масалан, ўсимликлар уруғларини 0,2 фоизли калций хлорид тузида 18 - 20 соат ивитиб экиш, уларнинг қурғоқчиликка чидамлилигини оширишда яхши амалий натижалар бериши мумкин[7].

Қурғоқчилик майдонларида ўсадиган ўсимликлар ксерофитлар ҳам дейилади. Ксерофитлар тупроқ ва атмосфера қурғоқчилигида ўсишга мослашган ўсимликлардир. Уларнинг характерли белгиларидан бири бу, ер устки қисмининг ер остки қисмларидан ўлчамлари бўйича кичик бўлиши ҳамда буғлатувчи юзанинг ҳам кам бўлишидир.

П. А. Генкель маълумоти бўйича, ксерофитларнинг ўзи ҳам қурғоқчиликка чидамлилиги бўйича бир неча гуруҳларга бўлинади.

Суккулентлар - иссиққа ўта чидамли ўсимликлар бўлиб, сувсизланишга ҳам бемалол чидайди. Улар сув танқислигини деярли сезмайди. Танасида сув кўп, лекин сувни ўта секин сарфлайди. Суккулентларга кактус, агава, алоэ ва бошқалар киради.

Эвксерофитлар - иссиққа чидамли ўсимликлар бўлиб, қурғоқчиликни бемалол ўтказади. Ушбу ўсимликларнинг ҳужайра шираси осмотик босими юқори, транспирация жадаллиги паст бўлиб, илдизлари кенг тармоқланган ва айрим ҳолларда сизот сувларгача етиб боради. Эвксерофитлар жуда юқори иссиқликда барг ва новдаларини ташлаб юборадилар. Уларга янтоқ, шувоқ, астрагал каби ўсимликлар киради.

Гемиксерофитлар - сувсизлик ва танасининг қизишини кўтара олмайдиган ўсимликлар. Уларда транспирация жараёни юқори, лекин протоплазманинг ёпишқоқлиги ва эластиклиги юқори эмас. Илдизлари анчагина чуқур кетган. Гемиксерофитларга шалфей, резак каби ўсимликлар киради.

Чўл ксерофитлар - булар чўлларнинг бошоқли ва ковул каби ўсимликларидир. Ушбу ўсимликлар қисқа муддатли ёмғирлардан яхши

фойдаланади ва қизиб кетишга чидамлидир. Аммо, фақатгина тупроқда қисқа муддатли сув танқислигига чидамлидир холос.

Пойкилоксерофитлар - ўзларининг сув режимини бошқара олмайдиган ўсимликлардир. Улар юқори ҳароратда қизиши аммо, ёз ёмғирларидан сўнг яна жонланиб, фаол ҳаёт кечириши мумкин. Бу ўсимликларга лишайникларни мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин.

Демак, ўсимлик органларидаги эркин аминокислоталар умумий миқдорининг ўзгариши нормал сув билан таъминланганда ўсимликларнинг биологик хусусиятларига боғлиқ бўлади. Атмосфера ва тупроқ қурғоқчилиги шароитидаги аминокислоталар алмашинувидаги юзага келадиган ўзгаришлар ўсимликларнинг сув таъминотининг бузилишига бўлган физиологик реакцияси ҳисобланади. Сув танқислиги шароитида ўсимликларда аминокислоталар, айниқса пролиннинг тўпланиши уларнинг ҳимоявий хусусиятларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланиган адабиётлар:

1.Бекназаров Б.О. Ўсимликлар физиологияси.-Тошкент:Алоқачи, 2009.-536 б.

2.Норбоева У.Т., Холлиев А.Э. Ғўза ва бошқа экинларга шўрланиш таъсирининг экофизиологик асослари. – Бухоро: Бухоро, 2019.- 132 б.

3.Саъдиев М.Т., Алимова Р.А. Ўсимликлар физиологияси.- Тошкент: Янгийўл Р/С, 2007.- 240 б.

5.Холлиев А.Э., Норбоева У.Т., Бўриев С.Б. Ўсимликларда сув алмашинуви.-Бухоро: Зиё Ризограф, 2006.-104б.

6.Холлиев А.Э., Норбоева У.Т. Ғўза ва бошқа экинларга қурғоқчилик таъсирининг экофизиологик асослари. – Бухоро: Бухоро, 2019.- 152 б.

7.Хўжаев Ж. Х. Ўсимликлар физиологияси. -Тошкент: Меҳнат, 2004.- 224 б.

ЎСИМЛИКЛАРГА ЮҚОРИ ҲАРОРАТ ТАЪСИРИ

Шукурова Шахло Гулмуродовна
Биология (фан йўналиши бўйича) таълим йўналиши
1-курс магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада ўсимликларнинг ноқулай стресс омилларга чидамлилик механизмларини ўрганиш ва уни очиш беришнинг долзарб назарий-илмий муаммолари, ҳамда шу соҳадаги илмий-тадқиқот ишларини ўрганиш, ўсимликларнинг стресс омилларга чидамлилигини оширишда генетик-селекцион тадқиқотларда фойдаланиш ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: стресс, абиотик стрессорлар, физиологик ва биокимёвий хусусиятлар, ўрта толали ғўза, қурғоқчилик, глобал иқлим, чидамлилик даражаси.

Дунё миқёсида кузатилаётган стресс омиллар - тирик организмларга, жумладан ўсимликлар оламига ҳам жиддий салбий таъсир кўрсатмоқда. Натижада ўсимликларнинг маҳсулдорлик кўрсаткичлари ҳамда ҳосил ва унинг сифати пасаймоқда. Бундай стресс омилларнинг салбий таъсирини камайтиришга қаратилган илмий-тадқиқот ишларини чуқурлаштириш ҳамда йўқотилаётган ҳосилни сақлаб қолиш чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, ноқулай стресс омиллар таъсирининг физиологик жиҳатларини баҳолаш ва асослашга катта эътибор берилиши боис бу йўналишда амалга оширилаётган тадқиқотлар энг муҳим вазифалар сифатида қаралмоқда.

Жаҳонда ўсимликларнинг ноқулай стресс омилларга чидамлилик механизмларини ўрганиш ва уни очиш бериш долзарб назарий-илмий муаммолардан бири бўлиб, ушбу соҳадаги илмий-тадқиқот ишларини чуқурлаштириш орқали ўсимликларнинг стресс омилларга чидамлилигини оширишда экзоген ва эндоген моддаларни ишлатиш усулларини яратиш, экинларнинг мавжуд генофондидан генетик-селекцион тадқиқотларда кенг фойдаланиш ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига кенг тадбиқ қилишга катта эътибор берилмоқда. Бу каби изланишларнинг ўтказилишига зарурият шу билан изоҳланадики, стресс омиллар таъсирида ўсимликларда пайдо бўладиган стрессни бартараф этиш учун турли хил физиологик ва биокимёвий механизмларни фаоллаштиришини тақозо этади.

Ғўза ишлаб чиқаришнинг турли тармоқларини хомашё билан таъминлайдиган муҳим техник экинлардан бири ҳисобланади.Талаб даражасида маҳсулот етиштиришда эса ҳосилни сақлаб қолишга қаратилган оптимал омиллар талаб этилади.

Абиотик стрессорлар қишлоқ хўжалиги ўсимликларига кучли салбий таъсир қилиб, ўсимликларнинг ўсиши ва маҳсулдорлигини пасайтиради. Сув танқислиги, тупроқнинг шўрланиши ва юқори ҳарорат хусусан, бутун дунёда экинлар ҳосилдорлиги ва озиқ-овқат маҳсулотлари пасайишининг асосий сабабларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун ўсимликларга абиотик стрессорлар таъсирини ва стрессга чидамлилик механизмларини ўрганиш ўсимлик физиологиясининг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади. Абиотик стрессга қаршилик кўрсатиш механизмлари, шунингдек, стресснинг зарарли таъсирини турли усуллар билан камайтириш ёки генетик материал манбаи сифатида бирлашган стрессга мослашган маҳаллий навлардан фойдаланиш каби амалий жиҳатларни ўз ичига олади [1].

Абиотик стрессорлар қишлоқ хўжалиги учун салбий таъсир қилувчи тўсиқ бўлиб, бутун дунё бўйлаб ўсимликларнинг ўсиши ва маҳсулдорлигини кескин пасайтиради. Келажакда қишлоқ хўжалигида экинлар ҳосилдорлигининг камайиши глобал исиш, ифлосланишнинг кўпайиши ва унумдор ерларнинг камайиши билан кучаяди. Қишлоқ хўжалигининг бугун ва келажакда олдида турган асосий муаммо - дунёнинг кўплаб минтақаларида ёмонлашиб бораётган муҳит шароитида тобора ўсиб бораётган аҳоли учун озиқ-овқат маҳсулотларини кўпайтириш ва бошқалардан иборат. Турли хил абиотик стрессорларга дучор бўлишни минималлаштириш кенг тарқалган муаммо ҳисобланади.

Абиотик стрессга чидамлилик механизмларини ўрганиш қишлоқ хўжалигида унинг шубҳасиз илмий қизиқиши ва амалий аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда ўсимликлар физиологиясининг тадқиқот йўналишларидан биридир. Атроф-муҳит томонидан келиб чиқадиган турли абиотик стресслар одатда ўзаро боғлиқ бўлиб, кўпинча ўсимлик ҳужайралара гомеостазига таъсир қилувчи осмотик компонентга эга [2-3].

Абиотик стрессга қарши курашиш учун ўсимликлар сезгир ва бардошли ўсимликларга хос бўлган бир қатор стресс реакцияларини фаоллаштиради, чунки, улар бир хил асосий ўзгаришлардан фойдаланадилар.

Қурғоқчилик ва шўрланиш бутун дунёда экинлар ҳосилдорлигига таъсир қилувчи асосий абиотик омиллардир. Дунё миқёсида ҳароратнинг ошиши сабабли дунёнинг кўплаб минтақаларида тез-тез, узоқроқ ва кучли қурғоқчиликлар, суғориладиган ерларда шўрланишнинг кўпайиши билан боғлиқ. Озиқ-овқат маҳсулотларининг учдан бир қисмини ишлаб чиқарадиган дунёдаги суғориладиган ерларнинг тахминан 20% тупроқнинг иккиламчи шўрланишига учраган.

Ўрта толали ғўза (*Gossypium hirsutum* L.) бутун дунёда тўқимачилик саноатини тола билан таъминлайдиган энг муҳим экинлардан биридир.

Тахминий ҳисоб-китобларга кўра, дунёда пахта етиштиришнинг 80 фоизи Бразилия, Хитой, Ҳиндистон, Покистон, Туркия, АҚШ ва Ўзбекистондан олинади. Ушбу ўсимлик кўплаб мамлакатларнинг ялпи миллий маҳсулотининг (ЯММ) асосий қисмини ташкил этади.Иссиқхона газларининг атмосферада карбонат ангидрид билан бирга тез суръатларда тўпланиши яқин келажакда қишлоқ хўжалигига хавф туғдириши мумкин.

Глобал исиш дунёнинг аксарият қишлоқ хўжалиги ҳудудларида атроф-муҳитнинг катта тўлқинларига олиб келиши ҳақида айтиб ўтилган [4]. Иссиқхона газларининг доимий чиқиндилари (нурланиш частотаси, жадаллиги ва давомийлиги бўйича) 2080 йилгача дунёнинг асосий қишлоқ хўжалиги минтақаларида ўртача йиллик ҳароратнинг (2,5-4,3°C) сезиларли ўзгаришига олиб келади. Ҳароратнинг ҳар бир даражага кўтарилиши вегетация даврида экинлар ҳосилдорлигига 17% гача таъсир қилиши мумкинлиги кўрсатилган. Бундай ҳарорат ўзгариши натижасида ёғингарчилик ва қурғоқчиликка олиб келиши мумкин, бу катта даромад йўқотишларига сабаб бўлиши мумкин. Шундай қилиб, юқори ҳароратнинг пасайиб бораётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига тезкор ва кучли таъсирини аниқлаш қийин эмас.

Агар Ер шарининг ўртача йиллик ҳарорати шу даражада кўтарилса, йирик ишлаб чиқарувчилар ҳосилдорликда катта йўқотишларга дуч келишлари мумкин. Аксинча, 40°C га яқин ҳароратда ғўза экиладиган жойларга ноқулай иқлим шароити салбий таъсир қилади ва бу маҳсулдорлик бўйича катта йўқотишларига олиб келади. Шубҳасиз, ҳароратнинг кўтарилиши экинларнинг ўсиши ва ҳосилдорлиги учун асосий чекловчи омиллардан бири бўлиб, шу сабабли ҳосил салмоғига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Юқори ҳароратда пахтанинг гуллаши ва ўсиши кунлари қисқароқ бўлади. Июль охири - август ойи бошидаги иссиқлик стресси вегетатив ўсишни кечикишига, кўсак катталиги ва уруғлар сонининг камайишига олиб келиши мумкин. Ушбу шарҳ нафақат ғўзага иссиқликнинг таъсир қилиши бўйича мавжуд тадқиқот натижаларига ойдинлик киритибгина қолмай, балки бардошлиликни таъминловчи генотипик турлича ва морфологик хусусиятларга ҳам эътибор қаратмоқда. Барқарорлик учун баъзи асосий элементларга урғу бериб, иссиқлик стрессини камайтириш стратегиясига эътибор қаратилади. Шунингдек, у абцизин кислота (АБК) нинг сигнал бериш ролини тавсифлаб, экинларга ноқулай экологик шароитларга бардош беришга ёрдам беради [5].

Иқлим ўзгариши дунёнинг кўплаб мамлакатларида ҳаддан ташқари экстремал ҳароратга олиб келди. Ҳарорат стресси, энг муҳими, юқори ҳарорат ғўзанинг ўсиши ва ҳосилдорлигига салбий таъсир қилади. Ҳароратга чидамли навларни кўпайтириш экстремал ҳарорат шароитида яхши ҳосил олишнинг барқарор ва арзон усули бўлади. Иқлим ўзгариши дунёнинг кўплаб

мамлакатларида экстремал омилларнинг кучайишига сабаб бўлмоқда. Ҳарорат стресси, энг муҳими, юқори ҳарорат ғўзанинг ўсиши ва ҳосилдорлигига юқори таъсир қилади. Стресс омилларга чидамли навларни кўпайтириш ноқулай шароитда яхши ҳосил олишнинг барқарор ва арзон усулларини яратишни тақоза этади. Глобал иқлимнинг тобора кўпайиб бораётган ўзгарувчанлиги туфайли бутун дунёда пахта етиштиришга таҳдид солмоқда. Ушбу стресслар туфайли экинлар ҳосилдорлигининг 50% дан кўпроқ пасайиши бутун дунёда қайд этилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Monica Boscaiu, Ana Fita. Physiological and Molecular Characterization of Crop Resistance to Abiotic Stresses// Agronomy. 2020. -10.- P. 1308-1387.

2. Fedoroff N.V., Battisti D.S, Beachy R.N, Cooper P.J, Fischhoff D.A., Hodges C.N., Knauf V.C., Lobell D., Mazur B.J., Molden D. Radically rethinking agriculture for the 21st century// Science 2010. 3-27. -P. 833–834.

3. Fita A., Rodriguez-Burruezo A., Boscaiu M., Prohens J., Vicente O. Breeding and domesticating crops adapted to drought and salinity: A new paradigm for increasing food production//Front.Plant Sci. 2015.-6(273). -P. 978.

4.Gull A., Lone A.A., Islam Wani N.U. Biotic and abiotic stresses in plants. In Abiotic and Biotic Stress in Plants; de Oliveira, A.B. Ed.; Intech Open: London, UK, 2019.-P. 174.

5. Solomon S. (2007). “Contribution of working group I contribution to the fourth assessment report of the IPCC,” in Climate Change 2007-The Physical Science Basis, eds Solomon S., Qin D., Manning M., Chen Z., Marquis M., Averyt K. B.et al. (Cambridge, NY: Cambridge University Press;).-P.1-17.

БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

Худайев Исмайил Жумақулович
“ТИҚХММИ” МТУ Бух ТРБИ техника фанлари доктори, профессор.
Тожиев Шерзод Мирзохид ўғли
“ТИҚХММИ” МТУ Бух ТРБИ Сув тежамкор суғориш технологиялари йўналиши магистранти

Анатация: Мақолада боғ ва узумзорларда ташкил этилган томчилатиб суғориш технологиясини жорий қилинган экинларда сув сарфини 20-60 % гача, минерал ўғитларни 50 % гача хамда ёқилғи мойлаш материалларини 30 % гача иқтисод қилишга эришиш мумкинлиги баён этилган. Бундан ташқари, суғориш режими ўсимликнинг сувга бўлган талабига мос бўлади ва ортиқча сув берилмайди, тупроқдан сув кам буғланиши билан бир қаторда сув дала бўйлаб тарқалиб кетмайди, даланинг фақат экин илдизи атрофидаги қисмигина намланади натижада сувни тупроққа шимилиши камлиги учун ер ости сувлари сатҳи кўтарилиб кетмайди.

Калит сўзлар: сув ресурслари, томчилатиб суғориш, ҳосилдорлик, сув танқислиги, илдиз қатлам.

Сув манбаларидан олинаётган сув ресурсларининг 90 фоизидан ортиқ қисми қишлоқ хўжалигида фойдаланилиб, бу биринчи галда аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида қишлоқ хўжалик экинларини етиштиришда ишлатилмоқда [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги (2017-2021йил) Фармони, 2017 йил 27 ноябрдаги ПҚ-3405-сон «2018-2019 йиллар даврида ирригацияни ривожлантириш ва суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш давлат дастури тўғрисида»ги Қарори, 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони «Пахта хомашёсини этиштиришда томчилатиб суғориш технологияларидан кэнг фойдаланиш учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 2 февралдаги 74-сон «2018 йилда экин майдонларини кафолатли сув билан таъминлаш ва сув танқислигини салбий оқибатларини олдини олишга қаратилган кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори, 2022

йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида”ги хамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий хужжатларда қабул қилинди.

Томчилатиб суғориш тизими ўсимликнинг сувга бўлган эҳтиёжига тенг миқдордаги сувни зарур муддатда унинг илдиз қатламига етказиб беришга мўлжалланган босимли суғориш тармоғидир.

Томчилатиб суғоришнинг ўзига хослиги шундаки

- илдизлар тўппак бўлиб ўсади;
- ўсимлик илдизини чуқурга юбормайди;
- сув ва ўғитларни етказиб бериш осонлашади;
- ўсимликнинг сув ва ўғитни тупроқдан олиши осонлашади;
- томчилатиб суғоришда дала эмас, етиштирилаётган экин суғорилади;
- даланинг фақат экин илдизи атрофидаги қисмигина намланади;

Натижада эса

- далада бегона ўт кам ўсади;
- бегона ўтга қарши тадбирлар ҳаражатлари камаяди;
- техникани далага кириб чиқиши осонлашади;

Томчилатиб суғориш технология жорий қилинганда экин турларидан олинган ҳосилдорлик

- Пахта - 50-55 ц/га
- Маккажўхори - 120-130 т/га (кўк поя)
- Маккажўхори - 25-32 т/га (дон)
- Помидор - 130-140 т/га (очиқ ерда)
- Помидор - 500 т/га гача (иссиқхонада)
- Узум - 5,0 т/га
- Олма - 60 т/га
- Картошка - 45 т/га эришилади [2].

Томчилатиб суғорилганда бошқа суғориш усулларига нисбатан экин ва тупроқ турига қараб 20 % дан 60 % гача сув тежалади, томчилатиб суғорилганда моддий ресурслар сарфи ва қўл меҳнати камаяди, ўғит сув билан бирга берилганлиги боис, ўғитлаш учун техника ишлатилмайди. Натижада ёнилғи мойлаш материаллари тежалади. [3].

Томчилатиб суғоришнинг экинларга таъсири ва уларнинг ўсиши ҳамда ҳосилдорлигига таъсир ўтказувчи яна бир қатор афзалликлари яни:

- сув ва озуқа экин майдони бўйича бир текис тақсимланади;
- экин бир хил ривожланади ва ҳосили бир вақтда пишади;
- бир хил эрта пишган ҳосилни йиғиб олиш осонлашади;
- экин даласини ярми қуруқ бўлиши сабзавотлар ҳосилини бемалол териб олишга имкон яратади;

- далада сув оқмаганлиги боис тупроқ эрозияси йўқ;
- сувни тупроққа шимилиши камлиги учун ер ости сувлари сатҳи кўтарилиб кетмайди;
- тупроқ шўрланмайди;
- кичик дебетли қудуқ ва булоқлар суви билан катта майдонлар суғорилади.

Сув ресурсларига бўлган талабнинг ошиб бориши, кутиладиган сув танқислигини салбий оқибатларини юмшатиш, экин турларидан юқори ҳосил олиш ва озиқ-овқат дастурларини бажариш мақсадида ҳозирги кунга келиб сув ресурсларидан самарали ва оқилона фойдаланишни давр тақозо қилмоқда. Айниқса, сув ресурсларисиз қишлоқ хўжалиги ривожлана олмаслигини инобатга олган ҳолда, сувни кам сарфлаган ҳолда деҳқончиликдан юқори ҳосил олиш борасида асрлар давомида изланишлар олиб борилган. Ҳозирги кунга келиб, олимларимиз томонидан кўп йиллардан буён сув ресурсларини тежаш орқали суғоришнинг янги илғор технологияларини яратиш борасида бир қатор изланишлар олиб борилиб, амалиётда қўллаш натижасида юқори натижаларга эришилаётганлигига гувоҳ бўлинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Аму-Бухоро ИТХБ маьлумотлари
2. Ҳамидов М.Ҳ., Шукурлаев Х.И., Маматалиев А.Б. “Қишлоқ хўжалиги гидротехника мелиорацияси”. Шарқ., Тошкент-2008.
3. Рахимбоев Ф.М., Шукуруллаев Х.И. ва бошқалар. “Қишлоқ хўжалигида суғориш мелиорцияси” Тошкент. “Меҳнат” 1994 й.
4. Капельное орошение, /http://www.drip.agrodepartament.ru.
5. Капельное орошение. /http://www.yug-poliv.ru.

РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА ГРАВИРОВКИ И РЕЗЬБЫ ПОГАНЧУ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ШКОЛЫ

Шарипова Наргиза
экскурсовод ансамбля Регистан

Аннотация: В данной статье рассматривается история развития искусства гравировки и резьбы поганчу в нашей стране и формирования видов, относящихся к разным регионам нашей Республики, а также особенности разных регионов и мастеров, внесших свой вклад в их создание.

Ключевые слова: Гравюра, узоры, искусство, художественность, памятники, украшение, мавзолей, ганч, резьба, резные ганчи, архитектура, геометрические узоры.

Гравюра и резьбы поганчу – древнее искусство, получившее развитие в странах Востока, особенно в Средней Азии, Иране, Турции, Аравии, Афганистане и других странах. Особенно отличаются произведения, созданные в Средней Азии, по художественности, композиции и стилю разработки. Многим памятникам в Узбекистане красоту и изящество придают ганчские узоры. Его использовали при строительстве и отделке исторических памятников в Самарканде, Бухаре, Ташкенте, Кокане, Маргилоне, Хиве, Шахрисабзе и других городах.

Эти два вида искусства составляют основу архитектурно-декоративного искусства Узбекистана. К 20 веку их главными центрами стали такие города, как Бухара, Самарканд, Хива, Ташкент, Андижан, Наманган, Кокан. Искусство гравировки и резьбы поганчу более тесно связано с искусством архитектуры, чем другие виды народно-декоративного искусства. Ведь гравировка и резьбы поганчу украшали дворцы, здания мечетей и медресе, мавзолей, а также дома богатых горожан. Изначально постройки были тесно связаны с традициями местных школ. Древняя резьба по ганчу объемна и выполнена на основе различных изображений. В них часто используются изображения людей, животных и птиц.

Уже в первые века нашей эры люди узнали, что гравировка и резьбы поганчу обладает чудесными свойствами и стали украшать им караван-сарай и другие места. В Варахше найдены образцы резьбы по ганчу VII-VIII вв. На них изображены птицы, животные, рыбы, растительные и геометрические фигуры. В X-XI вв. получили дальнейшее развитие живопись, резьба по дереву, камню, ганчу. Появились узоры, отражающие сложный абстрактный образ.

Со временем живопись, резьба по дереву и ганчу стали более совершенными. Появились узоры со сложными изображениями. Работы по резьбе по ганчу применялись и во внешней части дома, не затронутой внутренней отделкой. В начале 20 века техника рельефной гравировки была очень мягкой. Стали использоваться цветные чернила, краски, узоры и изображения.

В то же время в Узбекистане стали появляться уникальные школы гравировки и резьбы поганчу. Ярким примером тому является технический процесс бухарской школы гравировки, несколько сложный, отличающийся своеобразием стилей и разнообразием обработки. Стили работы самаркандских мастеров близки к бухарскому гравировке, а верхние углы стен отличаются отделкой резными панелями через сталактитовый стиль сложного узора. Для сравнения: Еще одной особенностью самаркандской школы гравюры и резьбы по ганчу является то, что здесь не так много растительных композиций, распространенных в ташкентской школе. Такие композиции близки работам ферганских мастеров и нередко образуют узоры серии «растительная цепочка».

Работы коканских и хорезмских мастеров гравировки богаты сложными геометрическими узорами. Например, в архитектуре Хорезма широкое место отводится геометрическим узорам, и они уникальны по сравнению с другими регионами. В частности, растительные узоры отличаются своей спиралевидной и динамичной природой. Исламские узоры часто образованы повторением форм лимона, мадохила, перца и миндалевидных танобов. В некоторых случаях вместо оранжевых и мадохильских танобов используются также звездчатые гирихи. В исламских мотивах много используются ветки, а также маргула, листья, три листа, хризантема, лунный цветок, цветок гороха, бутоны. Одним из наиболее характерных аспектов хивинского гравировки является свобода и подвижность узоров. Мастера этой школы часто украшали узоры синей и зеленой краской.

Как было сказано выше, приемы работы самаркандских мастеров близки к бухарским мастеров гравировки, причем особое значение имеют размер, мягкость и привлекательность резных узоров. Можно перечислить представителей самаркандской школы гравировки и резьбы поганчу искусства: мастера Анвара Гулиев, Турсунбой Исмаилов, Шамсиддин Гофуров, Кули Джалилов и ряд крупных мастеров.

Из вышеизложенного можно сделать вывод, что история и развитие искусства гравюры и резьбы по ганчу в Узбекистане началась в далеком прошлом и является одним из видов искусства, который продолжается и совершенствуется, значит, необходимо провести глубокие исследования в этом отношении, чтобы широко использовать их при строительстве и отделке современных зданий.

ЎСИМЛИКЛАР ШЎРГА ЧИДАМЛИЛИГИНИНГ ФИЗИОЛОГИК АСОСЛАРИ

Рўзиева Навбаҳор
Биология (турлар бўйича) мутахассислигининг
1-босқич магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада тупроқ шўрланиши ва ўсимликларга шўрланиш таъсирининг назарий ва амалий жаҳатлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: шўрланиш, шўрга чидамлилик, шўртоб тупроқлар, галофитлар, гликофитлар, маданий ўсимликлар, ғўза.

Дунёда пахтачилик халқ хўжалигининг этакчи тармоқларидан бири бўлиб, пахта хом ашёсидан юзга яқин кенг истеъмол моллари тайёрланади. Шунинг учун ҳам пахта хомашёсига бўлган талаб мамлакатимиз ва хорижда йилдан-йилга ошиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида ялпи ҳосил ва унинг сифатини оширишни талаб этади.

Дунёда кузатилаётган глобал экологик иқлим ўзгаришлари шўрланиш, қурғоқчилик ва ҳароратнинг кўтарилиши ҳамда иссиқ шамоллар ёз ойларида нисбий намликнинг кескин пасайишини келтириб чиқармоқда. Бу эса ўсимликларнинг ҳосилдорлигига таъсир кўрсатиб, улардан олинадиган даромаднинг қисқаришига сабаб бўлмоқда.

Маълумки, кейинги йилларда табиатда бўлаётган глобал экологик ўзгаришлар, ноқулай экологик омилларнинг кучайиб бораётганлиги, қишлоқ хўжалигига, хусусан пахтачиликка жуда катта зарар келтираётганлиги, фермер хўжаликлари даромадларининг кутилганидек бўлмаётганлиги ҳар бир вилоят тупроқ-иқлим шароитларига мос, ноқулай шароитларга чидамли, мослашувчан ўсимлик навларини яратиш, танлаш ва тўғри жойлаштириш ҳозирги куннинг долзарб вазифаси эканлигини кўрсатади.

Республиканинг жанубий ва қисман марказий минтақаларида июн, июл ва август ойларида содир бўладиган юқори иссиқ ҳароратнинг, баъзан чанг-тўзонли шамолларнинг пайдо бўлиши ўсимликларнинг сув ва озуқага бўлган талабчан критик даври, яъни гуллаш-ҳосил тўплаш босқичига тўғри келиши жуда кўп ҳосил элементлари нобуд бўлишига, ўсимликда морфо-физиологик ва биокимёвий жараёнларнинг кескин бузилишига олиб келади.

Бугунги кунда жойларда ерлардан оқилона ва самарали фойдаланиш, суғориладиган ерларнинг экологик ва мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича зарур чоралар кўрилмоқда, шунингдек, тупроқ, иқлим, ҳудуднинг ҳамда

экилаётган экиннинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда юқори ҳосилдорликни таъминловчи, тупроқ унумдорлигини оширишга хизмат қилувчи мелиоратив, агрокимёвий, агротехник тадбирлар тизими амалга оширилмоқда.

Бу борада салмоқли ижобий ишлар амалга оширилаётган бўлсада, Республикада суғориладиган ер майдонларининг аксариаят қисми турли даражада шўрланган.

Бу муаммоларни бартараф эта бориш ҳамда пахтачилигимизни янада равнақ топтириш учун фақат интенсив йўлдан бормоғимиз, яъни мавжуд экин майдонларидан олинаётган ҳосил ҳисобига ялпи ҳосил ва унинг сифатини оширишга эришмоғимиз лозим. Бунинг учун ғўзанинг морфологик ва биологик хусусиятларини шунингдек физиологик ва биокимёвий жараёнларни чуқур ўрганган ҳолда унга мос бўлган агротехника тадбирларини ишлаб чиқиш лозим.

Суғориладиган майдонларда ғўза навларидан юқори ва сифатли ҳосил олиш, муайян ҳудудларнинг тупроқ ва иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда янги раёнлаштирилган ғўза навларини ишлаб чиқаришга тадбиқ этган ҳолда, ноқулай абиотик омиллар шароитида ғўза навларининг сув алмашинуви ҳамда маҳсулдорлигини ўрганиш ва навларнинг ўзига хос адаптатсиясини илмий асослаш катта назарий ва амалий аҳамиятга эга.

Ноқулай экологик омиллар ғўза танасида кечадиган физиологик ва биокимёвий жараёнларга салбий таъсир қилади. Натижада ҳосил ва унинг сифати пасаяди. Шунинг учун ҳам бундай ноқулай омиллар таъсирига чидамли бўлган ғўза навларини тупроқ ва иқлим шароитларидан келиб чиққан ҳолда раёнлаштириш муҳим масалалардан биридир.

Ўз навбатида экологик иқлим ўзгаришлари натижасида кузатилаётган шўрланиш, қурғоқчилик ва ҳароратнинг кутарилиши қишлоқ хўжалик ўсимликлари, жумладан ғўза навларига салбий таъсири йилдан-йилга кучаймоқда. Ўсимликларнинг ноқулай абиотик омилларга чидамлилигининг экофизиологик жиҳатларини ҳар томонлама ўрганишни тақозо этмоқда.

Тупроқ шўрланишининг дастлабки салбий таъсири ғўза уруғларининг униши ва ўсишидан бошланади. Энг кучли салбий таъсир ғўзанинг гуллаш босқичида кузатилади. Тузларнинг салбий таъсири ғўзанинг сув балансини ўзгартиради ва ўсимликларни этарли даражада сув билан таъминлашини чеклайди. Натижада ўсимлик танасида кечадиган барча физиологик ҳамда биокимёвий жараёнлар секинлашади. Ўз навбатида шўрланиш таъсирида сув алмашинувининг бузилиши ғўзанинг маҳсулдорлигига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Ўсимликшуносликда ўсимликларнинг шўрга чидамлилик муаммосини ўрганиш катта назарий ва амалий аҳамиятга эга. Тупроқ шўрланишининг йилдан-йилга ошиб бориши қатор қишлоқ хўжалик ўсимликларидан юқори ва

сифатли ҳосил олишга салбий таъсир кўрсатмоқда. Шўр тупроқлар иссиқ ва қуруқ иқлимли зоналарда кенг тарқалган бўлиб, ер шаридаги қуруқликнинг деярли 25 % ни ташкил этади [1].

Ўсимликлар тупроқнинг шўрланиши муносабатига нисбатан иккита асосий гуруҳга галофитлар ва гликофитларга бўлинади. Шўрхок ерларда ўсадиган, ўз онтогенези жараёнида яшаш шароити таъсирида эволюсия жараёнида пайдо бўладиган белги ва хоссалари туфайли, тупроқнинг юқори даражада шўрхоклигига мослашган ўсимликлар галофитлар деб аталади. Шўрхок бўлмаган шароитда ўсиб, индивидуал ривожланиш жараёнида шўрланишга нисбатан кам мослашган ўсимликлар гликофитлар деб аталади, чунки эволюсия жараёнида уларнинг яшаш шароити бундай хусусиятни ҳосил қилишга қулайлик туғдирмаган. Ўсимликларнинг тузга чидамлилиги масаласи кўпчилик тадқиқотчиларнинг диққатини ўзига тортади. Бу масалани ҳал қилиш ўсимликларнинг тузга чидамлилигини ва унга тупроқ таркибида кўп миқдорда бўладиган сувда эрийдиган тузларнинг таъсирини аниқлашдан иборат[2].

Туз миқдорига ва унинг қатламларда тарқалишига кўра шўр тупроқлар шўртоб ва шўрхок тупроқларга бўлинади. Шўртоб тупроқларда тузлар тупроқнинг пастки қисмларида (80 см) тўпланади. Бу типдаги тупроқларда уларнинг устки қаватида туз бўлмасада, у структурасиз бўлганлигидан, намлантирилганида тупроқнинг ёпишқоқлиги кучайиб, ўзидан сув ва ҳавони ўтказмайдиган ҳолатга келади. Қуриган шўртоб тупроқларнинг ер устки қатлами қотиб, айрим бўлакларга бўлиниб кетганлиги қуруқ дашт ва ярим чўлларда кузатилади. Таркибида 1-3% гача туз сақлаган тупроқлар шўрхок тупроқлар дейилади. Шўрхок тупроқларда маданий ўсимликлар ўсиб ривожланмайди. Шўрхок тупроқларда тузлар тупроқнинг устки қатламларида қаттиқ ёки юмшоқ қават бўлиб тўпланади [3].

Лавлаги ва кунгабоқар ўсимликлари помидор, карам, пиёз ва бодрингга нисбатан шўрга анча чидамли ҳисобланади. Мевали дарахтлардан жийда, бодом, ўрик, олхўри ва нок таркибида 2-3% туз сақланган шўрхок тупроқларда, тут ва олма дарахтлари кучли шўрланган тупроқларда (1,2-2% туз) ривожланса, маймунжон, Кавказ хурмоси ва айниқса жануб хурмоси кам шўрланган тупроқларда ўсади [4].

Шўрга чидамлилик ўсимликларнинг ривожланиш босқичларига кўра ўзгарувчандир. Ёш ўсимликлар шўрга чидамсиз бўлади, айниқса, гуллаш босқичида ўсимликларга туз салбий таъсир этади. Улар туз таъсирига сезгир бўлиши туфайли заиф ўсади, ўсимлик ўсган сари унинг шўрга чидамлилиги орта боради. Тупроқда тузларнинг ортиқча тўпланиши кўпчилик маданий ўсимликлар учун зарарли бўлади. Шўрхок ерларда галофитлар деб аталадиган шўрга чидамли ўсимликлар ўсади. Улар ўзларининг бир қанча анатомик ва физиологик

белгилари билан бошқа ўсимликлардан фарқ қилади [5].Тупроқнинг ортиқча шўр бўлиши ўсимликлар учун икки томондан зарарли ҳисобланади. Бир томондан тузларнинг тўпланиши тупроқ эритмасининг осмотик босимини оширади. Бу босим илдизларнинг шимиш ҳаракатига тўсқинлик қилиб, ўсимликларнинг сув билан таъминланишини қийинлаштиради. Шу билан бирга тупроқда эрувчи тузларнинг ортиқча тўпланиши, осмотик таъсирдан ташқари, ўсимликларга заҳарли таъсирини ҳам кўрсатади. Ҳатто кучсиз консентратсияларда нейтрал бўлган тузлар ҳам қуюқ консентратсияларда заҳарли бўлади [6].

Улар физиологик жараёнларнинг нормал боришини бузади. Бундай тузларга мисол қилиб шўр тупроқларда тарқалган натрий сулфатни кўрсатиш мумкин. Шўр тупроқларда кўпинча мувозанатга келган эритмалар бўлса ҳам, жуда кучли консентратсияда уларнинг заҳарли таъсири жуда аниқ билинади. Шу билан бирга ҳар хил ўсимликлар бу таъсирга турлича чидамлилик қобилиятига эгадир. Маданий ўсимликлар ўртасида чинакам галофитлар учрамайди, (шунингдек, чинакам ксерофитлар ҳам учрамайди). Улар орасида кўпроқ ёки озроқ даражада чидамли шаклларни ва ўсимликларнигина фарқ қилишимиз мумкин. Масалан, ғўза, беда, лавлаги, помидор ва тарвузларнинг шўрга чидамлилиги юқори бўлиб, улар тўқималарида эрувчан тузларнинг бир қадар тўпланишига чидайдилар. Юмшоқ буғдойлар қаттиқларига кўра шўрга чидамлироқ бўлади. Зиғир, сули, гречиха, маккажўхори шўрга жуда оз чидамли бўлади. Бир хил экин ичида шўрга кўпроқ ва озроқ чидамли навлари бўлиши мумкин [7].

Маълумки, кўпчилик экинлар учун тупроқда хлорнинг 0,2% дан ва тез эрийдиган тузларнинг 0,3 % дан кўп бўлишига йўл қўйиб бўлмайди. Тупроқ таркибидаги тузнинг миқдори 0,5 % дан ошганда ўсимликларни экиш унчалик мақсадга мувофиқ эмас. Агар тупроқ таркибида тузлар миқдори 0,2-0,5 % атрофида бўлса, маданий ўсимликларни экиш тавсия қилинади, лекин ҳосилдорлик нисбатан паст бўлади. Бундай тупроқлар ўртача шўрланган бўлади. Тузлар миқдори 0,1-0,2% бўлса, ўсимликларни экиб улардан юқори ҳосил олиш мумкин ва бундай тупроқлар шўрланган ҳисобланмайди [8].

Ғўза навларининг шўрга чидамлилигига тупроқнинг механик таркиби, вегетатсия давомида тупроқдаги намлик даражаси, иқлим, микрорелеф ва бошқа омиллар таъсир қилади. Ўсимликларнинг шўрга чидамлилиги уларнинг биологик хусусиятларига боғлиқ ҳолда ўзгариб туради. Баъзи бир ўсимликларда уларнинг шўрга чидамлилиги юқори, лекин маҳсулдорлиги паст бўлади, бошқаларида нисбатан юқори бўлади. Қишлоқ хўжалиги учун ўсимликларнинг шўрга нисбатан чидамлилиги ва айни пайтда маҳсулдорлиги ҳам юқори бўлган навлар қимматбаҳо ҳисобланади.

Тупроғи шўрланган ҳудудларда пахтачиликни ривожлантириш анча қийинчиликлар туғдиради. Тупроқ шўрланиш даражасининг ошиши аввало ғўза уруғларининг униб чиқишига, ўсиш ва ривожланишига салбий таъсир қилади. Бунда ғўза ўсимлигида кечадиган барча физиологик жараёнлар, жумладан сув баланси, минерал озиқларнинг ўзлаштирилиши, фотосинтез ва бошқалар кескин ўзгаради. Натижада ғўзанинг умумий фотосинтетик маҳсулдорлиги, жумладан биологик ва хўжалик ҳосилининг салмоғи камаяди, сифати ёмонлашади.

Юқорида келтирилган илмий манбалардаги маълумотларга қараганда тупроғи ҳар хил даражада шўрланган шароитда, айниқса кейинги йилларда янги раёнлаштирилган ғўза навларининг сув алмашинув хусусиятлари, ҳосилдорлик даражалари ҳамда навларнинг тупроқ шўрланишига нисбатан мосланиш ва ҳимоявий хоссаларини ўрганиш асосида уларни тупроғи турли даражада шўрланган ва қурғоқчил ҳудудларга экиш учун тавсиялар ишлаб чиқиш бугунги кундаги ечимини кутаётган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Балнокин Ю.В., Мясоедов Н.А., Шамсутдинов З.Ш., Шамсутдинов Н.З. Роль Na^+ и K^+ в поддержании оводненности тканей органов у галофитов сем. *Chenopodiaceae* различных экологических групп// Физиология растений. – Москва. 2005. - №6 (52). - С. 882-890.

2. Усманов И.У., Рахманкулова З.Ф., Кулагин А.У. Экологическая физиология растений. - М.: Лотос, 2001. – 224 с.

3. Лархер В. Экология растений. - М.:Мир, 1978. – 188 с.

4. Полевой В.В. Физиология растений. -М.: Высшая школа, 1989.- 464 с.

5. Flowers T.J. Improving Crop Salt Tolerance//J.Exp. Bot. 2004. - V. 55. - P. 307-319.

6. Blumwald E. Sodium Transport and Salt Tolerance in Plants// Curr. Opin. Cell Biol. 2000. - V. 12. - P. 431-434.

7.Балнокин Yu.B., Котов А.А., Мясоедов Н.А. Участие дальнего транспорта Na^+ в формировании градиента водного потенциала в системе среда-корен-лист у галофита *Snaeda altissima*//Физиология растений. – Москва. 2005. - №3 (52). С. 549-557.

8. Пулатов Н. Особенности возделывания хлопчатника на засоленных почвах. – Ташкент: Фан, 1981. – 69 с.

SCRUM: ГИБКИЙ ПОДХОД К УПРАВЛЕНИЮ ПРОЕКТАМИ СФЕРА ТУРИЗМА

Урокова Дильфуза Бахриддиновна
Бухарский государственный университет
Кафедра туризма и гостиничного хозяйство (PhD)
u.dilfuza1985@gmail.com +998914407049
Акрамова Насибабону Абдурахмоновна
Туризм (по сферам деятельности), 2-курс магистрант БухГУ
n.a.akramova@buxdu.uz +998936524518

Аннотаиция: В этом статье описывается опыт пилотирования гибких практик (точнее, практик SCRUM) в двух проектах в рамках глобальной компании, в которых водопад является стандартным жизненным циклом. Представляется проблемы, с которыми столкнулись проектные команды, а также сильные стороны и практические рекомендации.

Ключевое слово: проект, кросс функциональных, циклы, Scrum, структура, государственном управлении, переходной экономика, проект, проектного управления, реализации.

Scrum — одна из самых популярных методологий Agile. Это адаптивная, итеративная, быстрая, гибкая и эффективная методология, предназначенная для быстрого получения значительных результатов в рамках всего проекта. Scrum обеспечивает прозрачность коммуникации и создает среду коллективной ответственности и непрерывного прогресса. Структура Scrum, структурирована таким образом, что она поддерживает разработку продуктов и услуг во всех типах отраслей и в любом типе проекта, независимо от его сложности.

Ключевая сила Scrum заключается в использовании кросс-функциональных, само организованных и наделенных полномочиями команд, которые делят свою работу на короткие, концентрированные рабочие циклы, называемые спринтами.

Аспекты Scrum в туризме должны рассматриваться и управляться на протяжении всего Scrum-проекта. Пять аспектов Scrum:

1. Организация. Этот аспект фокусируется на различных аспектах организации проекта Scrum, а также на основных и дополнительных ролях и на том, как формировать высокопроизводительные команды Scrum.

2. Бизнес-обоснование. Этот аспект фокусируется на концепции и цели бизнес-обоснования применительно к проектам Scrum.

3. Качество. Этот аспект фокусируется на определении качества применительно к проектам и представлении подхода Scrum для достижения требуемого уровня качества.

4. Изменение. Этот аспект фокусируется на важности изменений в любом проекте, независимо от его метода или структуры, и расширяет то, как процессы разработки Scrum спроектированы с учетом изменений.

5. Риск. Этот аспект фокусируется на управлении рисками в среде Scrum, рассматривая различные инструменты, облегчающие управление рисками.

1. Организация.

Понимание определенных ролей и обязанностей очень важно для обеспечения успешной реализации проектов Scrum.

Роли Scrum делятся на две большие категории:

1. Основные роли. Основные роли — это те роли, которые в обязательном порядке необходимы для производства продукта проекта, привержены проекту и, в конечном счете, несут ответственность за успех каждого спринта проекта и проекта в целом.

Эти роли включают в себя:

Владелец продукта. Владелец продукта — это лицо, ответственное за максимизацию бизнес-ценности проекта. Он или она отвечает за формулирование требований клиентов и поддержание бизнес-обоснования проекта. Владелец продукта представляет голос клиента.

Скрам-мастер. Скрам-мастер — это фасилитатор, который следит за тем, чтобы Скрам-команде была предоставлена среда, способствующая успешному завершению разработки продукта. Скрам-мастер направляет, помогает и обучает практикам Скрама всех, кто участвует в проекте; устраняет препятствия для команды; и обеспечивает соблюдение процессов Scrum.

Скрам-команда. Скрам-команда — это группа или команда людей, которые несут ответственность за понимание бизнес-требований, указанных владельцем продукта, оценку пользовательских историй и окончательное создание результатов проекта.

2. Неосновные роли. Неосновные роли — это те роли, которые не являются обязательными для проекта Scrum и могут не быть постоянно или напрямую вовлечены в процесс Scrum. Однако важно понимать неосновные роли, поскольку они играют значительную роль в некоторых проектах Scrum.

К непрофильным ролям относятся следующие:

•Заинтересованные стороны бизнеса — это собирательный термин, который включает клиентов, пользователей и спонсоров, которые часто взаимодействуют с владельцем продукта, скрам-мастером и скрам-командой, чтобы предоставить им входные данные и облегчить создание продукта, услуги

или другого результата проекта. Заинтересованные стороны бизнеса влияют на проект на протяжении всего его развития.

•Вспомогательные службы — это внутренние или внешние группы, которые поддерживают или на которые влияет проект Scrum, например, обучение, логистика, маркетинг, финансы, инфраструктура и т. д.

•Поставщики. К поставщикам относятся внешние лица или организации, которые предоставляют продукты и услуги, не входящие в основную компетенцию проектной организации.

•Scrum Guidance Body — необязательная роль, но настоятельно рекомендуется для формализации организационных практик, связанных со Scrum. Руководящий орган Scrum обычно состоит из группы документов и/или группы экспертов, которые обычно участвуют в определении целей, связанных с качеством, государственными постановлениями, безопасностью и другими ключевыми организационными параметрами.




Рисунок 1.1.1. Организационная структура Scrum

2. Бизнес-обоснование.

O‘smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o‘smirlik 11-13 yoshni, katta o‘smirlik - 14 - 15 yoshlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim hislati shundan iboratki, u bolalikdan o‘spirinlik, kattalikka, yoshlikdan etuklikka o‘tish davridir. O‘smirlik - organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro‘y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo‘lib, bu ham bola fe’lining o‘zgaruvchan, dinamik va ba’zan noma’qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta asab tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, bola tezga achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin. **[1]**

Maktab ta’limining bevosita ta’siri bilan o‘smirda uzini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o‘zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o‘z mulohazasiga ega bo‘lishi uchun harakat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtay nazardan qaraydi. Ko‘pincha o‘qituvchining mulohazasidan,darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o‘z gapida turib, ayrim fikrlarga qat’iy e’tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyil bo‘ladi. Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o‘qituvchi bilan uquvchi o‘rtasida “anglashilmovchilik g‘ovi” ni vujudga keltiradi. Aqlning «tanqidiyligi» o‘smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u o‘zgalar fikrini turli bahonalar, sabablar bilan yo‘qqa chiqarishga qaratilgan bo‘ladi.

Tafakkurning mustaqilligi inson uchun juda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda, har kanday og‘ir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan bu xislatni qullab-quvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. SHuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, dastlabki davrda o‘smirning nuqtai nazarini, mulohazalaridagi xatolarini, muvaffaqiyatsizliklarini yomonlash, uni izza qilish, izzat-nafsiga tegish, masxaralash mutlaqo mumkin emas. Aks holda o‘smir

aqlining ajoyib sifati barbod bo‘ladi va uning o‘zi jamiyat hamda tabiat qonunlariga, holatlariga befarq qaraydigan shaxsga aylanib qoladi. **[2]**

Qanday qilib o‘smirlar tafakkurini shaklllantirsa bo‘ladi?

O‘qituvchi tafakkurni to‘g‘ri rivojlantirish uchun har bir imkoniyatni to‘la ishga solishi lozim: 1) o‘smirlarni to‘g‘ri ta’rif berishga, analiz qilishga, taqqoslashga, abstraktsiyalash va umumlashtirishga o‘rgatishi shart; 2) o‘z fikrini to‘g‘ri, ravon va aniq izhor etish yo‘lini tushuntirishi; 3) mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish kabi fikr yuritish shakllari ularda aqliy ko‘nikma va malakalarni o‘stiradi va oqibat natijada rivojlanish amalga oshiriladi.

YUqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo o‘smirlar oldiga turli-tuman ob’ektlarni mustaqil taqqoslash, ulardagi o‘xshash va tafovutni topish zaruriyatini qo‘yish shart. Buning uchun o‘smirlar diqqatini ushbu savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Bu holatda qanday umumiylik mavjud?”, “Ushbu narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir-birlaridan farq qiladi?”, “Mazkur narsalar va hodisalar o‘rtasida qanday o‘xshashlik belgisi bor?” va boshqalar.

Biologiya fanlarida o‘quvchilarga mox (yo‘sin) bilan suv o‘tini, zamburug‘ning poyasi bilan ildiz sistemasini taqqoslashni tavsiya etib, poyaning ildizdan, sporaning urug‘dan nimasi bilan farqlanishini aniqlash kabi vazifalar berish foydalidir. Ushbu natijalar psixolog E.M.Kudryavtseva tadqiqotlaridan bir namuna sifatida keltirib o‘tildi, xolos. Boshqa fanlar bo‘yicha ham xuddi shunga o‘xshash topshiriqlar berish mumkin: “Romb bilan kvadratni taqqoslang”, “Ravishdoshdan sifatdoshni qanday ajratsa bo‘ladi?”, “Kislorod bilan vodorodni solishtiring”, “Bir had ko‘p haddan qaysi tomonlari bilan farq qiladi?”, “Quldorlik tuzumi bilan feodal tuzumi o‘rtasida qanday o‘xshashlik va tafovutli jihatlari mavjud?”, “Tog‘ daryolari va pasttekislik daryolari o‘rtasida qanday o‘xshashliklar ko‘zga tashlanadi?” va hokazo.

Psixolog V.A.Krutetskiy o‘smir tafakkurining mustaqilligini faollashtirish maqsadida yangi o‘quv materialini evristik yo‘l bilan o‘zlashtirish foydali ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Muallif muammoli-evristik metodning birin-ketin, ya’ni tadrijiy uch bosqichdan iboratligidan xabar beradi. Birinchi bosqichda o‘qituvchi tinglovchilar oldiga muammo qo‘yadi va uning ta’rifini aytib o‘tadi, o‘quvchilar esa muammoni echish uchun mustaqil yo‘l-yo‘riq qidiradilar. Ikkinchi bosqichda esa, o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoni mustaqil ta’riflash vazifasini qo‘yadi, lekin uni echishga yo‘llanma beradi. Uchinchi bosqichda bo‘lsa, o‘qituvchi muammoga ishora qilmaydi, balki o‘quvchilarni muammoni mustaqil analiz qilib chiqish, undan so‘ng ta’riflash, echish usullari va imkoniyatlarini qidirib topishga o‘rgatadi.

V.A.Krutetskiy tadqiqotidan ushbu misolni keltirib o‘tishni lozim deb topdik: Teorema, - “Uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi *2d* ga teng”. Birinchi bosqich. O‘qituvchi deydi: “Har qanday uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi 180 gradusga teng. O‘ylab ko‘ring, qanday qilib bu teoremani isbot qilish mumkin?”.

Ikkinchi bosqich. O‘qituvchi: “Uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi nimaga teng ekanligini isbotlashga va aniqlashga harakat qilib ko‘ring. Bu o‘lchov doimiy bo‘lishi mumkinmi?”. Uchinchi bosqich. O‘qituvchi: “Uchburchak xossasini qidirib toping. Bu shaklning qaysi xossasini bilish zarur va qaysi biri qiziqarli?”. O‘quvchi taxminan mana bunday javob berishi mumkin: “Ichki burchaklar to‘g‘risida tasavvur qilish juda qiziqarlidir. SHuningdek, burchaklarning turli hajmda, doimiy o‘lchov miqdoriga tengligi yoki teng emasligi to‘g‘risidagi fikr ham kam ahamiyatli emas”. **[3]**

Umuman olganda o‘smirlarning taffakurini har hil usullar bilan takomillashtirib borishning ahamiyati ularning maktablarda dars jarayonida tabiy va ijtimoiy hodisalarni to‘g‘ri tushunishi va konkret hulosalar chiqarishida yordam beradi va o‘zlarining qa’tiyatli fikr mulohazasiga ega bo‘lib boradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. V.M.Karimova, F.A.Akramova «Psixologiya»Toshkent-2005.
2. E.G‘oziev «YOsh davrlar psixologiyasi» Toshkent-1994.
3. Ergash G‘oziev Ontogenez psixologiyasi Toshkent - 2010

TURP O’SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
O‘zbekiston “TABOBAT” Akademiyasi raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, kimyo fanlari doktori, professor.
Mo‘minjonov Mirjalol Muqumjon o‘g‘li
O‘zbekiston “TABOBAT” Akademiyasi raisi o‘rinbosari, kimyo fanlari doktori (DSc)
Hoshimova Gulchiroy Oxunjon qizi
Andijon davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: Turp iste'mol qilinadi lekin barglari chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Barglari tarkibida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan ko‘plab kimyoviy elementlar va birikmalar mavjuddir. Mazkur maqolada mahalliy sharoitda yetishtirilgan turp bargi tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Turp o‘simligi, kaliy, kalsiy, fosfor, revmatizm,qandli diabet.

Turp o‘zining shifobaxsh xususiyati bilan boshqa sabzavotlardan ajralib turadi. Turp ildizmevasi minerallarga boy, o‘rtacha 13% quruq moddalar, taxminan 2% oqsil, 8,4% uglevodlar, C, B1, B2 vitaminlari, organik kislotalar, efir moylari va glyukozidlar saqlaydi. Turp tarkibida oltingugurt saqlovchi, fitonsid xususiyatiga ega bo’lgan moddalar metilmerkaptan, sinirin va boshqalar hamda kaliy, kalsiy, fosfor, temir va magniy kabi elementlar ham mavjuddir. Turp safro hosil bo‘lishini kuchaytiradi, ovqat hazm qilish bezlarining faoliyatini rag‘batlantiradi, ichak harakatini yaxshilaydi, antisklerotik xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar ichak atoniyasi, ich qotishi, xolesistit va xolelitiyoz bilan ishtahani oshirish uchun turpdan foydalanishga imkon beradi [2].

Buyuk tabobat ilmi asoschisi Abu Ali ibn Sinoning aytishicha “Turpdagi eng kuchli narsa– urug‘i, so‘ngra po‘sti, undan kegin bargi va nihoyat etidir. Bargi va bargining suvi sariq kasallikni yoqotadi, urug‘i esa qorindagi yelni tarqatadi, ishtaxani oshiradi va jigar og‘rig‘ini yengillashtiradi” deb aytgan . Turpning nafaqat ildizmevasi foydali bo‘libgina qolmay, uning barglari, ildizlari va urug‘lari inson organizmida uchraydigan kasalliklarni davolash maqsadida ham ishlatiladi. Turp barglari odatda ozuqa mahsuloti sifatida ishlatilmaydi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, turp barglari antioksidant va antimikrob faolliklarga ega bo‘lgan mahsulotdir. Turp bargi tarkibidagi biologik faol moddalar tanani toksinlardan tozalashga yordam beradi. Turp bargi tarkibidagi ayrim birikmalar saraton kasalligida, jigarni viruslardan himoya qilishda, astma kabi bir qator kasalliklarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [2].

Turp ildizmevasi ozuqa mahsuloti sifatida keng qo‘llaniladi. Lekin barglari esa chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Koreya, Xitoy hamda Rossiyada turp barglaridan sabzavot sifatida foydalanishadi. Chunki turp bargi tarkibida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan oqsil, yog‘, uglevodlar, alkaloidlar, organik kislotalar, fenollar, efirlar, terpenlar, steroidlar va oltingugurli birikmalar hamda karotin, askorbin kislotasi, makro- va mikroelementlar (Fe, K, Ca, Mg, Zn, Na) mavjuddir [3].

Turp barglarida ko'plab vitaminlar va mikroelementlar mavjud. Avvalo, bu B vitaminlari:

- riboflavin (0,04 mg);
- tiamin (0,01 mg);
- xolin (6,5 mg);
- piridoksin (0,1 mg);
- pantotenik kislota (0,18 mg);
- folatlar (6 mg).

Bundan tashqari, barglari quyidagilarga boy:

- yod tanqis bo'lgan mintaqalarimiz uchun juda muhim bo'lgan yod (8 mg);
- kaliy (255 mg);
- ftor (30 mg);
- temir (1 mg);
- xrom (11 mg);
- rux (0,2 mg).

Turp barglarining ozuqaviy qiymati juda past. 100 grammida atigi 20 kkal mavjud. Turp bargining kalloriyasi kam va yuqori tolaga ega. Bu xususiyati bilan ozishga yordam beradi [4].

Turp bargida temirning borligi sababli, charchoqni yo’qotish va kamqonlikni oldini olishga yordam beradi. Barg tarkibida kaliy, temir, C vitamin borligi sababli qon bosimini pasaytirish xususiyatiga ham ega. Bundan tashqari

- oqsil 1,2 gramm;
- yog '0,1 gramm;
- uglevodlar 3,4 gramm;
- organik kislotalar - 0,1 gramm;
- xun tolasi - 1,6 gramm.

Ushbu barglarning tarkibida juda ko'p shakar mavjud - 100 gramm bargida taxminan 3 gramm, bu ularni eyishni osonlashtiradi. Turp bargida turp 6 barobar ko’p miqdorda askorbin kislotasi mavjuddir[5].

Turp bargidan tayyorlangan damlamar qandli diabet, revmatizm va bavosil kabi kasalliklarni davolashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalq tabobatida turp barglari yordamida quyidagi kasalliklarni davolash bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilgan:

Gepatit, yoki xalq tilida sariq kasallik bilan og‘rigan odamlar turp barglarini maydalash va ekstraktini g‘ovakli mato orqali elakdan o‘tkazilishi kerak. O‘n kun davomida har kuni yarim litrdan ushbu sharbatni iste'mol qilish sariqlikdan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Qandli diabet hozirgi zamonning eng keng tarqalgan kasalliklaridan biridir. Turp barglari qonda glyukoza darajasini pasaytiradi va diabetning oldini oladi.

Revmatizm dunyodagi eng og‘riqli kasalliklardan biridir. Shakar va suvning teng miqdori bilan aralashtirilgan turp barglari ekstrakti yallig‘lanishga qarshi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pasta hosil qiladi. Ushbu pastadan muntazam foydalanish og‘riqni yengillashtiradi va shishishni kamaytiradi.

Bavosil, ya'ni gemorroyni davolashda quritilgan turp barglariga teng miqdorda shakar qo‘shiladi va suv bilan aralshtiriladi. Tayyor bo‘lgan aralshma biroz tindirilib iste'mol qilinishi mumkin.

Turp barglari siydik pufagidagi toshlarni eritish qobiliyatiga ega. Turpning ezilgan barglaridan olingan yangi yormalar jarohatlar va kuyishlarni davolashda ishlatiladi. Bundan tashqari ezilgan barglari qichishishni, shishishni yengillashtiradi va davolanishni tezlashtiradi.

Turp bargidan tayyorlangan infuziyalar xalq tabobatida yallig’lanishga qarshi ishlatiladi.

1 osh qoshiq maydalangan turp barglarini 250 ml li issiq suvda 1 soat qoldiring va suzib tashlang. So’ng kuniga 3 mahal ovqatdan so’ng ichish tavfsiya etiladi.

Adabiyotlar ro’yhati.

1. Abu Ali ibn Sino. “Tib qonunlari kitobi”, O‘zbekiston FA nashriyoti, Toshkent, 1960 y

2. I.R.Asqarov. Tabobat qomusi. Mumtoz so‘z. Toshkent – 2019. –1590 b.

3. I.R Asqarov. Sirli tabobat. –T.: fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2021. – B. 1084

4. https://uz.rancholaorquidea.com/3935-description-benefits-and-harms-of-radish-tops-applic.html

5. https://floraug.com.ua/poleznaya-informatsiya/29-makro-i-mikroelementy-ikh-znachenie-v-zhizni-rastenij

STEAM TA’LIMI O’QUVCHILARNING RIVOJLANISHINI TASHQI OLAM BILAN BEVOSITA BOG’LOVCHI VOSITA

Talipova Manzura
TDPU

Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma’no-mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqib, uni quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, yangi ta’lim tizimi, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o‘zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo‘lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog‘liqligidir; ikkinchidan, ta’lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keying bosqichga uzatadi; uchinchidan, ta’lim inson shaxsining intellektual-ma’naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga qaratilgan harakatlar yig‘indisi bo‘lib, ma’rifat hamda bilim berishni anglatadi; to‘rtinchidan, fan jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli. U katta ilmiy salohiyatini, ijodiy kuch quvvatini birlashtirib, an’naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi.

Respublikamiz taraqqiyoti ko’p jihatdan yosh avlodni yuksak ma’naviyat va intellectual salohoyat egasi qilib tarbiyalashga bog’liq bo’lib, shu jumladan, ta’lim sohasini isloh qilish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to’g’risida"gi qarori loyihasi kiritilishi natijasida, ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o’quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o’quv va laboratoriya jithozlari, darsliklar va o’quv-uslubiy materiallar, komp’yuter va mul’timedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; o’quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutadi. Shunga ko’ra, Respublikamizning har bir hududlarida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi. Ular STEAM fanlarini o’qitishga ixtisoslashtirildi[1,2]. STEAM-maktab o’quvchilarini zamonaviy o’qitish metodikasi bo’lib, an’anaviy o’qitish tizimiga muqobil tizimdir. U bolalarni bir vaqtning o’zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at) va Mathematics (matematika) bo’yicha

o’qitish tizimiga asoslangan, bunda o’quvchilar amaliy va ko’ngilochar loyihalar asosida saboq oladilar. STEM atamasi birinchi bo’lib, AQSHda maktab dasturiga kiritilgan bo’lib, o’quvchilarning ilmiy texnika yo’nalishlarida kompitensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, bu yo’nalish kengaytirilib, atamaga qo’shimcha harflar kiritildi. Jumladan: “R”-robotic- robototexnikani qo’shib, STREM- deb yoki “A”-art –sa’natni qo’shib, STEAM deb atala boshlandi[3]. STEAM (S - tizim, T - texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuvdir. 501 Bugungi davr talabi dunyo ta’limi oldiga katta vazifalarni qo’ymoqda, ya’ni bolani kelajakda jamiyatda yashashga tayyorlashi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o’zgarayotgan, yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg’un holda faol ishlaydigan kasb egalari timsolini bugungi o’quvchi yoshlarda shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEAM ta’limi dasturining asosini tashkil etadi. STEAM ta’limi o’quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog’laydi. Ma’lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog’liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo’llaniladi, muhandislik esa uylar, yo’llar, ko’priklar va mashina mexanizmlarda o’z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag’ulotlarimiz ozmi-ko’pmi matematika fani bilan ham bog’langandir. STEAM ta’limi bir so’z bilan aytganda bir necha fanni birlashtiruvchi, o’quvchilarni nostandart muammolarni hal qilish va ularning orasidagi vazifalarni taqsimlashni safarbar etish qobiliyatini, nuqtai nazarini himoya qilish, tajriba va tavakkal qilish, tashabbusiga imkon beruvchi va kelajakda kasb tanlashga bo’lgan shaxsiy fazilatlarini tarbiyalovchi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3931-son Qarori.

2. “Fizika va fizika yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-avgustdagi PQ – 4805-son qarori

3. Diane Belcher, Ann M. Johns, Brian Paltridge. New directions in English for specific purposes research. The University of Michigan Press. 2011.

4. Мирзахмедов Б., Ғофуров Н. ва бошқалар. Физика ва астрономия ўқитиш методикаси. Тошкент. 2010 й.

ILOQLIKLAR E’TIQODIDAGI AYRIM MASALALAR

Ahmedov Farruh Nurmuhammad o‘g‘li
Angrenshahar 73-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati
tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iloq (Ohangaron) vodiysi aholisining islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlari va ayrim ibtidoiy diniy marosim va urf-odatlari, dafn marosimlari, ibtidoiy diniy e’tiqodning davrimizgacha yetib kelgan ayrim elementlari haqida qisqacha tarixiy va etnografik ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Iloq, animism, totemizm, fetishism, reinkarnatsiya, klan, Sirius, li, go‘r, altar, monoteistik, ostadon, assuary

Iloq (Ohangaronlik) liklarning qadimgi animistik, totemistik va fetishistik e’tiqodlariga yohud bu hududga zardushtiylikning ta’siriga doir arxeologik ma’lumotlar ko‘p emas. Lekin shuni ta’kidlash joizki, bu yerda yashovchi aholi orasida qadimgi totemistik qarashlar qoldiqlari ba’zan sezilib qoladi. Ma’lumki, XVIII asr oxirida Yevropa faniga kirib kelgan «totemizm» termini ibtidoiy qabila sharoitida ona tomonidan o‘zaro qarindoshlar yoki ota urug‘ vakillari o‘zga ona qarindosh yoki amakivachchalar bilan yashirin narsa yoki jonzot tufayli qondoshlik guruhini (klanni) tashkil etishini anglatadi. Guruhdagi qondoshlar uchun totem o‘simlik yoki hayvonni yeyish, totem narsaga dahl qilish ta’qiqlangan. Ammo totem sanalgan hayvonlarga bag‘ishlangan marosimlarda totem go‘shtidan ozgina yeyish talab etilgan. Shunday qilinsa, go‘yoki totem bilan magik aloqa yanada mustahkamlangan, ozgina go‘sht yemaganlar esa bunday aloqadan mahrum bo‘lganlar. Totem bilan magik aloqadan mahrum shaxslar esa tez kasalga chalinuvchan, dushmanga yengiluvchan bo‘lib qoladilar. Islomgacha bo‘lgan qadimgi diniy tasavvurlarga ko‘ra, dushmanga ziyon-zahmat yetkazish uchun uning totemini o‘ldirish kifoya. Totemizmning asosi qondoshlik aloqalarini tashqi olam bilan bog‘lash, totem ajdodlarga e’tiqod va totemning qayta tirilish (reinkarnatsiya) holatida abadiy yashashiga ishonch tashkil etadi. Jumladan, Ohangaron vodiysining keksa o‘zbeklarida oilasida yangi tug‘ilgan chaqaloqning og‘ziga el ichida hurmat va e’tiborli urug‘doshlariga tuflab qo‘yishni iltimos qilish odati saqlangan. Ularning nazarida, ajdodlar totemi qo‘llab-quvvatlagani yoki shu shaxs tanasiga o‘rnashgani uchun ham omadi ham ishi yurishib, el e’zoziga sazovor. Uning tupigi orqali ana shu xususiyatlar va muqaddas ruh (totem) homiyligi zora chaqaloq vujudiga ham o‘tsa.

Marhumlar ruhining abadiyligi va doimo ularning yonida yashab kelishlari haqidagi animistik tasavvurlar ham Ohangaron vodiysida yashovchi ayrim keksa o‘zbeklar xotirasida saqlanib qolgan. Jumladan, Keksalar o‘gitiga amal qiluvchi

oilalarda hozir ham farzandlariga «Siz»lab hurmat bilan murojaat qilish va ularning kamchiliklarini muloyim so‘z bilan tushuntirish an’anasi mavjud. Angren shahridagi Maydon mahallasi 17-uyda yashovchi 85 yashar o‘lanchi Hamila aya Abduraimovaning aytishlaricha, XX asrning birinchi yarmida yashagan mulla va baxshilar (childirma chalib qo‘chiriq qiluvchi, bemor tanasidan yovuz ruhlarni quvuvchilar) ruhlar bilan muloqot (trans) holatiga kirib, go‘dak tanasida qaysi ajdodi qayta yashayotganligini ham aytib berishgan.

Ohangaron o‘zbeklari xotirasida zardushtiylik va islom dini qabul qilinganidan keyin ham totemistik, animistik, kultlarga ishonch va hokazo ko‘rinishdagi qadimiy tasavvurlar qoldiqlarining saqlanib qolish sabablari ilmiy izohini kutmoqda. Vodiyning tog‘liq qishloqlarida hozirgi kunlarda ham kuchayib borayotgan sel xavfini qaytarish uchun soy qirg‘og‘ida navvos so‘yib, qonini suvga oqizish va kallasini selga uloqtirib, go‘shtini xudoyi qilish udumi mavjud. Bu marosimning ishtirokchilari shunday qilinsa, selning qaytishiga hech shak-shubha qilmaydilar. Bu nimadan dalolat beradi? Bizningcha, bu holat tabiat stixiyalari oldida ojiz va har xil tabiiy ekstrimni yuzaga keltiruvchi ilohiy kuch borligiga ishongan ajdodlarimiz udumi. Ma’lumki, «Avesto»da keltirilgan xudolar panteonida Erhubbi - yer-suv va hosildorlik “xudo”si, Sirius (shunday nomlanuvchi yulduz ham mavjud) esa osmon suvlari “xudo’’si sifatida ta’riflangan. Sirius keyinchalik Tishtir - Tishtr – Sustr – Sust shakliga kelib, o‘zbek folkloridagi Sust xotin obrazini shakllantirdi. Saqlanib qolgan ishonchlarga ko‘ra, osmon suvlari bekorga g‘azabga kelmaydi. Odamlar Siriusga (Sustxotinga) o‘z vaqtida hadya (qurbonlik) bermay qo‘yganlar, uni unutayozganlar. Ularning tasavvuricha shu boisdan endi uy, dala-bog‘lari sel ostida qolmoqda. Keksalarning eslashlaricha, ilgari osmon suvlari “xudo”sining g‘azabini bosish, unga tavba-tazarru qilish niyatida ota-onasiz yetim bolani ushlab kelib tiriklay to‘g‘onga bosganlar. Go‘yoki suv “xudo”si bolaning jonini olganidan so‘ng tinchlanib, sel bosilganmish.

Piskent yaqinidagi va Murotali atrofidagi ko‘hna qabristonlardan jasad solingan maxsus idishlar va sopoldan yasalgan ostadonlar topilgan. Ularga zardushtiylik diniga sig‘inuvchilarning suyaklari solib qo‘yilgan. Bu idishlarning qopqoqlariga mayitning ruhini qo‘riqlovchi echkilar va qo‘ylar tasviri tushirilgan[1] (Yana bir tadqiqotchi T.I.Lebedevaning ta’kidlashicha, Toshkent viloyati (Shosh-Iloq vohasi) va Farg‘ona vodiysida sharqdan yangi turkiy qavmlar ko‘chib kelgunga qadar ham mayitning go‘r (qabr)ga ko‘mish udumi amalda bo‘lgan. Olima islomgacha bo‘lgan (zardushtiylik va boshqa ko‘rinishlardagi) dafnni quyidagi uch tipga ajratadi:

1-tip. Etdann tozalangan suyaklarning ostadonga (assuariy)ga solib ko‘milishi;

2-tip. Etdan tozalangan suyaklarning xo‘jalik idishlariga (xum, xumcha, qozon va boshqa idishlarga) solib ko‘milishi;

[1]Ўзбекистон халқлари тарихи. 1 китоб. Т., 1992 й.

3-tip. Etdan tozalangan suyaklarning maxsus supacha ustiga yoki uncha katta bo‘lmagan chuqurchaga ko‘milishi[2].

Bizningcha, T.I.Lebedeva ajratgan ikkinchi tipdan qadimiy bo‘lishi kerak. Chunki mayit suyaklarini uy-ro‘zg‘or idishlariga emas, loydan yasalib, olovda toblangan, sirti bo‘yalmagan ostadonlarga solib ko‘mish udumini nsbatan keyin paydo bo‘lganligi inson tafakkurining taraqqiyot bosqichlaridan mantiqan anglashiladi. Shu o‘rinda nima uchun marhumning suyagi alohida ko‘milgan, degan savol tug‘iladi. «Avesto» matnlarida yozilgan zardushtiylik e’tiqodiga ko‘ra, mayitning ruhi suyaklar ichiga joylashgan bo‘ladi. Ruh tana qafasidan tezroq halos bo‘lishi uchun suyaklarni qoplab turgan et tezroq yo‘q bo‘lishi kerak. Shu boisdan Zardusht muhiblari o‘likni saqlab o‘tirmay, tezda maxsus (aholi yashaydigan joydan uzoqroqda qurilgan) to‘rtburchak bino - mehrob (altar) ustiga tashlab kelganlar. Bu yerga o‘rgangan etxo‘r qushlar qisqa vaqt ichida mayitning faqat suyagini qoldirishgan. Keyinchalik jasad maxsus mehrobga olib borilmay, go‘r qazilib, mayit yonida ichiga yangi so‘yilgan go‘sht parchasi va don solingan idish bilan birga ko‘milgan. Bundan kuzatilgan maqsad ham ilgarigiday - qurt-qumursqalar tezroq kelib mayit etidan suyakni halos etishlari kerak.

Iloqliklar Turk xoqonligi davridaVII asrdan boshlab monoteistik dinga – Ko‘kturk tangrisiga sig‘ina boshlagan bo‘lsalar, yana bir-ikki asrdan so‘ng musulmonlik e’tiqodini qabul qilish juda qiyinchilik bilan kechdi. VII asrda yozilgan Xitoy solnomalardan birida ta’kidlanishicha, Neota ismli kishi rafiqasi (Shosh-Iloq) xukmdori Yaksart (Sirdaryo) bo‘yidagi, maydoni 10 li (5 km.) keladigan qarorgohda (ko‘hna Banokat nazarda tutilayotgan bo‘lsa kerak) yashagan. Qarorgohning janubiy-sharqiy tomonida joylashgan binoning o‘rtasiga taxt qo‘yilgan. Qamariy birinchi oyining oltinchi kunida bu taxtning ustiga hukmdor Neota-onasi suyaklarining kuli solingan tilla idishni qo‘yishgan. So‘ngra yig‘ilganlar uning atrofida doira shaklida aylanib, o‘tkir hidli gul va mevalarni tashlay boshlaganlar. Hukmdor a’yonlari bilan birga qurbonlik keltirgan. Marosimning oxirida Ne rafiqasi bilan birga maxsus qo‘nalg‘aga ketgan.

VIIasrning o‘rtalarida Shosh bilan Iloq ikki xil e’tiqod va ikki qudratli imperiya – Turk xoqonligi bilan Arab xalifaligi o‘rtasidagi siyosiy-mafkuraviy to‘qnashuvlar maydoniga aylandi. 726 yilgi kelishuvga binoan Sirdaryoning chap hududi arablarga, o‘ng hududi esa Turk xoqonligiga bo‘ysungan. Ammo shunga qaramay, arab istelochilari yirik dehqonlarni xufyalar vositasida poraga sotib olish va boshqa yo‘llar bilan siyosiy tajovuzni davom ettirdilar.

O‘sha paytda arab sarkardalari orasida: «Chochdan o‘tar bo‘lsang, kiyimingning etagini balandroq ko‘tar. Chunki bu yer hamma hukmdorlar nari qochadigan insu-

[2] Лебедева Т.И. К вопросу о мусульманских погребениях первой половины VIII в. – Археология и история Центральной Азии (К 70 летю со дня рождения академика Академии наук Узбекистан Юрия Федоровича Бурякова). Самарканд. 2004.

jinslar yurti», - degan aytim paydo bo‘lgan. Muqanna (769-783) va Rofe ibn Lays (804-810) harakatlarida iloqliklar juda faol ishtirok etganliklari to‘g‘risida ko‘p yozilgan.Bundan shuni anglash mumkinki o‘sha vaqtda mahalliy Iloqliklar Muqannani diniy e’tiqod emas yurti ozodligi yo‘lida qo‘llab-quvvatlaganliklari ko‘proq haqiqatga yaqin zero Muqanna diniy e’tiqodda islomni qabul qilmay Mazdakiylik ta’limotiga e’tiqod qilgan. V.V.Bartoldning yozishicha, Muqanna 783 yili Angren shahrining shimoliy-g‘arbidagi Qizilolmasoyga kelib, «ishtonsoldi» marosimini o‘tkazgan. Xalifa Ma’munning Choch va Iloqdagi voliysi Nuh Ibn Asad 840 yilga qadar bu yerdagi isyonlarni shafqatsizlik bilan bostirdi. Bu davrda Iloq shaharlarida mahalliy ko‘chmanchi va o‘troqlashgan turkiylar bilan birga ularga nomoz va boshqa shariat qoidalarini o‘rgatish uchun Nasr Ibn Sayyor davridan boshlab (733 yildan) Xurosondan majburan ko‘chirib keltirilgan fors-tojik tilida so‘zlashuvi aholining soni ham ko‘payib bordi»[1]. Shu tariqa Iloqda yangi diniy e’tiqod bo‘lgan musulmonchilik qaror topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. Т., 1994 й.
2. Ўзбекистон халқлари тарихи. 1 китоб. Т., 1992 й.
3. Лебедева Т.И. К вопросу о мусульманских погребениях первой половины VIII в. – Археология и история Центральной Азии (К 70 летю со дня рождения академика Академии наук Узбекистан Юрия Федоровича Бурякова). Самарканд. 2004.
4. И. Ёрматов “Илоқ тарихи” Т.,2009.

[1]Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. Т., 1994 й.

ҚЎҚОН ХОНЛАРИНИНГ ЎРДАЛАРИ ТАРИХИДАН: ШОҲРУХБИЙ ЎРДАСИ

Равшанжон Абдуллаев
ЎзР ФА Тарих институти илмий ходими

Аннотация: Мазкур мақолада Қўқон хонлигида ўрдаларнинг қурилиши, уларнинг бошқарувдаги ўрни ҳақида сўз боради. Шунингдек хонликда дастлабки қурилган ўрда - Шоҳрухбий ўрдасининг бунёд этилиши ҳақида айрим маълумотлар кўрсатилган.

Калит сўзлар: Қўқон, ўрда, Шоҳрухбий, Мулла Олим Маҳдум ҳожи, Кўктўнлик азизлар мавзеи.

Қўқон хонлигини бошқарган Минг сулоласи ҳукмдорлари томонидан бир неча маротаба ҳашаматли ўрдалар[47] қурилган бўлиб, улар ҳақида тарихий манбалар ва сафарномаларда маълумотлар учрайди. Афсуски ушбу ўрдалардан фақат сўнги Худоёрхон томонидан қурилган ўрдагина сақланиб қолган, ундан олдин қурилган ўрдалар турли сабабларга кўра бузилиб кетган. Шу сабабдан ҳам уларининг ташқи кўриниши, меъморчилик хусусиятлари ҳақида аниқ маълумотлар айтиш қийин. Шундай бўлсада манбаларда келтирилган маълумотларни ўрганиш орқали, ўрдаларнинг қандай сабабларга кўра бунёд этилгани, қайси хон фармони билан қурилгани, унинг жойлашган ўрни ҳақидаги айрим саволларга жавоб топиш мумкин.

Қўқон хонлигида ҳукумат қароргоҳи хон ўрдасида жойлашган бўлиб, давлат аҳамиятига молик барча масалалар ушбу ўрдада ҳал қилинган. Шу сабабдан ҳам давлатнинг бош қароргоҳи бўлмиш ўрдаларни қурилиш масаласига Қўқон хонлари томонидан алоҳида аҳамият берилган.

Тарихий манбаларда келтирилишича хонликдаги дастлабки ўрданинг қурилиши Шоҳрухбий (1709-1721) номи билан боғлиқ. Маълумки 1709 йилда Қўқон хонлиги ташкил топади ва аста секин унинг давлатчилик асослари шаклланиб боради, ўз навбатида давлатни бошқарув қароргоҳига зарурат туғилади. Шу сабабдан ҳам ўрда учун мос жой аниқланиб тез орада қурилиш ишлари бошланиб кетади.

“Ибратул- хавоқин (Тарихи Шоҳрухий)” асарида бу ҳақида ёзилади: “Хон бир неча кун Чодакда туриб, мазкур туманларга волий ва ҳоким тайинлаб қайтаркан, кўп мол-мулк ва чексиз ғалаба билан ўзбакия даҳаларининг энг

[47] Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ўрда сўзи қуйидагича изоҳланади: “Ўрда 1 Туркий ва мўғул халқларида ҳукмдор, хон қароргоҳи, қалъа. 2 Қўшин қароргоҳи, лашкаргоҳ.”. 163-бет. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20O'.pdf

фозили ва сартия[i] туманларининг энг шарафлиси бўлмиш Тарғова ва Чамишга келиб тушди. Сўнг ёнидаги йиғинни тарқатиб юбормасдан, хонлик ишлари ва султонлик юмушлари маслаҳатига киришди. (Шоҳруххон) анча гап-сўздан кейин: “Душманларнинг ғафлат уйқусида ётганлари уйғонмасдан бурун ва ҳосидларнинг ғофилпеша кишилари огоҳлик топмасдан илгарироқ, ана шу ғанимлар қонини тўкиш учун, қинсиз шамшир ва ғилофсиз қиличларимизни мустаҳкам жой топиб, давлат ва салтанатни мустаҳкамлаш ва ҳашамат-шавкатни анжомлаш учун мазбут ва мустаҳкам янги қалъа ва темир қўрғонлар барпо қиламан. Зеро, салтанат ишларини бажариш қалъа ва арксиз муяссар бўлмайди.”[48]

Мулла Олим Маҳдум ҳожи ҳам ўз асарида мазкур ўрда таърифини келтиради: “Кўктўнлик азизлар мавзеига жар ёқасига *ўрда* ва *арки* мустаҳкам барпо қилиб, ҳамма аркони давлат ва аъёни қурбатлар аркни атроф жавонибига ҳовли ва иморатлар бино айлаб, ўзлари учун хона ва манзил тартиб қилиб, андак фурсатда бул шаҳар ва арк иморатларини тайёрлаб, яхши кун ва соати масъудда ҳамма аъёни вилоят ва аскар ва фуқаро ва хосу ом жамъ бўлуб, Шоҳруххонни подшоҳона либос илан музайян айлаб, эъзоз ва эҳтиром илан подшоҳ кўтариб, тахтга ўтқузуб, ала қадр ал-ҳол нақдиналарини подшоҳларини бошларига нисор айлаб ва хайру худойилар қилишиб муборакбодлик қилишибдурлар. Андин кейин машойиху уламо ва фузало ва акобири вилоятлар келишиб, қайтадин табарукан деб, оқ намадга кўтариб, Шоҳруххонни хон кўтаришибдурлар.”[49]

Шоҳрухбий томонидан қурилган мазкур ўрданинг қурилиш санасини муаррихлар 1121/1709-1710 йил кўрсатишади.[50]

Шоҳрухбий янги қурилган ўрдада 1721 йил вафотига қадар давлатни бошқаради. Кейинроқ унинг авлодлари томонидан бошқа ўрдалар қурилиб, хукумат қароргохи бу ердан кўчирилади. Вақтлар ўтиши билан Шоҳрухбий ўрдаси бузилиб кетади ва унинг ўрнида катта қабристон вужудга келади.

[48] Ниёз Муҳаммад Хўқандий-Ниёзий. Ибратул- хавоқин (Тарихи Шоҳрухий). Тошкент. 2014. 42-бет.
[49] Мулла Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон / Нашрга тайёрловчилар Т.Алимардонов, Н. Абдулҳаким. Қарши. 1992. 48 бет
[50] Ниёз Муҳаммад Хўқандий-Ниёзий. Ибратул- хавоқин (Тарихи Шоҳрухий). Тошкент. 2014. 44-бет.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ONLAYN TURISTIK BOZORNING MOHIYATI VA HOZIRGI TENDENSIYASI Nasriddinov Shohrux Zayni o‘g‘li	4
2.	TERMINLARNING MUROJAAT BIRLIKLARI SIFATIDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna	7
3.	O‘SIMLIK QOPLAMIGA ANTROPOGEN OMILLARNING TA’SIRI Bekzodbek Umarov Baxtiyorjon o‘g‘li Axmadov Qosimjon Furqat o‘g‘li	10
4.	МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДВИЖЕНИЯ ВОЛОКОН ПО ЗУБУ ДИСКРЕТИЗИРУЮШЕГО БАРАБАНЧИКА ПРЯДИЛЬНАЯ МАШИНЫ Ураков Нуриддин Абраматов Жуманазарова Ситора Шоназар қизи	13
5.	МУҲЙИДДИН ИБН АЛ-АРАБИЙ ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФ ФАЛСАФАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ Пўлатов Сайёдбек Ҳасанович	16
6.	TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLARNING O‘RNI Usmonova Sofiya Alimovna Avazmatova Shahzodaxon	19
7.	ПНЕВМОМЕХАНИК ЙИГИРУВ МАШИНАСИНИНГ БАРАБАНЧАНИНИНГ ДИНАМИК ТАҲЛИЛИ Ураков Нуриддин Абраматов Жуманазарова Ситора Шоназар қизи	22
8.	XORIJIY TILNI O‘RGANISHDAGI ENG DOLZARB MUAMMOLAR Shahrizoda Abdumutalipova Hushnudjon qizi	26
9.	ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ИЖТИМОИЙ ҲОЛАТИ (XX АСРНИНГ 80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА) О.Бозоров	29
10.	MUSULMON BO‘LMAGAN MAMLAKATLARDA HALOL TURIZM STANDARTLARINI JORIY ETISH TAJRIBASI Asadov Nosirjon Nozim o‘g‘li	36
11.	HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING ASARLARIDA NUTQ MADANIYATIGA OID QARASHLARI Bekmuratova Gulzoda Sagindikovna	41
12.	INGLIZ TILIDAGI MAQTOV FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI Kadirova Dilfuza Alisherovna	44
13.	“INSON” KONSEPTI BILAN BOG‘LIQ METAFORA VA O‘XSHATISHLAR (SHAVKAT RAHMON IJODI MISOLIDA) Baxranova Muhayyo Rahmat qizi	47
14.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AXAMIYATI Buriyeva Sevara Rustamovna	51
15.	DISEASES AND MEDICINE EUPHEMISMS Hilola Ismailova Inomovna	54
16.	VIDEODARSLAR YARATISHDA NEYRON TARMOQLARDAN FOYDALANISH Ergashov Niyozxon Ilyozxon o‘g‘li	57
17.	FIZIKA O‘QITISHDA PEDAGOGIK SINERGETIKA Muxtorov Farhod Tuyliyevich	61

18.	DETAL ESKIZI VA TEXNIK RASMINI TUZISH Mamajonova Gulhayoxon Bahramjon qizi	65
19.	TAQSIMOT FUNKSIYA VA UNING XOSSALARI Umarov Xabibulla Raxmatullaevich1, Nafasov G‘anisher Abdurashidovich2, 3Mustafoyev Rustamjon Akrom o‘g‘li,	68
20.	INTENSIV USULDA TOVAR BALIQLARNI YETISHTIRISH AFZALLIKLARI Baxodir Jumaboyev. Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna.	72
21.	JALOLQUDUQ TUMANIDA JOYLASHGAN ZIYORATGOHLAR EKOLOGIYASI Akmalova Feruzaxon Furqat qizi	75
22.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI O‘STIRISHDA SAHNALASHTIRILGAN TEATR O‘YINLARINING O‘RNI Yuldasheva Madina Rashidovna	78
23.	CHIZMALARNI CHIZISHDA YO‘L QO‘YILADIGAN TIPIK XATOLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI Mamajonova Gulxayo Bahromjon qizi	81
24.	LOGOPEDIK TA’SIR TAMOYILLARI VA METODLARI NIMA? Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi Qurbonova Nazokatxon Iqboljon qizi	85
25.	ANTROPONIMLARDA SO‘ZLARARO MUNOSABATLARNING IFODALANISHI Gulira’no Akramjanovna	89
26.	MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING O‘RNI Qosimova Yulduz Dusbekovna	93
27.	BUXORO DESTINATSIYASIDAGI TUROPERATORLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING YO‘LLARI Ashurova Maftuna Sharifovna	97
28.	SCRIBING - KELAJAK TEXNOLOGIYASI Siddiqov I.M.	100
29.	BUXORO VILOYATINING MARKAZIY KOLLEKTORDA TUBAN SUVO‘TLARINING TARQALISHI Jo‘rayeva Maftuna Alijonovna	105
30.	MTT TARBIYALANUVCHILARI ONGIDA TABIATDA RANGLAR JILOSI TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI Eshmurodova Aziza G‘ayrat qizi	108
31.	SUV RESURSLARI IFLOSLANISHI VA UNING TIRIK ORGANIZMLARIGA TA’SIRI Omonov Doniyorbek Dilshodbek o‘g‘li Mamatqulova Ziyoda Ikromjon qizi Oqilova Hilola Muhiddin qizi	112
32.	OROL DENGIZI KECHA, BUGUN HAMDA ERTA MISOLIDA Abdulloyeva Go‘zal Xidirboy qizi	116
33.	O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NUTQ VA MULOQOT FE’LLARIDA DARAJALANISH Otaboyeva Mazmuna Raximovna	121
34.	SOBIQ TUZUMNING QATAG‘ONLIK SIYOSATI: TARIX VA TAXLIL Dilhavas To‘lanboyeva	126
35.	TURIZM FAOLIYATIDA RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR	129

	Karimova Fatima Abdurasulovna	
36.	PISA XALQARO BAHOLASH TOPSHIRIQLARIGA O‘XSHASH O‘QUV TOPSHIRIQLARI ASOSIDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI Meliqo‘ziyev Dadaqo‘zi Juraqo‘ziyevich	132
37.	MAQSUD SHAYXZODANING TOSHKENTDAGI HAYOTI Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li	140
38.	ERROR CORRECTION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING Sodiqova Sayyoraxon Talabovna	144
39.	MAQSUD SHAYXZODA IJODIGA QO‘YILGAN TO‘SIQLAR Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li	146
40.	MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARINING YOZILISHI Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li	149
41.	ЮКЛАМАЛАР ГАП ҚОЛИПИНИНГ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА Ойбек Бозоров	152
42.	MAQSUD SHAYXZODANING IJOD YO‘LI Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li	155
43.	RECENT FAREWELL Yuldasheva Dilfuza Muydinjanovna Kuzibayev Bekhruz Bahodir ugli	157
44.	ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МАКСУДА ШЕХЗАДЕ-ПЬЕСА «МИРЗО УЛУГБЕК» Юлдашева Дилфуза Муйдинжановна Кузибаев Бехруз Бахадир угли	160
45.	TA'LIM XIZMATLARI BOZORI VA UNING TARTIBGA SOLINISHI Radjabova Gavxar Umarovna	165
46.	МАҚСУД ШЕЙХЗАДЕ-СУЛТАН ГАЗЕЛУЙ Юлдашева Дилфуза Муйдинжановна Кузибаев Бехруз Бахадир угли	169
47.	DORILMUALLIMIN Yuldasheva Dilfuza Muydinjanovna Kuzibayev Bekhruz Bahodir ugli	173
48.	UTILYSING THE THEORY OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN TEACHING ENGLISH Tuxtasinova Zilola Mukumovna	176
49.	UZUMNING URUG‘SIZ NAVLARINI HOSILDORLIK KO‘RSATKICHLARI Fayziyev Jamoliddin Nasirovich Shokirova Xabibaxon Xudoyberdi qizi Raxmonov Abduraxmon Abdurashid o‘g‘li	180
50.	TA’LIM TIZIMIGA OID LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH VA BOSHQARISH XUSUSIYATLARI Nabijonov Muhammadjalil Tolibjon o‘g‘li J. Hoshimov	184
51.	MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI ORQALI BANKLARNING TRANSFORMATSION SALOHIYATIGA TA’SIRI Tolibjonov Xurshidjon	187
52.	СЎЗГА БЕЛГИ СИФАТИДА ЁНДАШИШ	192

	М.Раҳимова	
53.	UMUMIY FIZIKA DARSLARIDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINI AMALGA OSHIRISH UCHUN CHIZMALI ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH Allamberdiyeva Sevara Abirqul qizi	194
54.	USING AUTHENTIC MATERIALS IN THE CLASSROOM TO TEACH FOREIGN LANGUAGES Набиева Зулайхо	200
55.	KALSIYGA BOY BO‘LGAN MAHSULOTLARNING SUYAKLARGA FOYDALI HUSUSIYATLARI Usmonova Gulnoza Baxtiyarovna To‘lakov Nurillo Qosimovich Aliyeva Nilufar Shovvozovna	203
56.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY ONGINI SHAKILANTIRISHDA ERTAKLAR AHAMIYATI Karimnazarova Vazira	206
57.	PEDAGOGIKA FANLARINI TADQIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI: QARASHLAR VA NAZARIYALAR Xakimov Mirkomil Shuxratjon o‘g‘li	209
58.	TALABALARDA INTELLEKTUAL-IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUMI Xalmuratova Jumagul Gaybullayevna	212
59.	OLIY TA’LIM MUASSASASI TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MAZMUNI Xasanova Gulnoza Ilxom qizi	215
60.	РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО МИНИМУМА НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА Абдуманнонов Хожиакбар Акмалжон ўғли	218
61.	NAFAS YO‘LLARI KASALLIKLARINI DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN AYRIM SINTETIK DORI VOSITALARINING KIMYOVIY TARKIBI Asqarov Ibrohim Rahmonovich Xojiqulov Azizbek Sobirovich G‘offorov Islombek Raximjon og‘li	222
62.	JIGAR TARKIBIDAGI OG‘IR METALLARNI ANIQLASH Asqarov Ibrohim Rahmonovich, Xojiqulov Azizbek Sobirovich, Kenjayeva Dilfuza Akbarali qizi,	228
63.	GELMINTOZ KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARI VA AYRIM DORIVOR O‘SIMLIKLARINING KIMYOVIY TARKIBI Asqarov Ibrohim Rahmonovich Xojiqulov Azizbek Sobirovich Oripov Ibroximjon Obidjon o‘g‘li	235
64.	ЖИГАР КАСАЛЛИКЛАРИНИ ДАВОЛАШДА ХАЛҚ ТАБОБАТИ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ Асқаров Иброҳим Раҳмонович Хожиқулов Азизбек Собирович Тиллаволдиева Моҳичеҳра Акбаржон қизи	240
65.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНАЛИЗА ВНУТРЕННИХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН Алиев Ахмет Оразбаевич Исмайлов Куатбай Сарсенбаевич	244

66.	BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIVE KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI Turaeva Dilafruz Rustamboevna Saidaliyeva Diyora	248
67.	ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН Ж.И.Досекеев Ж.М.Давлетов	252
68.	ҚУРҒОҚЧИЛИК ХИЛЛАРИ ВА ЎСИМЛИКЛАРНИНГ УНГА ЧИДАМЛИЛИГИ Ибрагимова Ситора	257
69.	ЎСИМЛИКЛАРГА ЮҚОРИ ҲАРОРАТ ТАЪСИРИ Шукурова Шахло Гулмуродовна	262
70.	БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ Худайев Исмайил Жумақулович Тожиев Шерзод Мирзохид ўғли	266
71.	РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА ГРАВИРОВКИ И РЕЗЬБЫ ПОГАНЧУ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ШКОЛЫ Шарипова Наргиза	269
72.	ЎСИМЛИКЛАР ШЎРГА ЧИДАМЛИЛИГИНИНГ ФИЗИОЛОГИК АСОСЛАРИ Рўзиева Навбаҳор	271
73.	SCRUM: ГИБКИЙ ПОДХОД К УПРАВЛЕНИЮ ПРОЕКТАМИ СФЕРА ТУРИЗМА Урокова Дильфуза Бахриддиновна Акрамова Насибабону Абдурахмоновна	276
74.	ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚЛАР ШАРОИТЛАРИДА F1 ДУРАГАЙЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ ОТА-ОНА ШАКЛЛАРИДА ТЕЗПИШАРЛИК БЕЛГИСИНИНГ ЎЗГАРУВЧАНЛИГИ ВА ИРСИЙЛАНИШИ Жабборова Умида Қўчқоров Орип Эркинович Мирахмедов Мирвахоб Садикович	283
75.	THE EXPERIENCE OF AGROTOURISM IN ITALY Mirzokulova Kumush Mirshakarovna	286
76.	“SARLAVHA TANLASHDA YO‘L QO‘YILADIGAN XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH” Sevara Eshonqulova Otajon qizi	289
77.	XITOY FUNDAMENTAL TA’LIMI TARAQQIYOTINI TAHLIL QILISHNING “UCH O‘LCHAMLI” DOIRALARI. Xojibekov Ro‘zimurod Uyg‘un o‘g‘li	293
78.	INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY METODLARI Ergashev Elyor Erkin o‘g‘li	296
79.	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОДИНОЧЕСТВА Эргашева Гулнора Олтибой кизи	303
80.	RANGLAR PSIXOLOGIYASINING INSONGA TA’SIRI Zulayho Saminjonova	306
81.	TAFAKKUR USLUBINING DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI Abdullayev Temur Bobir o‘g‘li	309
82.	TO‘PLAMNING JORDAN O‘LCHOVI VA UNGA OID MISOLLAR	312

	Xolboyev Azamat Juraboyeva Shoxida	
83.	O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA SUITSIDAL HOLATLARNING PSIXOPROFILAKTIKASI Nasirova Shınar Otebaevna	316
84.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI Orınbasar Saparov Baxievich	319
85.	O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING TAFFAKUR FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH Yusupov Quwanısh Dawletbaevish	322
86.	TURP O’SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI Asqarov Ibrohim Rahmonovich Mo‘minjonov Mirjalol Muqumjon o‘g‘li Hoshimova Gulchiroy Oxunjon qizi	325
87.	STEAM TA’LIMI O’QUVCHILARNING RIVOJLANISHINI TASHQI OLAM BILAN BEVOSITA BOG’LOVCHI VOSITA Talipova Manzura	328
88.	ILOQLIKLAR E’TIQODIDAGI AYRIM MASALALAR Ahmedov Farruh Nurmuhammad o‘g‘li	330
89.	ҚЎҚОН ХОНЛАРИНИНГ ЎРДАЛАРИ ТАРИХИДАН: ШОҲРУХБИЙ ЎРДАСИ Равшанжон Абдуллаев	334

Eslatma! “Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Mas’ul muharrir

O.O.Bozorov

“Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida” 2023-yil. 342 bet.
© Mualliflar jamoasi.
© Qo‘qon